

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAHSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

BIOLOGIYA KAFEDRASI



B I O F I Z I K A
fanidan
O'quv-uslubiy majmua

Bilim sohasi:	100000 – Gumanitar soha
Ta'lif sohasi:	140000 – Tabiiy fanlar
Ta'lif yo'nalishi:	5140100 - Biologiya

Ushbu o'quv-uslubiy majmua 5140100-biologiya bakalavryat ta''lim yo'nalishida ta'lism olayotgan talabalarga mo'ljallangan. O'quv-metodik majmua Oliy va o'rta maxsus ta'lism vazirligi tomonidan 29.08.2020 yil tasdiqlangan Biofizika fani namunaviy dasturi (№ BD-5140100-2.11) talablari asosida tayyorlangan.

Tuzuvchi: A.T.Karimqulov - biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchi: H.H.Qo'shiev - biologiya fanlari doktori, professor

O'quv-uslubiy majmua Guliston davlat universiteti O'quv metodik Kengashi tomonidan (____ 2022 yil __- bayonnomma) ko'rib chiqilgan va o'quv jarayonida qo'llashga tavsiya etilgan.

MUNDARIJA

1	SO'Z BOSHI.....	4
2	MA'Ruzalar.....	5
3	LABORATORIYA MASHG'ULOTI MAVZULARI.....	95
4	MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI.....	116
5	GLOSSARIY.....	117
6	ILOVALAR.....	127
7	Fan dasturi.....	128
8	Ishchi fan dasturi.....	138
9	Testlar.....	147
10	ON va YAN savollari.....	172

So’z boshi

Bugungi kunga kelib, ilm-fan va ishlab chiqarishning tez sur’atlar bilan rivojlanishi, fanlarning integratsiyalanish tendentsiyasi va shular asosida yangi fan sohalarining paydo bo’lishi bo’lg’usi biologlarning oliy ta’lim muassasalarida konkret fan sohalari bo’yicha olgan bilimlarining tezda eskirib qolayotganligini ko’rsatmoqda.

Respublika Oliy ta’lim muassasalari oldiga fan asoslarini puxta o’zlashtirgan, o’z ustida mustaqil ishlash ko’nikmasi va ijodkorona fikr yuritish qobiliyatiga ega mutuxassis tayyorlashdek dolzarb masalani vazifa qilib qo’ymoqda.

Hozirgi davrga kelib, biofizikaning yondosh fanlar – fizika, fizikaviy kimyo va matematika bilan aloqa doirasining tobora kengayib borishi, bir tomonidan, uning tez sur’atlar bilan rivojlanishini ta’minlasa, ikkinchi tomonidan, nafaqat biologiya, shu bilan bir qatorda meditsina, farmokologiya va qishloq xo’jaligi, umuman biologiyaga asoslangan sohalarga ham chuqurroq kirib borishini ta’minlab, o’sha sohalar uchun talab etiladigan fundamental bilimning muhim elementini tashkil etgani holda, ularga oid muammolarning hal etilishida nazariy baza sifatida xizmat qilmoqda.

Ushbu majmua Oliy ta’lim bakalavriat bosqichi biologiya yo’nalishining kasbiy fanlar bloki o’quv rejasiga kiritilgan biofizika kursining namunaviy dasturi asosida yozilgan bo’lib, universitetlarning biologiya yo’nalishi talabalariga mo’ljallangan.

Majmua O’zbekiston respublikasi Oliy va o’rtal maxsus ta’lim vazirligining 2017 yil 1 martdagи 107-buyryg’ida keltirilgan ilova talablari asosida tayyorlangan bo’lib, ma’ruza mavzulari, laboratoriya mashg’uloti mavzulari, mustaqil ta’lim mashg’ulotlari, glossariy va ilovalar deb ataluvchi qismlardan iborat.

MA’RUZA MAVZULARI

1-MAVZU: BIOFIZIKA FANIGA MUQADDIMA

Reja

1. Biofizikaning predmeti va vazifalari
2. Biofizikaning bo’limlari
3. Biofizik tadqiqotlarning usullari
4. O’zbekistonda biofizikaning rivojlanishi

1.Biofizikaning predmeti va vazifalari

Biofizika fani yosh fanlardan bo’lib, akademik Frank so’zi bo'yicha u “barcha biologiya fanlarining nazariy poydevori” dir. Tabiiy fanlarning jadal sur’atlar bilan rivojlanishi, ularning boshqa fanlarga kirib borishi, bilimlarning yangi sohalarining kelib chiqishi zamonamizning xarakterli xususiyatidir. Fizika va texnika fanlarining taraqqiyoti boshqa fanlar qatori biologiyaga ham katta ta’sir ko’rsatmoqda. Fizikaviy uslublar va tahlillar barcha tabiiy fanlarda, shu jumladan biologiyada ham keng miqyosda qo’llanishi natijasida biologik tizimlarda kechadigan fizik-kimyoviy jarayonlarni va fizik omillarni tirik organizmlarga ta’sirini o’rganuvchi biofizika fani rivojlandi va u hozirgi vaqtida fundamental biologik fanlarning biri bo’lib hisoblanadi.

Biofizikaviy tadqiqotlarning predmeti bo’lib biopolimerlarning strukturasi va xossalari, tabiiy va sun’iy membranalar, ion kanallari, murakkab tuzilgan biologik tizimlar hisoblanadi. Biofizika o’z ichiga alohida olingen makromolekulalarning tuzilishi va xossalari o’rganishdan tortib, biosfera darajasida kechadigan murakkab jarayonlarning mexanizmi va ichki dinamikasigacha bo’lgan muammolarni qamrab oladi. Shu bilan birga biologiya, tibbiyat va qishloq xo’jaligida keng miqyosda qo’llaniladigan tadqiqotlarning fizikaviy uslublarini o’rganadi. Ushbu muammolarning barchasi tabiat qonunlarining birligini, tirik organizmlarga nisbatan fizikaviy qonunlarning tatbiq etilishini tushunishga yordam beradi.

Biomolekulalar, membranalar va tirik tizimlar uchun xarakterli bo’lgan fizik va fizik-kimyoviy jarayonlarning mexanizmlarini, ularga tashqi fizik ta’sirotlarni o’rganish biofizikaning asosiy vazifalardan biridir. Biologik qonunlar asosan fizikaviy kimyo qonuniyatlariga asoslanadi. Biologiyaga ushbu qonuniyatlardan tashqari, qandaydir boshqacha kuchlar; maydonlar, maxsus energetik kuchlar va shu kabilar ta’sirida qaraydigan fikrlar hali ham mavjud. Masalan, turli xil ekstrasenslar, “bioenergetiklar” va biomaydon yoki kosmik energiya yordamida aniq fanni buzib, undan o’z maqsadlarida foydalanayotganlar oz emas. Hozirgi zamon biofizikasi esa ro’y berayotgan hodisalarini aniq qonuniyatlar va dalillar asosida tushuntiradi. Shuningdek, biofizika organizmlarda kechadigan qon aylanish, nafas olish, harakat, ko’rish va eshitish kabi fiziologik jarayonlar mexanizmlarini o’rganadi. Bu fan bevosita boshqa tabiiy fanlar bilan uzviy bog’liq, masalan, fizika, biokimyo, anorganik va organik kimyo, kolloid kimyo, o’simliklar fiziologiyasi, hayvonlar va odam fiziologiyasi, tibbiyat va boshqa shu kabi fanlar erishgan yutuqlaridan foydalanadi va o’z qonunlari va uslublari bilan ushbu fanlar o’rganadigan

jarayonlarni tushuntirib beradi. Biofizika fani amaliy jihatdan turli xil kasalliklarga tashhis qo'yish uchun elektrokardiografiya, rentgenografiya, qon bosimini o'lchash asboblardan foydalanishga, izotoplар, ultratovush, lazer, ultrabinafsha nurlar kabi uslub va vositalarni ishlab chiqishga asos bo'ldi. Biofizika yutuqlaridan qishloq xo'jaligida yuqori samaradorlikka erishish uchun foydalanilmoqda. O'simlik urug'larini elektromagnit maydonlari bilan, yoki infraqizil nur bilan ishlov berish hosildorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Biofizika o'z muammolarini boshqa fan sohalari yutuqlari bilan hal qiladi va o'ziga yaqin turgan fanlarni rivojlanishiga turtki bo'ladi. Hozirgi vaqtida meditsina, ekologiya, fiziologiya, qishloq xo'jaligi va boshqa yondosh fanlarning taraqqiyoti biofizikaning rivojlanishi va uning uslublarini tadbiq qilish bilan bog'liq.

2.Biofizikaning bo'limlari

Biofizika fani bir necha bo'limlarga bo'lib o'rganiladi, lekin bu bo'limlar bir-biri bilan o'zaro bog'liq va hech qanday chegara bilan ularni ajratish mumkin emas. Molekulyar biofizika, membranalar biofizikasi, hujayraviy jarayonlar biofizikasi, qisqaruvchan tizimlar biofizikasi, bioenergetika, fotobiologiya, radiobiologiya, biologik jarayonlar kinetikasi, termodinamika va murakkab tizimlar biofizikasi biofizikaning asosiy bo'limlardir.

Molekulyar biofizika biomolekulalarning fazoviy tuzilishi va xossalari, ularning o'zaro ta'sir kuchlarini o'rganadi. Ayniqsa, makromolekulalar tuzilishi va funktsiyasini o'rganishning ahamiyati katta bo'lib, oqsillar, nuklein kislotalar, uglevodlar va boshqa biopolimerlarning hayotdagagi rolini tushunishga yordam beradi.

Membranalar biofizikasi biomembranalarning tuzilishi va fizikaviy xususiyatlarini, sun'iy membranalar tuzilishi va xossalari, membrana potentsiallarining hosil bo'lish qonuniyatlarini o'rganadi. Membranalardan moddalarni passiv va aktiv transporti, diffuziya va o'tkazuvchanlik, ion kanallarining tuzilishi va xususiyatlarini ham membranalar biofizikasi bo'limida o'rganiladi.

Hujayraviy jarayonlar biofizikasi hujayrada kechadigan fizik-kimyoviy jarayonlarni o'rganadi. Bu bo'limning ahamiyati shundaki, har bir to'qima hujayralardan tuzilgan va ular faoliyatida kechadigan jarayonlarni biofizika fanisiz o'rganish va tushunish mumkin emas. Masalan, hujayra membranasi o'tkazuvchanligi, muskullar qisqarishi, nerv impulsi hosil bo'lishi va tarqalishi, retseptsiya, fotosintez, energiya almashuvi va hokazo. Hujayra biofizikasi membranalar biofizikasi va molekulyar biofizika bilan uzviy aloqada ish olib boradi. Tinchlik va harakat potentsiallarini hosil bo'lishi va tarqalishi, sinapslarning tuzilishi va potentsialarni ulardan o'tishini o'rganish elektrofiziologiya va neyrofiziologiyada ahamiyatga ega.

Qisqaruvchan tizimlar biofizikasi mushaklarning ultrastrukturasi, qisqarishning molekulyar mexanizmlari, mushaklar mexanikasini o'rganadi.

Bioenergetika tirik tizimlarda energiya hosil bo'lishi, transformatsiyasi (bir turdan ikkinchi turga aylanishi) va sarflanish qonuniyatlarini o'rganuvchi bo'limdir.

Hujayrada ATP sintezini bog'lovchi membranalar – mitoxondriya, xloroplastlarning tilakoid va ba'zi mikroorganizmlar membranalarida elektrokimyoviy potentsiali hisobiga hosil bo'lishi XX asr biofizikasining erishgan yutuqlaridan biridir.

Radiobiologiya tirik tizimlarga (albatta, organizmlarga ham) ionlashtiruvchi nurlar ta'siri qonuniyatlarini o'rganuvchi biofizikaning bo'lmidir. Radioaktiv nurlar avvalo, biologik molekulalarni fazoviy tuzilishiga va oqibatda xossalariqa, membranalarga, hujayra va uning organoidlariga ta'sir qiladi va tirik tizimlar faoliyatini izdan chiqaradi.

Fotobiologiya bo'limi esa fotokimyoviy reaktsiyalar va jarayonlar, bunda energiyaning uzatilishi va almashinishi, fotosintez mexanizmini, turli xil to'lqin uzunligidagi nurlarni biologik tizimlarga ta'sirini o'rganadi.

Murakkab tizimlar biofizikasi biror organ, organizm, tur, populyatsiyalarda bo'ladigan murakkab jarayonlarning fizik-kimyoviy asoslarini va ularga turli xil fizik omillarning ta'sirini o'rganadi. Murakkab tizim deganimizda nafaqat organizm, populyatsiya, balki biogeotsenoz yoki biosfera ham tushuniladi. Murakkab tizimlar biofizikasi biologiya fani nazariyalarilari bilan ish ko'radi. Masalan, Ch.Darvinnig evolyutsion ta'limoti bo'yicha turlarning kelib chiqishida tashqi ta'sirlarning (quyosh nuri, bosim, shamol, radioaktiv nurlar) ahamiyati katta. Murakkab tizimlar biofizikasi rivojlanish, ya'ni filogenez va ontogenet qonuniyatlarini bilan birga tashqi omillarning o'rganilayotgan tizimlarga ta'sir qilish mexanizmlarini ham o'rganadi. Biofizikaning ushbu bo'limi kibernetikadan, matematik modellashdan keng foydalanadi.

3.Biofizik tadqiqotlarning usullari

Albatta har bir fanning rivojlanishi, u foydalanadigan uslublarga bevosita bog'liqidir. Quyida zamонави biofizikaning ayrim usullari haqida ma'lumot berilgan.

Elektron mikroskopiya usuli bilan makromolekulalar, membranalar, hujayraorganoidlarining holati, shakl va o'lchamlari aniqlanadi.

Spektrofotometriya usuli eritmalardan o'tgan nurning bir qismini yutilishini o'lchashga asoslangan. Ushbu usul bilan modda kontsentratsiyasi o'lchanadi, ularning ikkilamchi strukturasini, molekula ayrim guruhlarini ionlashuvini o'rganiladi.

Rentgen nurlari difraktsiyasi usuli bilan biomolekulalarning fazoviy strukturasi, ularning shakli va o'lchamlari, ikkilamchi struktura elementlarining orientatsiyasi aniqlanadi.

Fluorescent zondlar usuli. Ushbu usulda maxsus kimyoviy organik modda zondlardan foydalaniladi. Zond "tikilgan" biomolekulaga ma'lum bir to'lqin uzunligidagi nur bilan tasir ettirganimizda, ushbu molekula qo'zg'aladi va o'zidan boshqa to'lqin uzunligidagi nurni chiqaradi va ushbu nurni fluorimetrik asbobi bilan o'lchanadi. Fluoresentsiya usuli bilan makromolekulalarning konformatsion holati, xromofor guruhlarning harakatchanligi, ba'zi ionlar transporti o'rganiladi.

Doiraviy dixroizm usuli asosida qutblangan nurning optik aktiv molekulaga ta'siri yotadi. Makromolekulalarning turli qismlari anizotrop bo'lganligi sababli nurni turlichayutadi, hamda ushbu spektrlarni yozib olish mumkin.

IK-spektroskopiya usullari bilan makromolekulalarning ikkilamchi strukturasi va to'lqinsimon dinamikasi o'rganiladi.

Differentsial spektrofotometriya usuli makromolekulalarning konformatsion holati, xromofor guruhlarning erituvchi molekulalari bilan o'zaro ta'sirini o'rganadi.

Elektron paramagnit rezonans (EPR) usuli bilan makromolekulalar konformatsiyasini, strukturalar va gidrat qavatlarini lokal harakatchanligini aniqlanadi.

Yadro magnit rezonans usuli makromolekulalar va ayrim guruhlarining konformatsiyasini, dinamik xossalari, ligandlarning bog'lanish darajasini aniqlaydi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan usullardan tashqari ***potentsiometriya, rN-metiya, fotometriya va polyarografiya*** usullardan biofizikada keng foydalaniladi.

4.O'zbekistonda biofizikaning rivojlanishi

Biofizika fanining shakllanishida ko'pgina fizik, kimyogar va fiziolog olimlarning xizmatlari katta bo'ldi.

XVIII asr oxirlari va XIX asr boshlarida biofizika alohida fan sifatida o'r ganila boshlandi. Gelmgoltsning biologiyada termodinamika hamda energetika muammolari, sezgi organlari va qo'zg'alishni nerv tolalari bo'yicha o'tishi ustida ilmiy ishlari, fiziolog olim I.M. Sechenovning fiziko-kimyoviy metodlarni o'r ganish, nafas olish jarayoni dinamikasi, biologik suyuqlik va gazlar aralashmasini hisoblash kabi tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. Shu davrga kelib fizkolloid kimyo yutuqlarini biologiyada qo'llash natijasida muhim jarayonlarning mexanizmlarini tushunishga va ilmiy asoslarini yaratishga muvaffaq bo'lindi. Biofizikani fan sifatida tan olinishida, olimlar Lyob va Shadelarning xizmatlari katta bo'ldi. Lyobning partenogenez va serpushtlikning fizik-kimyoviy asoslarini, ionlar ontogenizmini fizik kimyoviy nuqtai nazardan o'r ganishi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Shade yallig'lanishning fizik kimyoviy asoslarini o'rgandi.

Rossiyada XIX asrning 20 - yillarida olimlardan P.P.Lazarev, S.I.Vavilov, P.A.Rebinder, N.K.Koltsova, V.V. Efimov, S.V.Kravkovlarning fundamental tadqiqotlari natijasida o'ziga xos biofizika mакtabiga asos solindi. O'tgan asrning o'rtalarida biofizikaning rivojlanishida sobiq Ittifoq Fanlar akademiyasining Biofizika instituti, M.V.Lomonosov nomidagi Moskva Davlat universiteti Biofizika kafedrasi ilmiy xodimlarining tadqiqotlari katta ahamiyatga ega bo'ldi.

O'zbekistonda birinchi bor 1962 yilda akademik Yo.X. Turaqulov Toshkent Davlat universitetida biokimyo va biofizika kafedrasini ochdi. Ushbu kafedrada mutaxassislar tayyorlana boshlandi. 1979 yil esa ushbu kafedradan akademik B.O.Toshmuhamedov rahbarligida Biofizika va tabiatni muhofaza qilish kafedrasi ajralib chiqdi. O'zbekiston biofizika mакtabini asosiy yo'naliishi biologik membranalarda ionlar transporti va biologik faol moddalarning ta'sir qilish mexanizmlarini o'r ganishdan iborat.

Biofizikani rivojlanishida O'zR FA Fiziologiya va biofizika instituti o'z o'rniga ega. 1985 yil may oyida, O'zR FA Fiziologiya instituti va O'zR FA Biokimyo institutining Biofizika bo'limini birlashishi natijasida, O'zR FA Fiziologiya va biofizika instituti (FBI) tashkil topdi.

Keyingi yillarda O'zbekistonda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarning asosiy yo'naliishlari quyidagilardan iborat bo'ldi: biologik membranalarning tuzilishi va funktsiyalarini fizik-kimyoviy asoslarini o'r ganish (B.O.Toshmuhamedov, Z.U.Bekmuhametova, M.M.Raximov, M.U.To'ychibaev, E.M.Maxmudova), ionlar va metabolitlarning transportining molekulyar mexanizmlari (A.Q.Qosimov, K.S.Safarov, O.V.Krasilnikov, R.Z.Sobirov, M.V.Zamaraeva), qo'zg'aluvchan

membranalarning ion kanallari va neyroretseptorlarini (P.B.Usmanov, Dj.Kalikulov), biologik faol moddalarining tuzilishi va ta'sir qilish mexanizmlari (T.F.Aripov, U.Z.Mirxo'jaev, B.X.Saloxutdinov, B.Ibragimov) bioenergetika va bog'lovchi membranalar funktsiyasi (A.I.Gagelgans, M.X.Gaynudinov, M.I.Asrarov), fotobiologik jarayonlar (E.E.Gussakovskiy, I.G'.Axmadjonov).

Hujayra fiziologiyasi va neyrofiziologiya, biologik membranalardan ionlarning transportini molekulyar mexanizmlari, hujayra faoliyatini boshqarilishi va biologik faol birikmalar ta'sir qilish mexanizmlari kabi sohalarda tadqiqotlarning rivojlanishiga O'zR FA FBI jamoasi tomonidan katta hissa qo'shildi. Institut xodimlari tomonidan aksonal, pre- va postsinaptik ta'sirga ega, turli xil ion kanallariga va retseptorlarga ta'sir qiluvchi yangi neyrotoksinlar aniqlandi. Ushbu neyrotoksinlar yordamida ba'zi bir ion kanallari va neyroretseptor tiplarining strukturasi, funktsiyasi va boshqarilish mexanizmlari o'rganildi. Fiziologik faol moddalar, jumladan, gormonlar, yurak glikozidlari va alkaloidlarni biologik membranalarda ionlar transportiga ta'sir qilish mexanizmlarini o'rganildi. Ba'zi bakteriya toksinlaridan hosil bo'lgan ion kanallarining strukturasi va faoliyati qonuniyatlari ochildi, ionlar transporti va oksidlanishli fosforlanishning hujayradagi tabiiy regulyatorlari topildi.

Nazorat uchun savollar

1. Biofizika fani nimani o'rghanadi?
2. Biofizika qanday bo'limlarga bo'lib o'rganiladi ?
3. Biofizika fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi.
4. Biofizikada qanday usullar qo'llaniladi ?
5. O'zbekistonda biofizika fanining rivojlanishi.

Mavzuga oid adabiyotlar:

Asosiy adabiyotlar:

1. Қосимов М.М. Назарий биофизика асослари. Тошкент, Университет, 2006, 220 б.
2. Remizov A.N. Tibbiy va biologik fizika. Toshkent. Ibn-Sino nashriyoti, 2006.
3. Рубин А.Б. Биофизика. Учебник в 2 х книгах. М., Высшая школа, 2000. 1т. – 448 б. 2т. - 467 б.
4. Антонов В.Ф., Черныш А.М., Пасечник В.И., Вознесенский С.А., Козлова Е.К. Биофизика, Владос, 2000. 287 б.

2-MAVZU: BIOLOGIK JARAYONLAR TERMODINAMIKASI

Reja

1. Kimyoviy termodinamika asoslari. Termodinamik potensiallar.
2. Muvozanatga yaqin jarayonlar termodinamikasi.
3. Muvozanatdan uzoq jarayonlar termodinamikasi.

Birinchi savol bayoni.

Termodynamikaning 1 - qonuniga binoan, sistema tomonidan tashqi muhitdan yutilgan issiq δQ uning ichki energiyasini o'zgartish dU va sistema tomonidan bajariladigan (hajmini o'zgartish dV uchun tashqi P - bosimga qarshi bajariladigan ish PdV hamda kimyoviy o'zgarishlar bilan kechadigan maksimal foydali δA_{max} ishdan iborat) umumiy ish δA ga sarflanadi:

$$\delta Q q dU Q \delta A,$$

bu erda ish

$$\delta A q pdV Q \delta A'_{max}$$

yoki:

$$\delta Q q dU Q pdV Q \delta A'_{max} \quad (1).$$

Bunda, sistemadagi issiq miqdoriga mos, yangi holat funksiyasi - **entalpiya**. (H q U Q pV) ni kiritish foydali, ya'ni $dH q dU Q pdV$.

Aynan mana shu yangi funksiya, termokimyo qonuni (**Gess qonuni**) asosida yetib, unga binoan, kimyoviy reaksiyaning issiqlik effekti - δQ reaksiyaning dastlabki moddadan reaksiya mahsulotigacha bosib o'tadigan yo'li emas, faqat oxirgi va dastlabki holatlari entalpiyalariaro farq bilan belgilanadi. Mazkur qonun yordamida organizmda kechadigan murakkab biokimyoviy reaksiyalarning issiqlik effektini, uning bosqichlari haqida tasavvurga ega bo'lmasdan turib, faqat dastlabki va oxirgi mahsulotlarga doir ma'lumotlar asosida aniq hisoblab topish mumkin. Gess qonuni ovqat mahsulotlarining kaloriyasini hisoblashda ham qo'llaniladi.

Termodynamikaning birinchi qonuning tajribada tekshirilishi, maxsus kalorimetrlarda metabolizm jarayonida organizmdan tashqariga chiqariladigan issiqni o'lchash yo'li bilan amalga oshirilgan. Ma'lum bo'ldiki, organizm tomonidan bir sutka davomida ajratilgan issiq (1859 kkal), uning qabul qilgan ovqat mahsulotlarida mujassamlangan energiyaga (1879 kkal) mos keladi. Shu tarzda isbotlangan 1-qonun organizm bu u yoki bu xildagi energiyaning mustaqil manbai emas degan xulosaga olib keldi.

Termodynamikaning ikkinchi qonuni. Muvozanatlanuvchi (qaytar) jarayonlarda entropiyaning kichik miqdorda o'zgarishi dS - sistema tomonidan yutilgan issiqga $\delta QG'T$ teng, ya'ni $dSq0$, bo'lsa, muvozanatlanmagan (qaytmas) jarayonlarda esa undan katta ya'ni $dS \geq \delta QG'T$

Demak, izolirlangan sistemalarda kechadigan qaytar jarayonlarda $dQq0$, qaytmas jarayonlarda esa $dS > 0$ bo'lishi bilan xarakterlangan. Aynan mana shuning o'zi izomerlangan sistemalarpa entropiyaning maksimal miqdor tomon o'sa borib, termodynamik muvozanat qaror topishi bilan tamomlanadigan qaytmas jarayonlar evolyusiyasining kriteriyasidir. Entropiyaning o'sishi sistema tartiblanganligining kamayishini bildiradi.

Entropiyaning ehtimolli xarakteri. Entropiya sistemaning makroskopik darajadagi betartibligigina emas, molekulyar xaosning ham o'lchovidir. L.Bolsman har qanday makroskopik holat entropiyasi S , o'sha holat joriy etilishining ehtimolligi bilan bog'liq deb faraz qiladi. Bitta makroholat ko'p sonli makroholatlar evaziga amalgta oshadi. Aynan o'sha son (w) - **termodynamik ehtimollik** deb ataladi. (U matematik ehtimollikdan farqlanib, butun va katta sonlar bilan ifodalanadi) Entropiya bilan termodynamik ehtimollik o'rtasidagi aloqa formula

$$Sqkln w$$

Biokimyoviy jarayonlar energetikasi hisob-kitobida **Gelmgols erkin energiyasi** (F) $F q U - TS$ va to'la termodinamik potensial, ya'ni **Gibbs erkin energiyasi**: $G q UqpV - TS$ katta ahamiyatga ega.

Agarda jarayon $T, V q sonst$ sharoitda kechsa, u holda maksimal ish

$$\delta A_{max} \leq -d(U - TS) q TdS - dU q -(dF)_{T,V}$$

$T, r q sonst$ sharoitda esa,

$$\delta A_{max} \leq -d(U q pV - TS) q TdS - dU - pdV q -(dG)_{T,P},$$

bo'lib, tengsizlik alomati jarayonning qaytmasligini bildiradi.

Shunday qilib, qaytmas jarayonlarda, maksimal foydali ishning δA_{max} , bajarilishi, Gelmgols yoki Gibbs energiyasining kamayishi bilan beradi. Eslatib o'tamiz, odatdagи biokimyoviy o'zgarishlar o'zgarmas hajm sharoitida ($dVq0$) amalga oshadi va shuning uchun bunday hollarda dF va dG , bir xil kattalikka ega bo'ladi. Demak, klassik termodinamika har xil biologik jarayonlarning energiyaviy effektini hisoblash hamda shu asosda birga kechish imkonini aniqlashga yordam beradi.

ΔG va ΔF -ni aniqlashning har xil usullari mavjud bo'lib, ular fizikaviy kimyo kursida batafsil ko'zdan kechiriladi. Masalan, sistemadagi ikki tarkibiy qismlar redoks potensiallar farqi (ΔE , B) ma'lum bo'lsa, elektronning redoks potensiali manfiy tarkibdan, redoks potensiali musbat tarkibga o'tishi munosabati bilan ularga mos erkin energiya o'zgarishini (ΔG_0) hisoblab topish mumkin.

$$\Delta G_0 q nF\Delta E,$$

bu erda n -o'tgan elektronlar soni, F - faradey soni (96,5 kDjG'V). Agarda u yoki bu reaksiya davomida aralashmaning dastlabki muvozanatlanmagan holatdan oxirgi muvozanatlangan holatga o'tishiga mos ΔG kamayishini, ya'ni ΔG_0 ni hisoblab topish mumkin.

Agarda, $A \Leftrightarrow V$ tip reaksiya berilgan bo'lsa, ΔG teng

$$\Delta G q -\Delta G_0 Q RTln(BG'A),$$

bu erda ΔG_0 -standart erkin energiya bo'lib, u teng $\Delta G_0 q -RTlnK$.

Shunga binoan

$$. \Delta G q - RTlnK Q RTln(BG'A)$$

Agarda olingan modda va mahsulot konsentrasiyalari o'zaro teng bo'lsa, ya'ni AqV , u holda tenglamaning ikkinchi hadi nolga aylanadi ($ln(BG'A) Q ln1 q 0$). Shunga muvofiq, jarayonda erkin energiyasining o'zgarishi, uning muvozanat konstantasiga bog'liq bo'lib qoladi, ya'ni $\Delta G q -\Delta G_0$ va $\Delta G_0 q -RTlnK$

Bu erda R - gaz doimiysi (1,987 kalG'KG'mol yoki 8,314 DjG'KG'mol). Masalan, *glyukozo-1-fosfat* \leftrightarrow *glyukozo-6-fosfat* reaksiyasining muvozanat konstantasi $Kq17$. Shunga binoan mazkur reaksiya davomida $\Delta G_0 q -1700$ *kalG'mol* bo'lib, u <0 . $\Delta G <0$ ham, reaksiya standart sharoitda o'zligidan kechib, muvozanat o'ng tomonga yo'nalgan deganni bildiradi, ya'ni $Kq17>>1$.

Fosfat kislota qoldig'inining ATPdan gidro'liz natijasida suvg'a o'tkazilishi, ya'ni *adenozin-F~F~F q N₂O* \leftrightarrow *adenozin-F~F q N₃RO₄*,

ham shu xil reaksiyalardan bo'lib, reaksiyaning $-\Delta G_0$ q 7-9 kkalG'mol bilan xarakterlanadi.

Odatda, modda va elektr zaryadining tashilish jarayonida, $\Delta \bar{\mu}$ kattalikning o'zgarishi, elektr kimyoviy potensial o'zgarishi orqali hisoblab topiladi, ya'ni $\Delta G = n \cdot \Delta \bar{\mu}$

bu erda n -modda mol miqdorining soni.

Elektrokimyoviy potensial $\bar{\mu}$ -bir mol modda (μ) va u bilan 1 mol (96,5000 kulon) zaryad tashilganda bajariladigan ishga (A_{el}) ekvivalent kattalik bo'lib, umumiyl holda $\bar{\mu} = \mu^o + A_{el}$.

bu erda $\mu^o = \bar{\mu} - Q \cdot RT \cdot \ln c$ bo'lib, μ^o - standart kimyoviy potensial, elektr ish esa A_{el} , $Q = F \cdot \varphi$, z -zaryad soni, F -Faradey soni, φ - elektr potensiali.

Masalan, zaryadli zarracha (N^Q)ning membrana orqali, birinchi fazaga teshib o'tkazilganda ikkinchi fazadan elektrokimyoviy potensial o'zgarishi

$$\Delta \mu_{2-1} = \bar{\mu}_{2-1} - \bar{\mu}_{1-1} = Q \cdot RT \cdot \ln(c_2 G/c_1) + z \cdot F \cdot \Delta \varphi_{2-1}$$

Standart kimyoviy potensiallar $\mu^o_2 - \mu^o_1$ holida tashilish paytida moddaning kimyoviy xossalari o'zgarmasa, tenglama

$$\Delta \mu_{2-1} = Q \cdot RT \cdot \ln(c_2 G/c_1) + z \cdot F \cdot \Delta \varphi_{2-1} \text{ ko'rinishga keladi.}$$

Jarayonlar ΔG_0 kattaliklarini o'zaro solishtirib, ulararo bog'lanish bor yo'qligini, ya'ni bir jarayon ΔG_0 kattaligining oshib (ergashuvchi jarayon) borishi, ikkinchi bir ergashtiruvchi jarayon ΔG_0 kattaligining kamayish bilan borish imkonini aniqlash mumkin.

Masalan, nafas jarayonida glyukoza molekulasining oksidlanishi erkin energiyaning kamayishi bilan kechadi, ya'ni $\Delta G_0 = -678 \text{ kkal.mol}^{-1}$. Bu esa, fotosintez jarayonida suv bilan karbonat angidrididan glyukozaning hosil bo'lishidagi ΔG_0 -kattaligining oshishiga teng.

Shunday qilib, fotosintezning nafas bilan bog'lanishi termodinamika nuqtai - nazaridan mumkin bo'lган holdir. Mazkur yondashish boshqa jarayonlarning ham bog'langan yoki bog'lanmaganligini aniqlash uchun qo'llaniladi. Eslatib o'tish lozimki, barcha hollarda so'z jarayonning amalda, mazkur molekulyar mexanizmiga binoan kechishi haqida emas, balki faqat uning termodinamik ehtimolligi haqida borishi mumkin, xolos. Ammo bunday yondashuv reaksiya davomida yoki reaksiyalarning bog'lanish hollarida erkin energiyaning o'zgarishini to'g'ridan-to'g'ri inobatga ola olmaydi, albatta.

Nazorat topshiriqlapi

1. Termodinamikaning 1- va 2-qonunlari moxiyati.
2. Entropiyaning ehtimollik xarakteri.
3. Termodinamik potensiallar: Gelmogols va Gibbsning erkin energiyalari.
4. Gibbs erkin energiyalarining biokimyoviy jarayonlarda qo'llanilishi.

Ikkinch savolning bayoni.

Klassik termodinamikaning vaqt omilini chetlab o'tadi, chunki vaqt cheksizlikka intiladi. Ammo, tirik organizmda kechadigan barcha jarayonlar tezligi o'zaro kuchli darajada farqlanadi. Masalan, diffuziya glikoliz yoki nerv (muskul) qo'zg'alishiga

nisbatan sekin kechadi. Ammo ochiq sistemaning statsionar holatida tezlik o'zgarmas kattalikga ega bo'lib, vaqt davomida doimiy bo'lib qoladi. Aynan mana shunday hol statsionar holatdagi sistema xossalaringin o'zgarmasdan saqlanishi bilan xarakterlanadigan termodinamik muvozanat bilan o'xshashligini tashkil etadi. Izolirlangan sistemaning evolyusiyasi, termodinamik muvozanat tomon yo'naliib entropiyaning maksimumga, ($S \rightarrow max$), erkin energiyaning esa minimumga ($\Delta G_0 \rightarrow 0$) intilishi bilan borib oxirgi natijada bunday hol sistemani inqirozga olib keladi.

Termodinamika ikkinchi qonunini klassik ta'rifi, bir qarashda, hayot faoliyat jarayonlari prinsiplariga zidday ko'rindi. Haqiqatdan ham, tirik organizmning o'sish va rivojlanish davrlarida tartiblanganlik va murakkablashish o'zligidan kechadi. Bunday hol, termodinamika ikkinchi qonuni ta'kidlaganidek, entropiyaning oshishi emas, balki uning kamayishi bilan kechadi. Aslida, tirik organizm ochiq sistema bo'lgani uchun, bunday sistema umumiyligi entropiyaning o'zgarishi (dS), unda kechadigan jarayonlarning qaytarmasligi bilan shartlanib, shakllanadigan entropiya (diS) va uning tashqi muhit bilan aloqasi tufayli yuzaga keladigan entropiya (deS) dan tashkil topadi, ya'ni

$$dS = diS + deS.$$

Izolirlangan sistemalarda $deS < 0$ shunga muvofiq, ikkinchi qonunga binoan, bunday sistemalar entropiyasining o'zgarishi $dS < diS < 0$.

Hujayra metabolizmida, har doim diS va deS -ga mos jarayonlarni topish mumkin. Masalan, glyukoza va boshqa oziq moddalarning tashqaridan kirib kelishi va ular oksidlanishidan hosil bo'lgan mahsulotlarning tashqariga chiqarilishi shu xil jarayonlardir. Fotosintezda yorug'lik erkin energiyasining sarflanishi, SO_2 va N_2O dan glyukoza molekulasingin sintezlanishiga olib keladi, ya'ni $deS < 0$. Glyukozaning hujayrada parchalanishi esa entropiyaning oshishiga ($dS > 0$) olib keladi. Xullas, ochiq sistema entropiyasining umumiyligi o'zgarishi oldingi tenglamaga mos keladi. Mazkur tenglamaga vaqt parametrining kiritilishi ochiq sistema entropiyasining umumiyligi o'zgarishi emas, balki, uning vaqtga bog'liq o'zgarishi, ya'ni tezligi haqida ma'lumot beradi, ya'ni

$$\frac{dS}{dt} = \frac{deS}{dt} + \frac{diS}{dt}$$

Agarda $deS/dt < 0$ va $|deS/dt| > diS/dt$, bo'lsa, sistemada entropiya hosil bo'lishining umumiyligi $dS/dt < 0$ bo'ldi, ya'ni manfiy entropiyaning kirib kelish tezligi, musbat entropiyaning chiqib ketish tezligidan katta bo'ladi. Bordi-yu, buning aksi yuz bersa, ya'ni $|deS/dt| < diS/dt$ holatda $dS/dt > 0$ bo'lib, buning oqibatida ochiq sistema zavolga yuz tutadi.

Statsionar holatda, $deS/dt < 0$ va $|deS/dt| = diS/dt$, bo'lgani uchun $dS/dt = 0$, ya'ni sistemaning entropiyasi o'zgarmaydi.

Jarayonlar bog'langanligi. O'zligidan kechuvchi har qanday jarayon, erkin energiyaning d# kamayishi yo'naliishida amalga oshadi. Masalan, ATF, ADF gacha gidro'lizlanganda ("makroerg bog'" uzilishi evaziga) ΔG ancha kamayadi. Hujayrada kechadigan reaksiyalarning ko'pchiligi (biosintez moddalarning aktiv tashilishi va h.k.) erkin energiyasining ($\Delta G > 0$) oshishi bilan kechadi. Ular o'zligidan emas, balki $\Delta G < 0$ tip boshqa kimyoviy reaksiyalar bilan bog'lanish hisobiga amalga oshadi.

Jarayonlarning bog'lanishida, energiyani qayta o'zgartuvchi qurilma sifatida, ATFaza komplekslari ishlaydi. Modullar va elektr zaryadlarining bog'langan oqimlari biologik sistemalarda amalga oshib turadigan eng muhim oqimlardan hisoblanadi.

Ongazer aloqadorligi. Har qanday jarayonni umumlashgan kuch X (sabab) bilan umumlashgan oqim I (jarayon tezligi)ning ko'paytmasi tarzida xarakterlash mumkin. Shu asosda, jarayon entropiyasining o'zgarishi mazkur xarakterlar ko'paytmasi IX (quvvat) ko'rinishida ifodalanadi. Jarayon xarakteriga bog'liq holda, umumlashgan kuch X turli tabiatga ega bo'lishi mumkin: kimyoviy reaksiyalarda u kimyoviy yaqinlik (A), mexanikaviy jarayonlarda kuch (F), elektr hodisalarda-potensiallar farqi ($\Delta\phi$), issiq o'tkazuvchanlikda u harorat gradienti (ΔT) dir.

Agarda muvozanat yaqinidagi sistemada harakatlantiruvchi kuch va u tufayli yuzaga keladigan oqim kuchsiz bo'lsa, ulararo bog'liqlik proporsional xarakterga ega bo'ladi, ya'ni $I_1 q L X_1$, bu erda L - proporsionallik koeffisienti.

Faraz qilaylik, sistemada bir vaqtning o'zida ikki oqim, issiq oqimi - I_1 va moddaning diffuzion oqimi - I_2 hamda umumlashgan kuchlar, haroratlar farqi - X_1 va konsentrasiyalar farqi - X_2 mavjud bo'lsin. L.Ongazerga binoan, muvozanatga yaqin ochiq sistemada, har bir oqim faqat o'z harakatlantiruvchi kuchigina emas, boshqa oqimni harakatlantiruvchi kuchiga ham bog'liq bo'lib, bunday aloqadorlik diagonal koeffisientlar tengligi bilan xarakterlanib, oqimlar bir birini qo'llab turadi.

$$\begin{aligned} & I_1 q L_{11} X_1 Q L_{12} X_2 \\ & I_2 q L_{21} X_1 Q L_{22} X_2 \end{aligned}$$

bu erda L_{ij} -proporsionallik koeffisienlari.

Muvozanat yaqinida X_2 -ning I_1 -ga ko'rsatadigan ta'siri, X_1 -ning I_2 -ga ko'rsatadigan ta'siriga teng. Demak, ikki oqim muvozanat nuqtasida o'zaro bog'liq. Erkin energiyaning oshishi bilan kechadigan, oqim o'zligicha mumkin bo'lmay, u faqat ochiq sistemada kechadigan boshqa jarayon hisobiga amalga oshishi mumkin. Bunday hodisalarga glyukoza yoki aminokislotalarning konsentrasiya gradientiga qarshi, Na^Q gradienti evaziga tashilishini misol qilish mumkin. Oqimlar bog'langanligining mezoni sifatida *dissipativ funksiya*-ning ijobiy kattaligi ish beradi:

$$\psi = T \frac{dS}{dt} \geq 0$$

Jarayon bog'langanligining mezoni bo'l mish ana shu dissipativ funksiya energiyaning issiqlikka aylanib sochilishini ifodalaydi.




Рис. 15.4. Интегральные кривые для апериодического затухания осциллятора с трением.

Prigojin teoremasi. Entropiyaning maksimumga intilishi muvozanatli jarayonlar termodinamikasining asosiy kriteriyasidir.(Klao'zius attraktori). Muvozanatga yaqin ochiq sistemaga xos ana shunday attraktor mavjudmi? Prigojin teoremasiga binoan, tashqi parametrlarning o'zgarmaslik holida, statsionar holatda entropiya hosil qilish tezligi minimal kattalikka intiladi. (Entropiya hosil qilish tezligi doimiy bo'lib, uning kattaligi minimal). Aynan mana shuning o'zi **I.Prigojin teoremasidir**. Muvozanatga yaqin turgan ochiq sistemada kechadigan Ongazer aloqadorlik prinsipiiga bo'ysunadigan qaytmas jarayonlar yo'nalishi kriteriyasi aynan mana shundan iborat.

Agarda sistema statsionar holatda bo'lsa, uning dissipativ funksiyasi $-T \frac{dS}{dt}$ minimal bo'lib, g'alayon tufayli sistemaning statsionar nuqtadan har qanday chetlanaishi, uning oshishiga sabab bo'ladi. Bunga javoban sistemadagi kuchlar va oqimlar shunday o'zgarishi lozimki, dissipativ funksiya yangidan kamayib, sistema o'z statsionar holatiga qaytadi. Aynan mana shuning o'zi muvozanat yaqinidagi sistema statsionar holatning barqarorlik shartidir.

Ta'kidlash muhimki, biologik sistemalar muvozanatdan uzoqdagi sistemalardir. Ular oqimlar bilan kuchlar aro proporsionallik yoki Ongazer aloqadorligi qoidasiga amal qilmaydi. Bunday sistemalarda erkin energiyaning $\Delta G \approx 1-2 \text{ kkalG/mol}$ kattaliklari bilan xarkterlanadigan biokimyoviy jarayonlarga xos o'tishlar sodir bo'ladi. Ongazer aloqadorligi esa faqat energiyaning $\Delta G \leq 0,2 \text{ kkalG/mol}$ o'zgarish bilan kechadigan jarayonlarga taaluqlidir. Shu bilan birga muvozanatdan uzoqdagi jarayonlar statsionar holati uchun I.Prigojin teoremasi haq bo'lmay, bunday sistemalarda, chiziqli jarayonlar termodinamikasiga xos bo'lмаган avtotebranishli rejim qaror topadi.

Nazorat topshiriqlapi

1. Ochiq sistema uchun 2-qonun mavqeini tushuntiring.
2. Statsionar holati barqarorlik kriteriyaasi. Statsionar holati turlari.

3. Ongazer fenomologik tenglamalari, diagonal koeffisientlar tengligi qoidasi.
4. Ongazer tenglamalarining ahamiyati.
5. Prigojin teoremasi.

Uchinchi savol bayoni.

Kuchli darajada muvozanatlanmagan termodinamik oqimlar bilan kuchlar o'rtasidagi aloqa chiziqli bo'lmaydigan, demak, Ongazer aloqadorligiga bo'ysunmaydigan sistemalar termodinamikasi bir qator tadqiqotchilar, bиринчи navbatda I.Prigojin va P.Glensdorf tomonidan rivojlantirildi.

Mazkur yangi, hali ham oxiriga etkazilmagan nochiziq jarayonlar termodinamikasi deb nom olgan ta'limot turli tabiatga ega, kuchli darajada muvozanatlanmagan ochiq sistemalarda o'zligidan tartiblangan strukturalar paydo bo'ladi, ya'ni ularda o'zligidan tashkillanish ro'y beradi, deb ta'kidlaydi.

Nemis olimi G.Xaken, shu xil o'zligidan tashkillanish jarayonlari uchun umumiy bo'lgan, "sinergetika" atamasini taklif etadi (*sinergetika-* yunoncha birgalikdagi yoki kooperativ harakat). Sinergetikaning fizikaviy mohiyati shundan iboratki, muvozanatdan uzoqdagi nochiziq sohada, sistema o'z barqrarligini yo'qotadi, katta bo'lмаган fluktuasiyalar, sistemani ko'п sonli zarrachalarning birgalikdagi harakati orqali yangi rejimga olib chiqadi. Kuchli darajada muvozanatlanmagan sistemalarda bunday o'zligidan tashkillanishning qaror topish hodisasi fizika, kimyo, ayniqsa, biologiyada muhim ahamiyatga ega. Chunki, tirik organizmlar va ularning organ-sistemalari kuchli darajada muvozanatlanmagan mikrosistemalar bo'lib, ularda har doim turli gradientlar konsentrasiya, harorat, elektr va bosim gradientlari mavjud.

Mazkur xulosa, dunyoqarash nuqtai-nazaridan ham katta ahamiyatga ega. Sinergetika, tabiat qonunlari asosida betartib sistemalarda qanday qilib muayyan bir tartiblanganlikning paydo bo'lishi va paydo bo'lgan tartiblanganliklarning murakkablasha borib rivojlanishini izohlab beradi. M.Eygen, kuchli darajada muvozanatlanmagan murakkab sistemalarda kodlar tarzida ezilgan informasiya shakllangan strukturalarning o'ziga o'xshaganni yaratish jarayonini boshqarib turi-ladi, deb ko'rsatdi. Nochiziq jarayonlar termodinamikaning rivojlanishi natijasida, hayotning paydo bo'lishiga doir fizikaviy gipotezani ilgari surishga imkon yaratildi. Nochiziq termodinamika ikkinchi qonuning statusini tubdan o'zgartdi. Haqiqatdan ham, bu qonun, ko'rib o'tganimizdek, muvozanatga yaqin qaytmas jarayonlar faqat strukturaning inqirozigina emas, muvozanatdan uzoqdagi qaytmas jarayonlar tufayli ham strukturalar paydo bo'lishini bashorat etadi. Termodinamikaning ikkinchi muqaddimasi barcha o'zida real jarayonlarning qaytmasligini aks ettirish bilan birga materianing taraqqiyot qonunini ham ifodalaydi. Ikkinci muqadimaning mana shu tarzda tushunilishi, mazkur qonun (berk sistemalarda entropiyaning oshishi, demak, tartiblanmaganlikning oshishi haqidagi qonun) bilan tirik tabiatda, murakkablasha boruvchi va o'z-o'zini hosil qiluvchi strukturalar paydo bo'lishi va ularning rivojlanishi hoqidagi Darvin ta'limoti o'rtasidagi jo'z'iy zidlikka barham berdi.

Ta'kidlash lozimki, bu erda so'z tirik sistemaning ochiq emas, balki uning tashqi muhit bilan birgalikda yopiq sistema hosil qilishi haqida, ya'ni tirik sistema murakkablik darajasining oshishi barobari sistema entropiyasining oshib borishi haqida boryapti.

Glensdorf-Prigojin kriteriyasiga binoan, muvozanatdan uzoqdagi ochiq sistemalarda tartiblanganlik qaytmas jarayonlar tufayli, nochiziq sohada, sistema parametrlari ma'lum bir kritik darajadan oshganda paydo bo'ladi. Prigojin bunday tartiblangan strukturani **dissipativ struktura** deb atadi. Dissipativ strukturalarning fazoviy, zamonaviy va fazo-zamoniy strukturalar deb ataladigan turlari mavjud.

Fazoviy dissipativ strukturalar. Agarda gorizontal holatdagi suyuqlik qatlami tagidan kuchli darajada qizdirilsa, suyuqlikning pastki yuzasi bilan ustki yuzasi o'rtaсидаги harorat farqi paydo bo'ladi. Haroratlararo farq kritik haroratdan oshganda, suyuqlikda konveksiya sodir bo'lad: sovuq suyuqlik pastga, issig'i esa yuqoriga ko'tariladi. qarama- qarshi yo'naliishdagi ikki oqim o'zligidan tartiblanib, natijada to'g'ri olti burchakli yacheikalardan iborat sistema paydo bo'ladi. Har bir yacheykaning chetlaridan oqim pastga, o'rtasidan esa yuqoriga ko'tariladi. Kritik oldi rejimdan kritik orti rejimiga o'tish munosabati bilan sistemaning simmetriyasi buziladi va bunday hol termodinamik faza o'tishiga o'xshaydi. Shuning uchun muvozanatlanmagan sistemalardagi bunday o'tishlar **kinetik-fazo** o'tishlar, . deb ataladi. Qayd qilib o'tilganidek, dissipativ strukturalar faqat kuchli muvozanatlanmagan, ko'p zarrachali sistemalarda yuzaga kelib, ularning holati makroskopik kattaliklarga oid nochiziq tenglamalar vositasida tasvirlanadi. Suyuqlikda Bernar yacheykalarining paydo bo'lishini tasvirlash uchun gidrodinamikaning nochiziq tenglamalari ishlataladi. Bunda taniqli matematik A.M. Lyapunov tomonidan tavsiya etilgan diffirensial tenglamalar yechimining beqarorlik kriteriyasi jalb etiladi.

Zamoniy va fazo-zamoniy dissipativ strukturalar.

Belousov - Jabotinskiy reaksiysi. Vaqtida (zamonda) tartiblangan dissipativ strukturalarning paydo bo'lishiga olib keladigan, o'zligidan tashkillanish jarayoni ba'zi bir nochiziq kimyoviy reaksiyalarda yuz berib, reaksiya mahsulotlarining hosil bo'lish tezligi reaksiyaga kirishuvchi birikmalar konsentrasiyasiga kvadratli bog'liq bo'ladi. 1951 yil B.P.Belousov limon kislotasining kaliy bromat ($KBrO_3$) va seriy sulfat $Ce(SO_4)_2$ aralashmasida amalga oshadigan gomogen davriy kimyoviy oksidlanish reaksiyasini kashf etadi. Reaksiya davomida eritma rangining qizildan ko'k rangga ($Ce^{3+} \leftrightarrow Ce^{4+}$) va aksincha davriy o'zgarishi bilan namoyon bo'ladi. Rang o'zgarishi (almashinishi) taxminan 4 min. davr bilan tebranib, u reagentlar tamom bo'limguncha, ya'ni sistemada termodinamik muvozanat qaror topmaguncha davom etadi.

Umuman, dissipativ strukturalar bu zamonda yoki fazoda yoki ham zamon ham fazoda tashkillangan holatlar bo'lib, ular termodinamik muvozanatga faqat sakrashlar orqali qaytadigan sistemalar sifatida ta'riflanadi. Bu xil fazo o'tishlar natijasida materianing o'zligidan tashkillanish jarayoni, hayotning paydo bo'lishi va hayotiy fermalar evolyusiyasiga bevosita daxldordir. Sinergetika mavqeidan tasodif zaruriyatga faqat qo'shimchagini emas, zaruriyat ham tasodifga qo'shimchadir. Sistemaning bifurkasiya nuqtasidan o'tib (ya'ni yo'naliish "tanlab" olinib), navbatdagi bifurkasiyagacha bo'lgan evolyusiya yo'naliishi, fluktuasiyalarning tasodiflarning yo'naliishi, korrelyasiyanishining yakuni hamda bir- birini kuchaytirish natijasi ma'nosida, I.Prigojin, I.Stengers:- "Kuchli muvozanatlanmaganlik sharoitida o'zligidan tashkillanish jarayoni, tasodif bilan zaruriyat, hamda fluktuasiya bilan

deterministik qonunlari aro yuzaga keladigan nozik ta'sirlanishlarga mos keladi. Bifurkasiya yaqinida fluktuasiyalar yoki tasodif elementlar asosiy rol o'ynasa, bifurkasiyalar oralig'ida deterministik tomonlar ustunlikka ega bo'ladi". Keyin esa:" Bir jinslilik beqarorligi- tashkillanish yaratuvchisidir" deb ta'kidlaydi.

Sinov savollari.

1. Termodinamikaning 1-, 2 - qonunlari, mohiyati.
2. Termodinamik potensiallar- Gelmgols, Gibbs erkin energiyalari. Gibbs erkin energiyasining biokimyoviy jarayonlarda qo'llanilishi.
3. Ochiq sistema va uning 2- qonun mavqeidan tavsiflanishi.
4. Statsionar holat barqarorlik kriteriyasi, statsionar holat turlari.
5. Ongazer fenomologik tenglamalari, diagonal koeffisientlar tengligi qoidasi va uning ahamiyati.
6. Statik va dinamik tartiblanganlik, ulararo o'xshashlik va tafovutlari.
7. Muvozanatdan uzoqdagi sistemalarda tartiblanganlikning yuzaga kelishi va bunday holning biologik ahamiyati.

Mavzuga oid adabiyotlar:

Asosiy adabiyotlar:

1. Қосимов М.М. Назарий биофизика асослари. Тошкент, Университет, 2006, 220 б.
2. Remizov A.N. Tibbiy va biologik fizika. Toshkent. Ibn-Sino nashriyoti, 2006.
3. Рубин А.Б. Биофизика. Учебник в 2 х книгах. М., Высшая школа, 2000. 1т. – 448 б. 2т. - 467 б.
4. Антонов В.Ф., Черныш А.М., Пасечник В.И., Вознесенский С.А., Козлова Е.К. Биофизика, Владос, 2000. 287 б.


3-MAVZU: BIOLOGIK JARAYONLAR KINETIKASI

Reja

1. Kimyoviy kinetika asoslari.
2. Biologik jarayonlarni matematik modellashtirish prinsiplari.
3. Dinamik sistemalar matematik modellarining geometrik yechimlari.

Birinchi asosiy savol bayoni.

Kimyoviy kinetika nazariyasi asosida kimyoviy reaksiyalar tezligi reaksiyaga kirishuvchi reagentlarning faol massasiga proporsionaldir, deb ta'kidlovchi Gulberg-Vege fundamental qoidasi yotadi. Bu qoidani reaksiyaning umumiyligi tezligini tasvirlovchi ifodaga qo'llash har bir faol massa yoki faollikni (misolimizda konsentratsiyani) reaksiyaning stexnometrik teglamasidagi koeffisientiga mos keladigan darajaga ko'tarishga olib keladi. Eng oddiy misol sifatida quyidagi reaksiyani olamiz:



A moddaning parchalanish tezligi uning konsentrasiyasiga $[A]$ ga mutanosibdir, ya'ni : $v q d[B]G'dt q k_1[A]$.

Bordi-yu, $mA + nB \xrightarrow{k_2} P$ ko'rinishidagi reaksiya olinsa, uning tezligi $[A]^m$ va $[B]^n$ ko'paytirmasiga proporsional bo'ladi, ya'ni
 $-dPG'dt q k_2 [A]^m [B]^n$

Tenglamalardagi proporsionallik koeffisienti bo'lmish k_2 - reaksiyaning tezlik konstantasini ifodalab, u olingan reagentlar konsentrasiyasi birga teng bo'lgan shartidagi reaksiyaning tezligini aks ettiradi. Tenglamani oldiga qo'yilgan " -" belgi, reaksiya tezligining vaqt e'tibori bilan kamaya borishini ifodalaydi. To'g'ri va teskari yo'nalishdagi reaksiyalar tezlik konstantalarining nisbati $k_{muv} q k_{Q1g'k_{-1}}$ muvozanat konstantasi deb atalib, $k_{Q1} > k_{-1}$ sharoitda, u to'g'ri reaksiyaning teskari reaksiyadan ustunlik olishini bildiradi.

Kinetikada reaksiyalar birinchi, ikkinchi, uchinchi, nolinchchi va hatto kasr tartibli reaksiyalarga ajratiladi. Reaksiyaning tartibi bu reaksiya tezligining tasvirlovchi tenglamadagi reagentlar konsentrasiyasi darajalarining yig'indisidan iborat kattalikdir. Masalan, agarda $dPG'dt q k[A]^l$ bo'lsa, bu erdag'i A ning darajasi 1 ga teng va shuning uchun bunday reaksiya birinchi tartib kinetikaga binoan amalga oshadi. Bordi-yu, $dPG'dt q k[A]^2$ bo'lsa, A ning ko'rsatkichi 2 ga teng, demak, reaksiya ikkinchi tartib kinetikaga bo'linadi. Va nihoyat, $dPG'dt q k[A]^2 [B] [C]^3$, bo'lsa, (aslida bunday reaksiyaning o'zi hech qanday ehtimolga ega emas), u oltinchi tartib kinetikaga mansub bo'lib chiqadi. Agarda kinetik tenglamada konsentrasiya ko'rsatilmagan bo'lsa, u holda bunday reaksiyaning kinetikasi nol tartib deb atalib, reaksiya tezligi reagent konsentrasiyasi emas, balki reaksiyaning tezlik konstantasiga bog'liq bo'lib chiqadi, ya'ni $dPG'dt q k_0$. Masalan, katalitik reaksiyalarda reagent konsentrasiyasi katalizator konsentrasiyasidan shunchalik katta bo'ladiki, buning natijasida katalizator hamma vaqt reagentga "to'yinib", reaksiya maksimal tezlikda kechadi va reagent konsentrasiyasining navbatdagi oshirilishi reaksiya tezligiga ta'sir eta olmaydi.

Nazorat topshiriqlari

1. Kimyoviy kinetika nazariyasi mohiyatini tushuntiring.
2. Quyidagi $A \xrightarrow{k_1} B$ (mahsulot) reaksiya asosida kimyoviy reaksiya kinetikasini asoslab bering.
3. $-dPG'dt q k_2 [A]^m [B]^n$ dagi k_2 ning qiymatini aniqlang.
4. Kinetik tenglamaning tartibli bosqichlarini tushuntirib bering.
5. Oltinchi tartib kinetik tenglama teglamasini yozib tushuntirib bering.

Ikkinchi savolning bayoni.

Ochiq biologik sistemalarning eng muhim o'ziga xosliklaridan biri, ularda statsionar holatning (sistema parametrлари doimiyligining) qaror topishidir. Statsionar

holatlararo o'tish jarayonlarining kinetik tiplari o'zaro farqlanadi: overshut (oshiqcha chetlashish), yolg'on start va tebranmali rejim. Ochiq sistemalarning bunday xossalari oddiy kirish qismida klapanlari bor, hamda aks aloqa sistemasi bilan ta'minlangan suvli rezervarlardan iborat Barton gidrodinamik modelda namoyish etish mumkin. Qaysiki, unda o'sha soddalashtirilgan holda, tirik hujayradagi statsionar holatning saqlanishini ta'minlovchi kinetik mexanizmlarning deyarli hamma analoglari mavjud. Ammo, biologik sistemalar hatti - harakatini matematik modellash muammolari ancha murakkabdir. Quyida biz biologik jarayonlar kinetikasi hamda ularning muhim xossalarini modellashga doir asosiy qoidalar va yondashishlarni ko'rib chiqamiz.

Biologik jarayonlar kinetikasi biofizikaning bir bo'limi sifatida sistema tarkibiy qismlari ta'sirlashishlariga doir ma'lum bo'lgan qonuniyatlar asosida, uning hatti - harakatini zamonaviy tekshirish bilan shug'ullanadi.

Kinetik sistemani, o'lchanishi mumkin bo'lgan kattaliklar orqali ifodalangan vaqtning har bir momentida, muayyan son kattaliklari ega bo'lувчи o'zgaruvchi kattaliklar va bir qator parametrlar majmuali tarzda xarakterlash mumkin. Parametrlar sistema ustida o'tkazilayotgan kuzatishlar davomida o'zgarmasdan saqlanadigan kattaliklardir, vaqt davomida o'zgaradigan kattaliklar o'zgaruvchandir.

Biologik sistemalardagi o'zgaruvchi kattaliklarga o'lchanishi mumkin bo'lgan kattaliklar: biokimyoda - metabolitlar konsentrasiyasi, mikrobiologiyada - mikroorganizmlar soni yoki ularning biomassasi, ekologiyada - turlarning soni, biofizikada - membranaviy jarayonlar membrana potensiali kattaligi va h.k. Parametrlerga ega harorat, pH, membrananing elektr sig'imi, namlik va h.k. misol bo'ladi.

So'nggi paytlargacha biologiyada qo'llanib kelingan matematik modellar

$$\begin{aligned} dS_1 G' dt & q f_1(C_1, C_2, \dots, C_n, t); \\ dS_2 G' dt & q f_2(C_1, C_2, \dots, C_n, t); \\ & \dots \\ dS_n G' dt & q f_n(C_1, C_2, \dots, C_n, t) \end{aligned} \quad (1)$$

ko'rinishga ega. Oxirgi natijalar masala yechimlarining analitik yo'l bilan hosil qilish mumkin bo'lgan chiziqli differensial tenglamalarga borib taqaladi. Bu erda $C_1(t), \dots, C_n(t)$ - sistema o'zgaruvchi kattaligini tasvirlovchi, vaqtning noma'lum funksiyasi (masalan, modda konsentrasiyasi), $dC_n G' dt$ - o'sha o'zgaruvchi kattalikning o'zgarish tezligi, f_n - ichki va tashqi omillarga bog'liqlik funksiya belgisi. Ma'lumki, real kimyoviy jarayonlar ikkinchi va undan yuqori tartibga ega reaksiyalarni o'z ichiga oladi. Bu tip reaksiyalarning o'ng tomonidagi nochiziq had ularning tahlilini ancha murakkablashtirsa ham, sistemaning matematik xossalarini ancha boyitadi.

Dastlabki tenglamalar sistemasini soddalashtirish maqsadida, quyidagi yondashuvlardan foydalilanadi.

Tenglamalar sonini qisqartirish. Sistema statsionar holatlarning bir qator muhim xossalarini, tenglamalarning aniq analitik yechimlari emas, ularning o'ng tomon xossalarini tekshirish orqali oshkor etish mumkin. Yuqorida keltirilgan tenglamalar sistemasidan iborat modellar umumiy xarakterga ega bo'lib, muhimi

shundaki, tuzilgan model kechayotgan jarayonni to'la aks ettira olishi lozim. Boshqacha aytganda tenglamalar sistemasi modellanuvchi sistemaning dinamik strukturasiga to'la mos kelishi kerak. Umuman bunday metod, ko'pincha, ikki tenglamadan iborat modellar bilan ish ko'rganda yaxshi natija beradi. Tenglamalar sonini kamaytirish hohish bo'yicha emas, balki ob'ektiv qonun - qoidalarga amal qilingan holda bajarilishi lozim. Aks holda, ob'ektning u yoki bu xil muhim xossasini yo'qotib qo'yish bilan modelni nochor va noadekvent qilib qo'yishdek xatarga duch kelishimiz mumkin.

"Tor joy" prinsipi. Bu prinsip reaksiyalar zanjiridagi eng tuban tezlikda kechadigan reaksiyani "tor joyni" xarakterlab, bu joyning parametrlari butun bir sistemaning fe'l- atvorini belgilaydi. Nafaqat modellashda umuman, murakkab jarayonlarni boshqarishda ularning eng sekin kechadigan sohasiga ta'sir etish juda ham samarali bo'lib chiqadi.

Ierarxiyaviy prinsip ham har xil tabaqadagi biologik sistemalarni tahlil etishda ularni soddalashtirishga imkon beradi. Ierarxiyaviy sistema deganda, keng ma'noda, o'zaro ta'sirlashuvchi subbirliklar ketma- ketligidan tashkil topgan ansambl qismlarining ta'sirlanishi tushuniladi.

Hatto, o'zaro ta'sirlashuvchi reaksiyalar zanjiri doirasida tezliklari bilan farqlanuvchi bosqichlar har doim topiladi. Yaxlit biologik sistemada bir vaqtning o'zida tez- kechar fermentativ- kataliz jarayonlari (fermentning xarakterli davri, vaqt 0,01- 100 ms) fiziologik jarayonlar (xarakterli vaqt - minutlar) va reproduksiya jarayonlar (xarakterli vaqt- minutlar, soatlar) kechadi.

Matematik modellash amaliyoti shuni ko'rsatdiki, sistemaning shu xil soddalashtirilgan tenglamalar sistemasini tekshirish, o'sha sistemaning umumiy dinamik xossalarni aks ettiruvchi to'la modelini tahlil qilishga qaraganda ancha to'liq tasavvurlar bera oladi. Bunday hol sistemaning faoliyat sharoiti o'zgarganda uning fe'l- atvori va xarakterini oldindan aytib berishda o'ta muhim. Kinetik model fe'l-atvori tekshirilganda, birinchi navbatda, statsionar holat xossalari nazarda tutilishi lozim. Model yechimidan quyidagi savollarga javob izlanadi:

- sistemada statsionar holat mavjudmi ?
- ular nechta ?
- ularning barqarorlik xarakteri qanday ?
- barqarorlikning sistema parametrlariga bog'liqligi qanday ?
- statsionar holat yaqinida sistema o'zini qanday tutadi ?
- ularning o'tish imkoni bormi ?

Mazkur masalalarni tekshirish bilan, ayniqsa, tenglamalarni echmasdan sistema fe'l-atvorining ko'rsatib o'tilgan qonuniyatlarni, tenglamalarning o'ng tomon $f_1(C_1, C_2, \dots, C_n, t)$ xossalari ko'rinishi bo'yicha imkon beruvchi, differensial tenglamalar sifati nazariyasi shug'ullanadi.

Shunday qilib, hozirgi zamon biologik jarayonlar kinetikasi va matematik modellash sohalaridagi asosiy yondashuv differensial tenglamalarning analitik yechimlaridan voz kechib, biologik sistemalar dinamik fe'l-atvorlarining sifatiy xarakteristikasini olishga erishish hamda fe'l-atvorning sistema xossalarni belgilovchi parametrarga bo'lgan bog'liqligini aniqlashdan iborat. Mazkur masalani

echish uchun omilidan xalos bo'lish zarur. Bunga, statsionar holatda jarayon tezligining o'zgarmasligi haqidagi qoidadan foydalanib erishiladi, ya'ni

$$dS_i G' dt \neq 0 \quad i = 1, 2, \dots, n \quad (2)$$

shu munosabat bilan tenglamalarning so'l tomoni nolga teng qilinib, differensial tenglamalar algebraik tenglamalarga aylantiriladi, ya'ni

$$\begin{aligned} & f_1(C_1, C_2, \dots, C_n, t) q 0; \\ & f_2(C_1, C_2, \dots, C_n, t) q 0; \\ & \dots \dots \dots \\ & f_n(C_1, C_2, \dots, C_n, t) q 0 \end{aligned} \tag{3}$$

Statsionar kattaliklar o'zgarmas kattaliklarga aylantirilganda, \bar{C}_1 , \bar{C}_2 , ..., \bar{C}_n , iboralar - tarzida ifodalanadi. Boshqacha aytganda, tez o'zgaruvchilar ham statsionar holatda o'z statsionar kattaliklaridan uzoqlashmaydi ("tor joy" prinsipini eslang). Shunday qilib, agarda tez va sekin o'zgaruvchilarga tabaqalansa, u holda tez o'zgaruvchilarni ham nazardan chetda qoldirib yoki ularni o'zgarmas kattaliklar deb qarab, e'tibor sekin o'zgaruvchilarga qaratiladi.

Statsionar holatning barqarorligi. Sistemaning g'abayondan so'ng o'z statsionar holatga qayta olish xossasi - statsionar holat barqarorligi mezoni bo'lib ish beradi.

Sistemaning statsionar nuqta \bar{a} atrofidagi chetlashishning ξ bilan ifodalasak, ya'ni $a \neq \bar{a} \pm \xi$, u holda $a \neq \bar{a}$ statsionar nuqtada, $f'(a)$ - funksiyaning hosilasi statsionar holat barqarorligining baholashda muhim rol o'yndaydi. Xususan, bir noma'lumli kinetik tenglama holida, statsionar holat barqarorligi tenglama o'ng tomon hosilasining ishorasiga qarab aniqlanadi.

$f'(a_{(a)}) < 0$ - bo'lganda, **a nuqta barqaror**,
 $f'(a_{(a)}) > 0$ - bo'lganda, **a nuqta beqaror**,

bu erda f' $\bar{a}_{(a)}$ - a kattaligining \bar{a} nuqtada olingan birinchi hosilasi. Agarda f' $\bar{a}_{(a)}$ hosilani λ - sistemaning dastlabki a nuqtadan chetlanishini esa ξ_0 bilan ifodalasak, A.M.Lyapunov qoidasiga binoan, sistemaning t vaqtdan keyingi chetlanishi ξ teng bo'ladi:

$$\xi q \; \xi_0 \times e^{\lambda t}$$

Agar $\lambda > 0$, u holda $t \rightarrow \infty$ da (bu barqarorlik shartidir), $\xi \rightarrow 0$, ya'ni \bar{a} nuqta barqaror. $\lambda > 0$ bo'lsa, $\xi \rightarrow \infty$, demak \bar{a} nuqta beqaror.

Birgina differensial tenglamadan iborat modelga resurslari cheklangan muhitdagi populyasiya turlari sonini ifodalovchi Ferxyulst **logistik tenglamasi** misol bo'ldi.

$$dNG/dt \neq rN(K-N)G/K$$

Uning yana bir boshqa shakli, $dNG/dt \approx rN(K-N) - mN$

bu erda N - populyasiya turlarining t - vaqtdagi soni, r - urchish tezlik konstantasi, m - o'lish konstantasi, K - turlarning mumkin bo'lgan maksimal soni.

Oldingi tenglamani (NqK orqali ifodalab) standart holatga keltirsak, u $dhG/dt = q f(h) - rh(K-h)G/K$ ko'rinishiga kelib, statsionar holatda $f(h) = 0$ u ikki ildizga ega bo'ladi, ya'ni $\bar{h}_1 = 0$ va $\bar{h}_2 = K$.

R.Mey logistik teglamasining diskretlik holida ko'pgina yechimga ega bo'lishini namoyish etadi. $0 < r < 2$ holida $f(h)$ ning grafigi muvozanatga, $2 < r < 2,444$ da esa ikki yillik davrga ega cheklovchi siklga yaqinlashadi.

Biologik sistemalarga xos kinetik xossalardan biri bu parametrarning bir xil kattaliklarida, ham ularda bir necha statsionar holatlarning mavjudligidir. Sistemada ikki va undan ko'p barqaror va bitta beqaror statsionar holat mavjudligi, sistemaning bir barqaror statsionar holatdan boshqa bir barqaror statsionar holatga o'tishini, ya'ni uning ***triggerlik xossasini*** shartlaydi.

Barqaror va beqaror statsionar shoxlarning kesishish nuqtasi ***bifurkasiya nuqtasi*** deb ataladi. Bifurkasiya nuqtalarida sistema sakrash yo'li bilan barqaror shoxga o'tishi mumkin.

Nazorat topshiriqlari

1. Ochiq biologik sistema deganda nimani tushunasiz.
2. Kimyoviy kinetikaning asosiy qoidalari. Kinetik tenglamalar.
3. Biologik jarayonlar kinetikasining o'ziga xos tomonlari.
4. Biologik jaryonlar tenglamalari va kinetikasiga yondashuvlar....
5. Model yechimi talablari.....
6. Tirik sistemalardagi statsionar holatlar. Statsionar holati turlari. Barqarorlik kriteriyasi.

Uchinchi savolning bayoni.

Fazoviy portret va alohida nuqtalar. Yuqorida tasvirlangan $dx/dt = q f(x)$ shaklidagi 1-tartib differensial tenglamalar, ko'pgina biologik jarayonlarni tasvirlashga qodir bo'lsada, ularning monoton yechimlari davriy jarayonlarni tasvirlay olmaydi. Shuning uchun biologik jarayonlar kinetikasida, 1- tartib ikkita differensial tenglamalar vositasida tasvirlanadigan modellar keng qo'llaniladi. Masalan, ikki differensial tenglamadan iborat "yirtqich- ov" modelidagi o'zgaruvchilar (x, y) jufti sistemaning ma'lum bir holatini tasvirlaydi. Koordinata o'qlaridan hosil bo'lgan o'zgaruvchi x, y kattaliklari tushiriladigan tekislikni ko'zdan kechiramiz. Mazkur tekislikdagi, koordinatasi x, y bilan belgilanadigan har qanday M nuqta, sistemaning muayyan bir holatini aks ettiradi. Fazo tekisligidagi nuqta, fazoviy traektoriya bo'ylab, fazoviy tezlik bilan harakatlanadi. Mazkur tezlik esa, fazoviy traektoriyaning (integral chiziqning) muayyan bir nuqtasi orqali o'tkazilgan urinmaning og'ish burchagi dy/dt ga teng.

Fazo tekisligidagi $M(x, y)$ tip nuqtalarning o'zaro ulangan majmuasidan ***fazoviy traektoriya*** shakllanadi. O'z navbatida fazo tekisligidagi barcha fazoviy traektoriyalar majmuasidan sistemaning ***fazoviy portreti*** hosil bo'ladi. Sistemaning "portreti" esa, dastlabki shartlarga bog'liq holda yuz beradigan o'zgarishlarni payqashga imkon beradi. Ko'p hollarda,

$$\begin{aligned} dh/dt &= R(x, y) \\ du/dt &= Q(x, y), \end{aligned}$$

tipidagi tenglamalar sistemasining analitik yechimlaridan voz kechib, ularning faqat ko'rinishi bo'yicha fazoviy portretlar tuzish mumkin bo'ladi. Bunday hollarda ikkinchi o'zgaruvchilar bilan ish ko'rildi. Shunday qilib, ikki differensial tenglamadan iborat model

$$\frac{dx}{dt} = P(x,y)$$

$$\frac{dy}{dt} = Q(x,y)$$

ko'rinishiga ega bo'lib, bu erda $P(h,y)$, $Q(h,y)$ - tekisligining ba'zi bir C sohasidagi uzlusiz funksiyalardir. Mazkur C soha cheklangan va cheklanmagan bo'lishi mumkin. Agarda x va y biologik ma'noga ega bo'lsa, (masalan, modda konsentrasiyasi, turlar soni), ularga ma'lum cheklanishlar qo'yiladi, ya'ni ular manfiy bo'la olmaydi, individlar soni kasr tarzida ifodalanmaydi va h.k. Bunday modellarga **Volterra-Lotka modeli** misol bo'lib u "yirtqich va ov"dan iborat ikki tur sonlarining o'zaro ta'sirini tasvirlaydi.

$$\frac{dx}{dt} = K_1x - K_2xy$$


$$\frac{dy}{dt} = K_2xy - K_3y$$

Bu erda, K_1 - ovning urchish tezlik konstantasi, K_2 - yirtqich bilan ovning uchrashish tezlik konstantasi, K_3 - yirtqichning o'lish tezlik konstantasi, ov soni $h>0$ va yirtqichlar soni $y>0$. Demak, integral chiziq S_y - o'ng tomon yarim o'qning musbat kvadrati sohasidan joylashadi. Barcha fazoviy egri chiziqlar, statsionar holat nuqtalariga mos va barqarorlik bilan farqlanuvchi qator alohida nuqtalarga ega bo'lib, sistema alohida nuqtadan uzoqda ular noma'lumligicha qolaveradi.


Puankare ularning quyidagi klassifikasiyasini taklif etadi.

1. Sistema vaqt e'tibori bilan kamayuvchi eksponenti tarzida alohida nuqtadan qaytib keladi (**barqaror turg'un**)
2. Sistema eksponenta bo'ylab alohida nuqtadan uzoqlashadi (**beqaror turg'un**)
3. Beqaror alohida nuqta – y **egar**. Bu nuqtadan faqat ikkita integral chiziq o'tib, qolgan traektoriyalar uni yonlab o'tib cheksizlikka intiladi.
4. Spiral shakldagi fazoviy traektoriya "o'raladigan" alohida nuqta (**barqaror fokus**). Bunday nuqta so'nuvchi tebranishlarga xos.
5. Yoyiluvchi spiral shaklidagi fazoviy traektoriya boshlanadigan nuqta (**beqaror fokus**). Bunday nuqta amplitudasi osha boradigan tebranishlarga mos keladi.
6. Sistemada so'nmas tebranishlar mavjud (**markaz tip alohida nuqta**). Uning fazoviy traektoriyasi konsentrik ellipsisdan iborat.

"Yirtqich- ov" modelining fazoviy portreti "markaz" alohida nuqta bilan xarakterlanadi. Umuman, mazkur alohida nuqta beqaror hisoblanadi. Chunki dastlabki shartlarning uncha katta bo'limgan o'zgarishi, sistemani yangi berk traektoriyaga olib chiqadi yo bo'lmasa barqaror yoki beqaror fokus holatiga o'tkazadi.



Trigger sistemalar. Biologik va kimyoviy sistemalarda avtokatalitik ("o'z-o'zini tezlashtiruvchi") jarayonlar keng tarqalgan. Bu xil jarayonlar dinamik tartiblanganlikka olib kelishi mumkin. Agarda,



bo'lsa, u holda yig'indi reaksiya $A + V \rightarrow S$ bo'lib, reaksiyalar tezligi teng:

$$V_1 \propto K_1 AX^2 - K_{-1} H^3 \quad \text{и} \quad V_2 \propto K_2 BH - K_{-2} C$$

Mazkur tenglamalar sistemasi uchta yechimga ega bo'lib, ularning ikkitasi barqaror va bittasi beqaror, ya'ni mazkur sistema yuqorida bayon etilgan triggerlik o'tish imkoniga ega. Fazoviy portretdagagi ikki alohida nuqtaning ta'sir doirasi beqaror alohida nuqta orqali o'tuvchi **separatrisa** tomonidan bo'linadi.

Ikkita yoki undan ko'p barqaror statsionar holatga ega bo'lib, ular o'rtasidagi beqaror nuqta ("egar") orqali o'tish imkoniga ega har qanday sistema - **trigger sistema** deb ataladi. Trigger o'tishning ikki usuli mavjud.

Trigger o'tishning kuch (yoki maxsus) usuli. Sistema A nuqtada joylashgan. Tashqi ta'sir hisobiga x o'zgaruvchini keskin o'zgaruvchanlikka, buning natijasida sistema, separatrisadan o'ngda yotgan C nuqta tomon suriladi. Shundan keyin sistema fazoviy traektoriya bo'ylab, o'zligidan C ga keladi (kimyoviy reaksiyalar holida bunday vaziyat modda konsentrasiyasi oshirilganda yuz beradi). O'tishning bu usulida sistemaning fazoviy portreti hamda undagi alohida nuqtalar soni saqlanadi.

Trigger o'tishning parametrik (yoki nomaxsus) usuli. Trigger sistemaning o'tish yo'li ancha sezgir bo'lib, bunda, fazoviy portretning boshqaruvchi parametr (L) ga bo'lgan bog'liqligi namayon bo'lganda, barqaror statsionar holatlar soni kamayadi

va natijada faqat bitta barqaror statsionar nuqta qolib sistema unga "qulab" tushadi. Boshqacha qilib aytganda, triggerli o'tishning bu usulida fazoviy portretning deformatsiyalanishi ro'y berib, o'zgaruvchi (x) emas, sistemaning parametri (harorat, pH, moddalarning sistemaga kelib tushishi tezligi va h.k.) o'zgaradi.

Triggerlik sistemaning bir rejimdan ikkinchi rejimga o'tish xossasi, mumkin bo'lgan barqaror statsionar holatlar va ulararo o'tish imkonini bo'lgan biologik jarayonlarning modellarini tuzishda o'ta foydalidir. Bu xil modelga ikkita ferment sintezlovchi sistemaning boshqarilish mexanizmini tasvirlovchi model (Jakob va Mono sxemasi) misol bo'lib, unda triggerlik xossa, sistemalardan birining fermentativ kompressiyalanishi, ikkinchi sistema tomonidan, fermentativ reaksiya mahsulotining bir yoki bir necha molekulalari orqali nazorat qilinadigan shartida namayon bo'ladi.

Har bir hujayra barqaror statsionar holatlar majmuasiga ega bo'lsada, amalda berilgan t - vaqtda, ulardan faqat bittasi faoliyat ko'rsatadi. Differensiyalanish davrida, hujayra faoliyatning bir statsionar rejimdan, beqarorlik bilan xarakterlanuvchi nuqta orqali boshqa rejimga o'tishi ro'y beradi.

Umuman, statsionar holat beqarorligi biologik shakllanishning (ikkita yoki undan ko'p teng huquqli imkoniyatlaridan birining tanlanishi) sabablaridan biri bo'lishi mumkin.

Avtotebranma jarayonlar. Glikoliz va fotosintez oraliq mahsulotlarining tebranib turishi hamda biologik "soat" asosida yotgan biokimyoviy reaksiyalar davriyligini tekshirish natijasida tebranmali biologik jarayonlarga bo'lgan qiziqish ancha kuchaydi. Tebranmali o'zgarishlarga barcha hollarda ham qandaydir tashqi ta'sir emas, balki sistemaning o'z ichki dinamik xossalari sabab bo'ladi. Bunday sistemalar **avtotebranmali sistemalar** deb ataladi. Davriy faza tekisligidagi berk egri chiziq mos keladi. Agarda mazkur berk egri chiziq izomerlangan bo'lib, unga tashqari yoki ichkaridan qo'shni traektoriyalar spiral bo'ylab yaqinlashsa, bunday izolirlangan tarektoriya barqaror **cheklovchi sikl hisoblanadi**. Sistema uncha katta bo'lmanan g'alayon holatiga keltirilganda, u bari bir cheklovchi sikl traektoriyasiga qaytadi. Uni umuman, beqaror hisoblanadigan "markaz" alohida nuqta atrofidagi traektoriyadan fapqlantiruvchi muhim o'ziga xoslik ham aynan mana shunda. Cheklovchi siklning traektoriya bo'ylab harakatlanish davri va tebranish amplitudasi boshlang'ich shartlarga bog'liq bo'lmaydi.

Nazorat topshiriqlari

1. Biologik jarayonlarni grafikaviy tasvirlashdan qanday xulosalar chiqarish mumkin.
2. Fazoviy traektoriya deganda nimani tushunish mumkin. Chizib tushuntirib bering.
3. Bir va ikki argumentli matematik modellar, ularning geometrik yechimlari va fazoviy portretlar.
4. Trigger sistemalar.
5. Triggerlik o'tishda barqarorlik va beqarorlik holatlari.
6. Avtotebranma jarayonlarni tushuntiring.

Mavzuga oid adabiyotlar:

Asosiy adabiyotlar:

1. Қосимов М.М. Назарий биофизика асослари. Тошкент, Университет, 2006, 220 б.
2. Remizov A.N. Tibbiy va biologik fizika. Toshkent. Ibn-Sino nashriyoti, 2006.
3. Рубин А.Б. Биофизика. Учебник в 2 х книгах. М., Высшая школа, 2000. 1т. – 448 б. 2т. - 467 б.
4. Антонов В.Ф., Черныш А.М., Пасечник В.И., Вознесенский С.А., Козлова Е.К. Биофизика, Владос, 2000. 287 б.

4-MAVZU: MOLEKULYAR BIOFIZIKA ASOSLARI


Reja

1. Biomakromolekulalar strukturasi.
2. Makromolekulalardagi ta'sirlashuvchi kuchlar.
3. Makromolekula faoliyati paytida uning konformasiyasida sodir bo'ladigan o'zgarishlar.

Birinchi savol bayoni.

Biopolimerlar zanjir shaklidagi tirik va egiluvchan molekulalardan iborat, yuqori molekulyar birikmalardir. Zanjir shaklidagi tuzilish chiziqli (oqsillar, nuklein kislotalar, kauchuk, guttapercha, selluloza), shoxlangan zanjir (glikogen, amilopektin) yoki fazoviy to'r (ba'zi bir oqsillar) shaklida bo'lishi mumkin. Polimerlarga stereospesifiklik (xiralik) xarakterli bo'lib, molekulaning stereospesifikligi ikki tur oyna simmetriyasi- stereoizomerlar: o'ng-D va chap L-forma holatida uchraydi. Nuklein kislotalar tarkibiga qandlarning D-qator, oqsillar tarkibiga esa, aminokislotalarning L-qator vakillari kiradi. Molekulaning xiralligi qutblangan nurni turlicha yutish va burish xossalari bilan farqlanadi. Organizm uchun L- va D-formalarning antipodlari o'zaro farqlanadi. Shunday moddalar borki, ularning bir formasi zaharli bo'lsa, boshqasi zararsiz, L-asparargin kislota mazaga ega emas, ammo uning antipodi D-asparagin kislotasi shirin.

Molekulaning stereospesifikligi ularning kimyoviy xossalarda o'z aksini topadi. Masalan, hayvonlarning proteolitik fermentlari faqat L-aminokislotalardan tarkib topgan oqsillarni gidro'lizlay oladi. Sibir yazvasi bakteriyalari po'stidagi oqsil tarkibida D-glutamin kislota bo'lgani uchun ular proteolitik fermentlar ta'siridan parchalanadi. Oqsillar va nuklein kislotalardan tashqari ba'zi bir qandlar biopolimerlar jumlasiga kiradi. Hujayraning muhim polisa xaridlari - kraxmal (amiloya va amilopektindan iborat ikki formada), o'simliklar sellulozasi, bo'g'imoyoqlilar xitini, hayvon kraxmali- glikogen amilazadan farqlanib, tarmoqlangan shaklga ega.



Birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi strukturalar.

Oqsillar va nuklein kislotalar informasiya saqlovchi va tashuvchi makromolekular bo'lib, ularda informasiyaning kodlanishi, ularga mos aminokislota, nukleotid "xarflari" vositasida amalga oshiriladi. Mutatsiyalar tufayli informasiya teksti o'zgaradi. Polisaxaridlar makromolekulasi bir xil zvenolardan iborat bo'lgani uchun, informasiyaga ega emas. Shuning uchun ular tayanch va oziqa vazifalarini bajaradi.


Oqsil va nuklein kislotalar molekulalari, kovalent bog'lar orqali bog'langan monomerlarning muntazam va aniq ketma-ketligidan tashkil topadi. Mazkur ketma-ketlikdagi monomerlarning soni va takrorlanish tartibi makromolekulaning **birlamchi strukturasi** deb ataladi.

Polimer zanjiridagi aminokislota qoldiqlarining muayyan tipi va ularning muntazam ravishda davriylik bilan takrorlanib kelishi, oqsillar turi va funksiyalarining xilma- xilligini ta'minlaydi. Nuklein kislotalarning birlamchi strukturasi qand (RNKda riboza, DNKda dezoksiriboza) bilan fosfat kislota qoldiqlari zvenolarining takrorlanishidan iborat. Har bir uglevod zvenosiga azot asoslardan (adenin, timin, guanin, sitozin) birikadi, ya'ni DNK va RNK tekstlari, to'rt xarfli alifbe bilan ezilgan. RNKda timin o'rniiga urasil kirgan. DNK- nukleotid tarkibi Chargaff qoidasiga bo'ysunadi: molekuladagi A soni T soniga, S esa G soniga teng, purinlar (AQG) soni piramidinlarsoni (SQT)ga teng, ya'ni (AQG)G'(SQT) q 1.

Oqsil va nuklein kislotalar strukturasining o'ziga xos alohidaligi - struktura erkin energiyasining minimal kattaligi bilan xarakterlanadigan kimyoviy guruuhlar barqarorligidir. Bunday holatga ko'pincha vodorod bog'lari hosil qilish orqali erishiladi. Monomerlarning fazoviy muntazamligi **ikkilamchi strukturani** shakllantiradi. Amid guruhi (-N-H) vodorod atomi karbonil (-SqO) guruh kislород atomi bilan vodorod bog'i -SqO---H-N hosil qiladi. Aynan shu munosabat bilan DNK ikkilamchi struktura yakka (oqsillar va RNKda) yoki qo'sh (DNKda) spiral xarakteriga ega bo'ladi.


Poling va Kori polipeptid zanjiri ikkilamchi strukturasining asosiy ikki varianti haqidagi g'oyani ilgari surdi. α -spiral- har bir peptid bog'i zanjir o'qiga nisbatan 100°

ga burilib o'ram hosil qiladi va bir to'la o'ram 3,6 peptid birligini o'z ichiga oladi. Har bir o'ram molekula o'qi bo'ylab 0,54 nmga siljiydi. Spiral o'ngga va chapga buralgan bo'lisi mumkin. Ikkilamchi struktura elementi sifatida, α -spiraldan tashqari har xil taxlangan β -struktura ham mavjud bo'lib, ular parallel va antiparallel formalar holida uchraydi. Nativ DNK ikkilamchi strukturasi azot asoslarining bog'lari vositasida juftli (bir zanjirdagi A ikkinchi zanjirdagi T bilan, G esa S bilan bog'lanadi, aynan mana shuning o'zi Chargaff qoidasining mohiyatini tashril etadi) bog'lanib, bir- biriga o'ralgan ikkita polinukleotid zanjirining qo'sh spiral shaklida taxllanishidan hosil bo'ladi. Oqsillarda muntazam struktura hosil qilmaydigan (tartiblanmagan) sohalar ham bo'lib, ular spiralning fazoda egilish joylarida uchraydi. Egilishlar, diffuziya va vodorod bog'lari elektrostatik va hidrofob ta'sirlashishlari tufayli ikkilamchi struktura elementlarining fazoviy taxlanishidan **uchlamchi struktura** shakllanadi.



Ikkilamchi va uchlamchi strukturalararo chegara shartli bo'lib, amalda, oqsilning muntazam (domenli) hamda muntazam bo'limgan zvenolardan tashkil topgan yaxlit fazoviy struktura (konformasiya) bilan ish ko'rildi.

Nativ oqsil molekulasi bir yoki bir nechta har xil uchlamchi struktura elementlari (subbirliklar)dan topgan bo'lisi mumkin. Subbirliklar assosiasiyasidan iborat molekulyar ust struktura - **to'rtlamchi struktura**. deb ataladi. Masalan, gemoglobin molekulasi to'rtta (α_1 , α_2 , β_1 va β_2) subbirliklardan tashkil topgan. Tashqi muhit parametrlarining (harorat, ion tarkibi, pH, tuban molekulyar birikmalar konsentrasiyasining) o'zgarishi oqsil konformasiyasini belgilovchi kuchlar balansini o'zgartib, oqsilning yangi sharoitda, barqaror yangi konformasiyaga o'tishga sabab bo'ladi. Makromolekulalarning strukturasi va konformasision o'tishlarini tekshirish uchun har xil fizika-kimyoviy metodlar qo'llaniladi.



Muhokama uchun savollar:

1. Biomakromolekulalarning qanday strukturalari mavjud?
2. Makromolekulalarning 1, 2, 3 va 4 strukturalari qanday shakllanadi?
3. Makromolekulalarning strukturasi va konformasjoni o'tishlarini tekshirish uchun qanday fizik-kimyoviy metodlar qo'llaniladi?

Ikkinci savolning bayoni.

Makromolekulalar fazoviy (asosan uchlamchi) strukturasining shakllanishi va mazkur struktura barqarorligining ta'minlanishida nokovalent kuchsiz ta'sirlashishlar ham muhim ahamiyatga ega. Ular quyidagilardir.

Elektrostatik ta'sirlashishlar. Oqsil molekulasidagi toplangan yon guruuhlar elektrostatik ta'sirlashishlar tufayli tuz ko'priklari hosil qiladi. Neytral rN sharoitida asparagin, glutamin qismiga hamda S-uchaminokislota qoldiqlari manfiy, lizin, arginin qoldiqlari hamda gistizin imidozol halqasi va N-uchaminokislota qoldiqlari musbat zaryadga ega bo'ladi. Molekula yoki ikkita molekulaning shu xil sohalari o'zaro yaqinlashganda, ular o'rtasida elektrostatik ta'sirlashishlar yuzaga keladi. Bu xil ta'sirlashish masofadan ta'sirlashishlar jumlasiga mansub bo'lib, uning energiyasi zaryadli. Guruuhlar elektr zaryadi, muhit dielektr doimiysi hamda zaryadli guruuhlararo masofaga bog'liq bo'ladi. Energiyasi $40-400 \text{ kDj.mol}^{-1}$ kattaliklari bilan xarakterlanadi.

Van-der-Vaals ta'sirlashishlari, yaqindan ta'sirlashuvchi kuchlar guruhi tashkil etib, dispersion, dipol-dipol va dipol-induksiyalangan dipol ta'sirlashishlaridan iborat.

Dispersion ta'sirlashish, neytral guruuhlar yoki molekulalar o'rtasida yuzaga keladi. Ta'sirlashish energiyasi guruuhlarining ionlashish potensiali, qutblanuvchanligi hamda ta'sirlashuvchi guruuhlar orasidagi masofaga bog'liq holda $4-40 \text{ kDj.mol}^{-1}$ darajasidagi kattaliklar bilan xarakterlanadi.


Dipol-dipol ta'sirlashish - doimiy dipol momentiga ega ikkita qutbli guruuhlar o'rtasida yuzaga kelib, uning energiyasi guruuhlar dipol momenti, muhit dielektr doimiysi va ulararo masofaga bog'liq bo'ladi.

Dipol-induksiyalangan dipol ta'sirlashish -doimiy dipol guruh bilan dipol bo'lmanan, qutbsiz guruh o'rtasida induksiyalanib yuzaga keladi. Energiyasi dipol moment, qutblanuvchanlik, muhit dielektr doimiysi va ular aro masofaga bog'liq bo'ladi. So'nggi ikki ta'sirlashishlar energiyasi $0,4\text{-}4 \text{ kDj.mol}^{-1}$ kattaliklari bilan xarakterlanadi.

Suv ctruksiyasi va gidrotob ta'sirlashishlar. Suv molekulasidagi kislorodning kovalent bog'lar hosil qilishda ishtirok etmaydigan ikki juft elektronlari cho'ziq orbitallarda joylashib, molekulaning o'sha tomonida manfiylik namoyon qiladi. Molekulaning kislorodga kovalent bog'langan vodorod atomlari tomonida esa musbatlik namoyon bo'ladi. Bunday hol suyuq suvda, suv molekulalari o'rtasida vodorod bog'larining shakllanishga imkon yaratadi va shu asosda suv molekulalari o'zaro vodorod bog'lari vositasida ***klasterlar*** (to'r) hosil qiladi. Klasterlar asosida suvning uch o'lchovli fazoviy (muz) ctruksiyasi shakllanadi. Bunday struktura asosida tetraedr etib, u jami besh (bitta markaziy, to'rtta periferik) molekuladan tashkil topadi. Markaziy molekula atrofiga to'rtta molekula bilan vodorod bog'lari orqali bog'lanadi. Odatdagi (20° S) haroratda suv molekulalarining taxminan 70% klasterlarga bog'langan, qolgan 30% esa erkin holatda bo'ladi. Demak, suyuq suv tartiblangan strukturaga ega. Suvda unda erimaydigan organik (gidrofob) moddalar tushirilganda, suvning strukturalanganligi yanada oshadi. Bunday hol, o'z navbatida, suvning gidrofob modda molekulalariga ko'rsatadigan siqib chiqarish ta'sirini kuchaytiradi. Shu tarzda gidrofob ta'sirlashish yuzaga keladi. Gidrofob ta'sirlashishlar, kuchsiz ta'sirlar bilan bir qatorda, polimer zanjiri uchlamchi ctruksurasining shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Domenlar va oqsilning uchlamchi strukturası

Oqsilning uchlamchi ctruksiyasi polipeptid zanjiri asosida shakllangan ikkilamchi struktura elementlarining termodinamik jihatdan barqaror bo'lib taxlangan konformasiyasidan iborat. Oqsillarni denaturasiyalash va renaturasiyalash tajribaladi, natijasiga ko'ra, oqsilning ikkilamchi struktura hosil qiladigan qismi katta tezlik bilan α -spiral yoki β -struktura hosil qiladi. Navbatdagi bosqichda uchlamchi struktura shakllanadi. Stafilokokklar nukleazasi 1 sekundda, metmioglobin esa 10 sekundda yig'ilib ulguradi. So'nggi paytlarda ma'lum bo'ldiki, yaxlit oqsil molekulasi (immunoglobulin miozin, fibrinogen va b.) bir nechta ixcham, o'zaro ancha mustaqil sohalarni domenlarni o'z ichiga oladi. Ularni proteolitik fermentlar ta'sirida ajratib olish mumkin. Ajratib olingan domenlar ko'p qismlarda o'z funksional faolligini saqlaydi. Rekombinant DNK ustida o'tkazilgan tadqiqotlardan ma'lum bo'ldiki, eukariot hujayralar geni alohida sohalardan, ya'ni oqsil molekulasi alohida qismlarni shakllantiruvchi aminokislotalar ketma-ketligini kodlovchi ekzonlar va kodlash xossasiga ega bo'lmanan intronlardan tashkil topadi. Qayd etildiki, polipeptid zanjiridagi domenlar chegarasi, gendagi ekzonlar chegarasiga mos keladi. Demak, ekzonlar - oqsil domenlarining genom ekvivalentidir.



Muhokama uchun savollar:

1. Elektrostatik ta'sirlashishlar deb qanday ta'sirlashishlarga aytildi?
2. Van-der-Vaals ta'sirlashishlari va ularning turlari.
3. Gidrotob ta'sirlashishlar deb qanday ta'sirlashishlarga aytildi?
4. Domenlar nima?

Uchinchi savolning bayoni.

Ko'pgina biopolimerlar faoliyati, ularning ligandlar - L (tuban molekulyar birikmalar - gormonlar, menabolitlar, dorivor moddalar, ionlar) bilan kompleks hosil qilishi orqali amalgalashadi. Makromolekulalarning ligandlarni biriktirib, kompleks hosil qilish jarayoni gemga ega oqsillar, ayniqsa, gemoglobini (Hb) va mioglobinda (Mb) batafsil o'r ganilgan. Gemoglobinning, jumladan, mioglobinning kislorod bilan kompleks Hb(0₂)₄, Mb0₂ hosil qilib to'yinishi, kislorodning parsial bosimiga r_{O₂} bog'liq bo'lib, bog'liqlik to'yinish grafigi tarzida tasvirlanadi. Gemoglobinning 50% to'yinishiga mos r_{O₂} kattaligi, Hb-ning kislorodga yaqinlik o'lchov (R₅₀) sifatida qabul qilingan.

Kooperativlik. Gemoglobinning kislorodga to'yinish grafigi, mioglobinning shu xil (giperbola) grafigidan farqlanib, sigmoid shaklga ega bo'ladi. Xill modeliga ko'ra, molekuladagi kislorod bog'lovchi markazlar (gemlar) mustaqil bo'lmay, markazlardan biriga birinchi O₂ molekulasining birikishi, boshqa markazlarning O₂-ga yaqinligini oshiradi, ikkinchi molekula O₂ ning birikishi, uchinchi O₂ molekulaning birikishini osonlashtiradi va h.k. Mana shu xil markazlar to'ldirilishi barobari, bir xil markazlar assosiasiya konstantalarining o'zgarishi orqali amalgalashigan bog'lanish - *kooperativ bog'lanish* deb ataladi.

Bir vaqtning o'zida *n*-ta ligandning makromolekulaga birikish reaksiyasi $MqnL \Leftrightarrow ML_n$ tarzida tasvirlanib, jarayon assosiasiya konstantasi (K_a) ifodalanadi.

$$\bar{K}_a = \frac{[ML_n]}{[M]^n C^n}$$

Mazkur tenglamadan, makromolekulaning nisbiy to'yinish holi uchun $[ML_n]$ q $K_a * [M]^n C^n$ hosil qilib, $[ML_n]$ q Y va $[M]$ q 1-Y orqali ifodalab, tenglamani $YG'(1-Y)$ q $K_a * C^n$ holiga keltiramiz. Ularni logarifmlab, **Xill teglamasini** keltirib chiqaramiz, ya'ni

$$\lg[YG'(1-Y)] q \lg K_a q n \cdot \lg C.$$

Mazkur tenglama, makromolekula nisbiy to'yinish darajasining ligand konsentrasiyasiga bog'liqligini tasvirlab, absissa o'qiga muayyan bir og'ish ($tg\alpha$) hosil qilib joylashgan to'g'ri chiziq Xill grafigi ko'rinishida namoyon bo'ladi. Kooperativlik holida, Xill grafigi maksimal og'ishining $tg\alpha$ burchagi Xill koeffisientiga (h_{-ga}) teng ya'ni yaqin. Mazkur koeffisient kooperativ jarayonlar uchun $h > 1$ yoki $h < 1$ bo'lishi, ya'ni ijobjiy yoki salbiy bo'lishi mumkin. $h < 1$ holatda kooperativlikning yo'qligini masalan, $h_{Mb} < 1$ bildiradi. Ot gemoglobinining Xill koeffisienti $h < 2,9$ ga, qum chuvalchangi gemoglobinida $h < 6$ ga teng. DNKnинг suyuqlanishi, oqsillaning qaytar denaturasiyalanishi, biomembranalardagi faza o'tishlar ham kooperativ jarayonlardir.

Gemoglobin strukturasida sodir bo'ladigan konformasion o'zgarishlar

Gemoglobin tarkibidagi subbirliklar $\alpha_1 \alpha_2$, β_3 va β_4 uchlamchi strukturaga ega bo'lib, α -subbirliklar har biri 141, β -subbirliklar esa har biri 146 aminokislota qoldiqlaridan tashkil topgan polipeptid zanjirlaridan iborat. Ular, o'zaro tuz ko'priklari (ion bog'lari) vositasida bog'lanib (ular oltita), tetramerni shakllantiradi. Subbirliklarning har birida bittadan gem guruhi bo'lib, u to'rtta pirol halqadan iborat tekis strukturaga ega. Gem markazida, pirol halqalar azot atomlari bilan to'rt tomondan koordinasion bog'langan, ikki valentli temir ioni joylashgan. Temir ionining 5-koordinasion bog'i, gem halqaga tik yo'nalgan aminokislota (α -subbirlikda gistidin qoldig'i) orqali polipeptid zanjiriga (globinga) ulanadi. Dezoksigemoglobinda 6- koordinasion bog' bo'sh bo'lib, kislorod mayjud sharoitda bu bog', bir molekula O_2 biriktirish orqali band etiladi va oksigemoglobin (HbO_2) hosil bo'ladi. Shu munosabat bilan Fe^{2+} ion radiusi kamayib, gem tekisligiga tushadi. O'z navbatida bunday siljish temir ioniga bog'langan gistidin qoldig'i orqali butun zanjirning siljishiga, demak, uchlamchi strukturaning o'zgarishiga sabab bo'ladi. Buning natijasida subbirlikning boshqa subbirlik, masalan, α_1 bilan α_2 o'rtasidagi tuz ko'priknинг uzilib, α_2 ning kislorod biriktirishi osonlashadi. α_2 ning O_2 birikishi esa α_2 bilan β_1 o'rtasidagi tuz ko'prikgini uzib, uning O_2 birikishini osonlashtiradi va h.k.

Shunday qilib, gemoglobinning oksigenasiyalanishi munosabati bilan subbirliklararo ta'sirlashishlarning o'zgarishi, gemoglobinning O_2 biriktirishi paytidagi kooperativlik xossasiga asos bo'ladi. Mazkur hodisa, M.V.Volkenshteyn tomonidan ilgari surilgan, **elektronkonformasion ta'sirlashishlar** (makromolekulada yuz bergen elektron jarayonlar uning konformasion qayta qurilishlarga olib keladi, deb ta'kidlovchi) konsepsiyaning dalili bo'lib xizmat qiladi.

Sinov savollari.

1. Biomakromolekulalar tuzilishi konformasion asoslari, tarkibining o'ziga xosligi.
2. Makromolekulaning shakllanishida ishtirok etuvchi bog'lar, ta'sirlashuvchi kuchlar, ularning tafsifi.
3. Makromolekulaning ligandli kompleksi, assimlyasiya konstantasi.
4. Makromolekulaning faoliyatida kooperativlik, Xill teglamasi va grafigi, kooperativlik darajasi.

5. Oksigenasiya paytida gemoglobin molekulasida sodir bo'ladigan informasion o'zgarishlar.

Mavzuga oid adabiyotlar:

Asosiy adabiyotlar:

1. Қосимов М.М. Назарий биофизика асослари. Тошкент, Университет, 2006, 220 б.
2. Remizov A.N. Tibbiy va biologik fizika. Toshkent. Ibn-Sino nashriyoti, 2006.
3. Рубин А.Б. Биофизика. Учебник в 2 х книгах. М., Высшая школа, 2000. 1т. – 448 б. 2т. - 467 б.
4. Антонов В.Ф., Черныш А.М., Пасечник В.И., Вознесенский С.А., Козлова Е.К. Биофизика, Владос, 2000. 287 б.

5-MAVZU: KVANT BIOFIZIKASI ELEMENTLARI

Reja

1. Molekulyar orbitallar, molekulaning qo'zg'algan holati, energiyaning migrasiyalanishi.
2. Elektron qo'zg'alish energiyasining migrasiyalanishi.
3. Erkin radikallar va erkin radikalli jarayonlar.

Birinchi savol bayoni.

Ultrabinafsha va ko'rinvchi nur-sohalarining biologik ob'ektlariga ta'sir etish qonuniyatlarini tekshirish ham biofizika muammolari doirasiga kiradi. Qisqa to'lqinli (rentgen va γ -nurlanish) nurlarning biologik ob'ektlariga ta'sirini tekshirish bilan radiobiologiya shug'ullanadi.

Fotofizika va fotokimyo asoslari.

Molekulaning (atomning) umumiyligi energiyasi (E_{um}) elektron energiyasi (E_{el}) tebranma (E_t) va aylanma (E_a) harakat energiyalaridan tashkil topadi: $E_{um} = E_{el} + E_t$. $E_{el} \gg E_t \gg E_a$ dir. Fotokimyoda ham fotobiologiyadek, elektromagnit spektrining tor 200-700 nm sohasi bilan ish ko'rildi. Xalqaro eritish komissiyasi to'lqin uzunligi sohalarini quyidagicha ifodalashni tavsiya etadi. Ultrabinafshaha (UB) nurlanish: UB-S - 100÷280 nm, UB-V - 280÷315 nm, UB-A - 315÷400 nm, ko'rinvchi spektr -400-780 nm. qisqa to'lqinli nurlanish energiyasi, kimyoviy bog'lar energiyasidan katta bo'lib, molekulalarni ionlantiradi va kimyoviy bog'larni uzadi. Aynan mana shu soha bilan radiobiologiya shug'ullanadi. Uzun to'lqinli nurlanish modda tomonidan yutilganda elektronning aylanma va tebranma energiyalari oshadi. Shu sababdan, infraqizil (IK) nurlanish reaksiyalar tezligini oshiradi, molekulalarda kimyoviy o'zgarishlar keltirib chiqarishga qodir emas.

Energiyasi 4-6 EV (200- 300 nm) fotonlar, oqsillar va nuklein kislotalar tomonidan yutilib, molekulalarni qo'zg'algan holatga, ya'ni molekulaning yuqoriroq energiya sathiga (qo'zg'algan holatga) o'tishiga olib keladi. qo'zg'algan molekula kimyoviy reaksiyaga osonlikcha kirishadi. Aynan mana shunday fotokimyoviy

reaksiyalar, oxirgi natijada oqsillar, nuklein kislotalar va boshqa biopolimerlarda fotobiologik effektlarga sabab bo'ladi. Ko'rinuvchi nur esa, fotosintez, fotoresensiya, fotomorfogenez hamda fotodinamik effektlar uchun aktiv hisoblanadi.

Yorug'likning yutilish qonuni, yutilish spektri.

Grotgus qoidasiga ko'ra, fotokimyoviy reaksiyaga faqat molekula tomonidan yutilgan nurgina sabab bo'ladi. Demak, fotokimyoviy jarayonlar asosida yorug'likning yutilish hodisasi yotadi.

Intinsivligi I_0 - nuring, qalinligi l -ga teng yutuvchi muhitdan o'tishini ko'zdan kechiramiz. Mazkur intensivlik, yutuvchi muhitdan chiqqanda, yutilish evaziga kamayib, I -ga teng bo'lib qoladi. Mazkur bog'liqlik Buger- Lambert-Ber qonuni nomi bilan yuritiladi.

$$I \propto I_0 e^{-\epsilon Sl}, \text{ yoki } \lg(I_0/I) = \lg(1/G'T) Q D \propto \epsilon Sl,$$

Bu erda ϵ - molyar ekstinksiya koefisienti ($\text{o'lchov birligi } M^{-1} \text{ sm}^{-1}$) bo'lib, $u S$ $\propto 1 \text{ molG}'l$ va $1 Q 1 \text{ smda}$, $D \propto \epsilon$. ϵ - koefisient konsentrasiya emas, modda tabiatini va yutiluvchi nur tabiatiga bog'liq bo'lib, "moddaning pasport xarakteristikasi"ga doir belgilar jumlasiga kiradi. D -optik zichlik yoki ekstinksiya (nur yutish)- $\text{o'lchov birligiga ega bo'limgan kattalik}$, l - yutilish qalinligi, sm.

Buger-Lambert-Ber qonuni moddaning konsentrasiyasi bilan optik zichligi o'rtasidagi chiziqli munosabatni aks ettiradi va shuning uchun u analitik maqsadlarda keng qo'llaniladi. T va D kattaliklar o'rtasidagi aloqa shundayki, masalan, tiniqligi $T \approx 0,01$ (yoki 1%)ga teng eritmaning optik zichligi $D \approx 2$ ga teng. $T \approx 10\%$ bo'lsa, $D \approx 1$ ga teng va h.k.

Ekstinksiya koefisienti monoxromatik nuring to'lqin uzunligiga bog'liq, ya'ni $\epsilon(\lambda)$ bo'lib, aynan mana shu bog'liqlik **yutish spektri** deb ataladi. Chunki, modda konsentrasiyasi - S va yutilish qalinligi - l , nur to'lqin uzunligiga bog'liq bo'limganligi uchun, D -ning λ -ga bog'liqligi- $D(\lambda)$ ham, **yutish spektri** deb ataladi.

Yutish spektrlari spektrofotometrlarda o'lchanadi. Spektrofotometr, yutuvchi modda eritmasi orqali o'tgan nur intensivligini (I)ni, erituvchi orqali o'tgan nur intensivligi (I_0) bilan solishtirishga asoslanib ishlaydi.

Molekulaning qo'zg'algan holatlari va energiyaning migrasiyalanishi.

Yorug'likning modda tomonidan yutilishi molekulyar jarayon bo'lib, mazkur hodisa murakkab biologik strukturalarga (yadro, mitoxondriya, hujayra va boshqalarga) dahldor emas. Yorug'lik molekula tomonidan, energiyasi $h\nu \approx hcG'\lambda$ ga teng kvantlar tarzida, $10^{-14} - 10^{-15}$ sek davomida yutilib bo'ladi. Yorug'likning molekula tomonidan yutilishi, fizikaviy jarayon bo'lib, u quyidagicha tasvirlanadi:

$$A \xrightarrow{h\nu} A^*$$

bu erda A^* - molekulaning qo'zg'algan holati, yorug'lik yutilganda nur energiyasi elektronlarning tebranma va aylanma energiyalariga aylanadi va shu munosabat bilan molekulaning elektron konfigurasiyasi o'zgaradi. Kvant yutilishi evaziga, A molekula tomonidan olingan qo'zg'alish energiyasi, quyida tasvirlangan usullarning biri orqali sarflanadi.

- nurlanish: $A^* \rightarrow A \quad Q \propto h\nu$
- nurlanmasdan konversiyalanish: $A^* \rightarrow A \quad Q \propto issiqlik$,
- kimyoviy reaksiya: $A^* \rightarrow mahsulot$.

Molekulaning yorug'likdan qo'zg'alishi bir elektronli jarayon bo'lib, uning davomida orbitaldagи elektronlar juftidagi elektronlardan birining asosiy (S_0) sathdan, yuksakroq (qo'zg'algan) sath (S_1)ga o'tishi bilan kechadi. Juftning ikkinchi elektroni asosiy (S_0) sathda qoldi. Elektronli qo'zg'alish energiyasi, eng quyи tebranish sathidan boshlab o'lchanadi. qo'zg'algan holatning eng quyи darajasi - **singlet** S, (qo'zg'algan va qo'zg'almagan elektronlarning spinlari antiparallel) va **triplet**. T_1 (elektronlarning spinlari parallel) holatlaridir. Qo'zg'alish energiyasi yuqorida tasvirlangan yo'llarning biri orqali, nurga aylanib yoki aylanmasdan amalga oshadigan o'tishlarda sarflanadi. qo'zg'algan holat yashash davrini, nurlanish bo'yicha birinchi tartib kinetika atamalari yordamida aniqlash mumkin. Agarda nurlanish qo'zg'algan holatdan asosiy holatga qaytishning birdan-bir yo'li bo'lsa, u holda mazkur holatdan chiqish tezlik konstantasiga teskari bo'lgan kattalik qo'zg'algan holatning tabiiy **yashash davri**. Deb ataladi. qo'zg'algan S, holatdan asosiy S_0 holatga o'tishda sodir bo'ladigan nurlanish fluoressensiya. Deb ataladi. Fluoressensianing tabiiy yashash davri, ko'pchilik organik molekulalar uchun 10^{-9} - 10^{-6} sek bilan xarakterlanadi. Qo'zg'algan T_1 holatdan asosiy S_0 holatga o'tish bilan kechadigan nurlanish **fosforessensiya** deb atalib, uning tabiiy yashash davri 10^{-3} - 10 sek oralig'idan o'rinn oladi.

Fluoressensiya spektrining shakli (**Kashi qoidasi**) va kvant chiqishi (**Vavilov qonuni**) qo'zg'atuvchi nur to'lqin uzunligiga bog'liq bo'lmaydi, chunki fluoressensiya nurlanishi har doim qo'zg'algan (S_0) holatning eng tuban sathidan boshlanadi: $q \propto n G' N$, bu erda q - kvant chiqishi, n - chiqariladigan kvantlar soni, N -utilgan kvant lar soni.

Stoks qonuniga binoan, fluoressensiya maksimumi, molekulaning yutish maksimumiga nisbatan uzunroq, to'lqin sohasida yotadi (chunki yutilgan energiyaning bir qismi issiqka aylanadi).

Fotofluoressensiya hodisasi biofizika va biokimyoda tadqiqot metodi sifatida keng qo'llaniladi. Birinchidan, oqsillar xususiy fluoressensiyasini o'lchash orqali, uning konformasion holati haqida ma'lumotga ega bo'lishi mumkin. Oqsilning xususiy ultrabinafshaha fluoressensiyasi yordamida, unda triptofan va tirozin qoldiqlarining bor- yo'qligini aniqlash mumkin. Uning parametrlari o'sha qoldiqlarning mikroqurshoviga bog'liq ravishda o'zgaradi. Masalan, triptofanillar fluoressensiyasining kvant chiqishi 0,1-0,4 oralig'ida bo'lib, spektr maksimumi 320-325 nmda qayd etiladi. Fluoressensiya spektrofotometrlardan farqlanadigan, fluorametrarda o'lchanadi. Ularda fluoressensiya qo'zg'atuvchi va uni qayd etuvchi sistemalar mavjud.

Nurlanishsiz amalga oshuvchi o'tishlar

Bu xil o'tishlarni ikki turga ajratish mumkin:

* bir xil multipletlikka ega, har xil elektronli qo'zg'alish holatlari aro molekulyarich nurlanishsiz o'tishlar, ya'ni singlet- singlet ($S_1 \rightarrow S_0$) va triplet-triplet ($T_2 \rightarrow T_1$) o'tishlar imkonи ham mavjud bo'lib, bunday o'tishlar **ichki konversiya**. deb ataladi.

* har xil multipletlikka ega holatlararo molekulyarich o'tishlar (ya'ni $S_1 \rightarrow T_1$, $T_1 \rightarrow S_0$), bunday o'tishlar **interkombinasion konversiya** deb ataladi.

Energiyaning qo'zg'algan molekuladan atrofdagi boshqa molekulalarga uzatilishi ham nurlanishsiz o'tishga tegishlidir. Bunda elektron energiyasi tebranma, aylanma va ilgarilama harakat energiyalari sifatida uzatilishi mumkin.

Molekula tuzilishi nazariyasidan ma'lumki, molekulyar orbitallar σ , n va π -tiplariga bo'linadi. Qo'zg'alish paytida elektron π -orbitaldan, qo'zg'algan π^* -orbitalga o'tadi va bunday o'tish $\pi \rightarrow \pi^*$ o'tish deb ataladi. Organik molekulalarda ko'pincha $\pi \rightarrow \pi^*$, $n \rightarrow \pi^*$ va $n \rightarrow \sigma^*$ -o'tishlar qayd etilib, ular zaryad tashilish bilan bog'liq.

Muhokama uchun savollar:

1. Molekulyar orbitallar nima?
2. Yorug'likning yutilish qonunini izohlab bering.
3. Molekulaning qo'zg'algan holatlari va energiyaning migrasiyalanishi nima?

Ikkinchı savolning bayoni.

Energiya migrasiyasi qo'zg'algan molekulalarning S_1 va T_1 -sathlaridan amalga oshadi. Energiya migrasiyalanishi - energiyaning nurlanishsiz, donor (D) bilan akseptorning (A) kinetik to'qnashuvilarisiz isiqlikka aylanmasdan, atomlar oralig'idan ancha katta masofaga uzatilishidir.



Energiyaning migrasiyalanishi bir molekula ichida yoki molekulalar o'rasisida amalga oshishi mumkin. Birinchi holda, energiyaning uzatilishi bitta molekula doirasida, uning xromofor guruhi ichida yoki ikkita bog'langan yoki bog'lanmagan guruhlar aro amalga oshadi. Molekulalar aro energiya migrasiyalanishining oddiy holi reabsorbsiya qo'zg'algan molekulalar nurlanishining takroran yutilishidir. Bunday jarayon konsentrangan eritmalar fluoressensiyasining susayishida namoyon bo'ladi. Fotobiologik jarayonlarda elektronli qo'zg'alish energiyasining nurlanishsiz o'tish mexanizmiga binoan migrasiyalanishi muhim ahamiyatga ega.

Almashma - rezonans yo'li. Bu yo'l donor va akseptor molekulalari elektron orbitallarining bevosita qoplanish vaziyatida amalga oshadi. Shu munosabat bilan D bilan A energiya jihatidan farqlanadigan elektronlarini ayirboshlaydi ("issiq" molekula qo'zg'algan elektronini "sovuj" molekulaga berib, uning elektronini o'zi oladi). Donor va akseptor molekulalarning o'zaro uzoqlashishi bilan, migrasiya ehtimolligi molekulalararo masofaning 6- darajasiga proporsional ravishda kamayadi. Fosforessensiya spektrida umumiyligi to'lqin uzunligi sohasining paydo bo'lishi bu xil migrasiyaning mumkinligini tasdiqlaydi.

Induktiv - rezonans yo'li. Molekulalararo ancha katta (~ 2 - 10 nm) masofalarda amalga oshib, qo'zg'algan D^* molekula bilan akseptor molekulalarning rezonansli ta'sirlanishi tufayli yuz beradi. Molekulalararo tabiatan zaif ta'sirlashish yaqin chastotalarda tebranishga qodir xususiy molekulyar ossillyatorlar juftini bog'lovchi elektromaydon vositasida joriy etiladi (bunda molekulalar elektr dipollari sifatida qaraladi). Bu singlet- singlet, triplet- triplet o'tishlardan iborat bo'lib, eritmalarda, ayniqsa, biologik sistemalarda ko'proq qayd etiladi. Fluoressensiya

spektrida umumiy to'lqin uzunligi sohasining paydo bo'lishi energiya migrasiyalanishi mazkur mexanizmining mumkinligini isbotlaydi.

Eksiton yo'li. Bu yo'l kristalli strukturalarda uchraydi. Qo'zg'algan elektronning bir molekuladan boshqa bir molekulaga tez "sakrab" o'tishi natijasida, fazoviy yaqin joylashgan molekulalar guruhi (klaster)ning birgalikda qo'zg'alish sodir bo'ladi. Masalan, chala o'tkazgichlar kristalida qo'zg'alish natijasida, elektron- teshik jufti hosil bo'lib, bu xil yaxlit juftlar ***kvazizarrachalar*** (*eksiton*) ma'lum vaqt yashab, birgalikda harakatlanadi. O'zida qo'zg'alish energiyasini mujassamlantirgan eksiton tez migrasiyalanib, yuzlab, hatto minglab molekulalar bilan uchrashib chiqadi. Energiyaning migrasiyalanishi fotodinamik effektlarda ham yuz beradi. Elektronlarning tunnel orqali tashilishi, mexanizmi jihatidan energiya migrasiyalanishiga yaqin bo'lib, jarayon o'zaro energiya to'sig'i orqali ajralgan oqsil tabiatli tashuvchi - molekulalar o'rtasida amalga oshadi. Elektronning tunnel orqali tashilishi elektron energiyasi donor bilan akseptor o'rtasidagi energetik barer balandligidan kam bo'lgan sharoitda yuz beradi. Effekt sof-mexanikaviy tabiatga ega bo'lib, 0,5- 1.0 nm masofada amalga oshadi. Elektronning to'siq ostidan tunnel orqali o'tish mexanizmiga xos alohidalik shundan iboratki, u hatto tuban haroratsuyuq azot harorati (77 K) va undan ham tubanda amalga oshaveradi. Bunday sharoitda arrenius mexanizmi asosida kechadigan odatdagi fizika-kimyoviy jarayonlar "ishlamay" qo'yadi. Tunnel orqali tashilish odatdagi haroratda ham sodir bo'ladi.

Qozg'algan holatning xossalari va asosiy fotokimyoviy jarayonlar.

Elektronli qo'zg'algan holatidagi molekula, asosiy holatdagi molekuladan kuchli darajada farqlanadi. Qo'zg'algan molekulalar kislota- asos tip kimyoviy reaksiyalarga osonlik bilan kirishadi. Qozg'algan holatning kislota- asos xossalari turli rN sharoitida qo'zg'algan protonli molekulalar konsentrasiyasini spektral o'lchab aniqlash mumkin. Ko'p atomli katta molekulaning elektronli qo'zg'alish konfigurasiyasi shundayki, elektronlarning asosiy qismi bog'lovchi orbitallarda qolib, molekulaning geometriyasi kuchli darajada o'zgarmaydi. Atomlararo bog' holati tubdan o'zgaradigan hollar bundan mustasno.

Asosiy fotokimyoviy reaksiyalar - bu ***fotoqaytarilish, fotooksidlanish, qayta guruhlanish va izomerlanish, fotokimyoviy parchalanish*** va shu singari reaksiyalardir.

Dien va trienlarning eng umumiy foto qayta qurilish reaksiyalaridan biri- strukturaviy izomerlanish, ya'ni izomerlanish bo'lib, unda π - va σ - bog'lar uzeladi yoki ular yangidan hosil bo'ladi. Kalsiferollar (D vitaminlar)ning yorug'likdan o'zgarishi shu xil reaksiyalar jumlasiga kiradi. Olefinli bog'larga ega moddalarning sis-trans izomerlanishi fotoizomerlanishning boshqa bir turidir. Trans-izomerlar, sis-izomerlarga qaraganda uzun to'lqin sohasini kuchliroq yutadi. Shuning uchun ham uzun to'lqin sohasiga oid nur ta'sir etganda, sis-izomerlar ustunlik oladigan, fotostatsionar holat qaror topadi. Fotoresensiya asosida retinalning sis-trans-izomerlanish reaksiyasi yotadi. Ochiq holatdagi tetrapirrolning izomerlanishi, o'simliklar fotomorfogenezining regulyatori - fotoxromning fototrigger ta'sirga sabab bo'ladi.

Muhokama uchun savollar:

1. Elektron qo'zg'alish va uning turlari?
2. Qozg'algan holatning xossalari va asosiy fotokimyoviy jarayonlar.
3. Asosiy fotokimyoviy reaksiyalarga nimalar kiradi?

Uchinchi savolning bayoni.

Erkin radikallar va ularning xossalari. Juftlanmagan elektronga ega molekula yoki uni fragmenti **erkin radikal** deb ataladi. Erkin radikalga tegishli modda kimyoviy formulasi ustiga qo'yiladigan qalin nuqta orqali ifodalanadi. Masalan, N⁺, ON⁻ va h.k.

Erkin radikallar radikal hosil qiluvchi moddalar tabiatiga bog'liq holda, neytral kation yoki anion holatida ham bo'lishi mumkin. Masalan, tirozin molekulasi sharoitiga bog'liq holda neytral yoki kation radikali holatida uchraydi.


Anion radikalga kislороднинг superoksidан ion radikalini misol qilish mumkin - O₂⁻. Demak, molekulada juftlanmagan elektronning paydo bo'lishi bo'sh valentlikning paydo bo'lishiga ekvivalentdir.

Erkin radikallarga xos xususiyatlar:

- yuksak kimyoviy aktivlik;
- paramagnitlik;
- zanjirli reaksiyalarni boshlab berish.


Erkin radikalli jarayonlar

Hujayrada kechadigan oksidlanish - qaytarilish reaksiyalari natijasida erkin radikallar paydo bo'ladi. Suv hosil bo'lish jarayoni kislород superoksidан ion radikalining paydo bo'lishidan boshlanadi, ya'ni nafas zanjiri komponentlarida kechadigan Fe^{2Q} → Fe^{3Q} tip reaksiyalar evaziga suv fazadagi kislород anion radikaliga aylanib, quyidagi jarayonni boshlab beradi va unda ishtirok etadi.



Ko'rinib turibdiki, moddalarning oksidlanishi natijasida hosil bo'ladigan suv, erkin radikalli jarayonlar mahsuli hamdir. Suv fazadagi UB yoki ionlantiruvchi nurlar ta'siridan hujayraning suv fazasida erigan yoki oqsil tarkibiga kirgan aminokislotalarda, nuklein kislotalar azot asoslarida ham radikalli holat yoki erkin radikallar paydo bo'ladi.

Aminokislotalarda hosil bo'ladigan erkin radikallar. UB yoki ionlantiruvchi nurlar ta'siridan hujayraning suv fazasida erigan yoki oqsil tarkibiga kirgan aminokislotalarda, nuklein kislotalar azot asoslarida ham radikalli holat yoki erkin radikallar paydo bo'ladi.






AN - aminokislota, A^{*}N- uning qo'zg'algan shakli, A[•]H⁺ - aminokislota kation radikali, e⁻ - elektron, e⁻_{gidr} - gidratlangan elektron.

U yoki bu sababga ko'ra, paydo bo'lган e^-_{gidr} oqsil tarkibida uchraydigan disulfid ko'pragini uzib, erkin radikal hosil qilishi mumkin. Nuklein kislotalarda, UB yoki ionlantiruvchi nurlar ta'sirida, ko'proq timin qoldig'ida radikal holati qayd etiladi.


Xinon erkin radikallari. Mixaelis (1939) biologik oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari ikki elektronning ko'chirilishi bilan kechib, jarayon ikki bosqichda, oraliq modda (erkin radikal demoqchi) hosil qilish bilan kechadi deb ta'kidlagan edi, ya'ni:

Tabiatan shu xil reaksiyalar, mitoxondriya nafas zanjirida amalga oshib, ular elektron transportini amalga oshiradi.

Lipid erkin radikallari. Hujayra membranasining asosiy moddalaridan bo'lmish lipidlar tarkibidagi yog' kislotalari muayyan sharoitda (UB, ionlantiruvchi radiasiya yoki CCl_4 singari moddalar ta'sirida) erkin radikalli oksidlanadi. Jarayon muayyan bir erkin radikal (R') boshlab beradi:



.....



Antioksidantlar fenol tabiatli moddalar, masalan, 0-tokoferol, β -karotin, ionol, umumiy kislороднинг faol turlari bilan ta'sirlasha oladigan birikmalardir.

Eslatma. Jarayonda hosil bo'lган antioksidant radikali (X' sifatida) zanjirning boshlanishida ishtirok etishi mumkin.

Biologik membranalarda to'yinmagan yog' kislotasi qoldiqlariga ega fosfolipidlar asosan perekli oksidlanishga (LPO) yo'liqadi. Buning natijasida membrananing yopishqoqligi oshadi, ko'ndalang tiqilishlar paydo bo'ladi, harakatchanligi cheklangan, tartiblangan lipidlar soni ortadi. LPO reaksiyalari natijasida paydo bo'lган R' , RO_2' radikallari qayta birlashganda katta miqdorda ($\approx 7-100$ kkalG/molü) energiya ajralib chiqadi. Aynan mana shu energiya, reaksiya mahsulotlarini qo'zg'algan holatga o'tkazish uchun etarlidir. qo'zg'algan holatdagi mahsulotning asosiy holatga o'tishi, xemilyuminessensiya kvantlarining ajralishi bilan boradi. To'yingan yog' kislotalaridan RO_2' va $ROOH$ hosil bo'lгanda -NS₂SN- bog' joyidan ko'chib, qo'shbog'larning konyugasiyalangan birlashtirilish uchun yuzaga keladi. Gidroperyokis - $ROOH$ dan navbatda har xil aldeigidlar, jumladan, malon aldeigid ham hosil bo'lib, u yoki bu eksperiment sharoitida, uning miqdoriga qarab, LPO reaksiyalari intensivligi haqida xulosalar shakllantiriladi. Bayon etilgan jarayon lipidlarning peryokisli oksidlanishi (LPO) nomi bilan yuritiladi.

Muhokama uchun savollar:

1. Erkin radikallar nima?
2. Xinon erkin radikallari.

3. Lipid erkin radikallari.

Sinov savollari.

1. Molekulyar orbitallar va nur yutilishi evaziga molekulada amalga oshadigan elektronli o'tishlar.
2. Molekulaning qo'zg'algan holat turlari, xossalari, tafsiloti.
3. Qozg'algan holatdan asosiy holatga qaytish yo'llari.
4. Energiyaning molekulalar aro tashilishi va migrasiyalanish yo'llari.
5. Erkin radikallik holat, xossalari, turlari, yuzaga kelishi.
6. Hujayraning suv fazasida amalga oshadigan erkin radikalli jarayonlar.
7. Hujayraning lipid fazasida sodir bo'ladigan erkin radikalli jarayonlar.
8. Erkin radikallarni aniqlash metodlari.

Mavzuga oid adabiyotlar:

Asosiy adabiyotlar:

1. Қосимов М.М. Назарий биофизика асослари. Тошкент, Университет, 2006, 220 б.
2. Remizov A.N. Tibbiy va biologik fizika. Toshkent. Ibn-Sino nashriyoti, 2006.
3. Рубин А.Б. Биофизика. Учебник в 2 х книгах. М., Высшая школа, 2000. 1т. – 448 б. 2т. - 467 б.
4. Антонов В.Ф., Черныш А.М., Пасечник В.И., Вознесенский С.А., Козлова Е.К. Биофизика, Владос, 2000. 287 б.

6-MAVZU: BIOLOGIK MEMBRANALARNING TUZILISHI VA FUNKSIYASI

Reja

1. Biomembranalar tuzilishining strukturaviy asoslari.
2. Biomembranalarning fizikaviy va kimyoviy xususiyatlari.

Birinchi savol bayoni.

Aytish mumkinki, hozirgi davrga kelib, biologiyada mustaqil ilmiy yo'naliish - **membranologiya** shakllandi. Membranalogiya biologik membranalar tuzilishi, molekulyar tashkillanishi, membrana tarkibiy qismlarining faoliyat mexanizmlari, membrananing fizik - kimyoviy xossalari va aktivligining boshqarilishi masalalarini tekshirish bilan shug'allanadi. Membranologiya tabiiy membranalarning sun'iy analoglarini yaratib, ularga har xil membranotrop fiziologik regulyatorlar va membrana faol birikmalarining ta'sir mexanizmlarini tekshirish bilan bir qatorda, biologik membranalar faoliyat prinsiplariga asoslangan bioqurilmalar va biotexnologik jarayonlar yaratish bilan ham shug'allanadi.

Biologik membranalar faoliyati xilma-xil. **barerlik faoliyati**, ya'ni hujayraning ichki muhitini tashqi muhitidan ajratish hamda hujayra ichini struktura va funksional alohidashgan bo'limalar – **kompartimentlarga** bo'lish, uning eng muhim faoliyatlardan hisoblanadi. Ularning har biri o'ziga xos funksiyalar bajaradi:

mitoxondriyada substratning oksidlanishi va energiyaning transformosiyalanishi amalga oshirilsa, yadroda genetik axborotni saqlash va uning "ko'paytirilishi" ta'minlanadi, lizosomalar proteolitik fermentlar saqlaydi, retikulum membranasini aloqa to'ri sifatida har xil bo'linmalarni o'zaro bog'laydi va h.k. Membrana tarkibiga immunitet, resepsiya va modda transporti faoliyatlari mas'ul oqsillar kirgan. Mazkur faoliyatlarining boshqarilishi membrananing mikroyopishqoqligi, tartiblanganligi, fosfolipid qo'shqavatining taxlanishi, lipid tarkib va h.k.ni o'zgartish yo'li bilan amalga oshiriladi. Shunday qilib, membrana - bu toplangan fermentlar va ferment ansamblari joylashgan joy bo'lib, hozirgi kunga kelib ularning harakat, sekresiya, so'riliш, oqsillar sintezi va hujayra bo'linishidagi ro'li har tomonlama isbotlangandi.

Biologik membranalar tuzilishiga doir hozirgi zamon tasovvurlari G.Nikolson tomonidan ilgari surilgan **suyuq-mozaika modeli** yotadi. Mazkur modelga binoan, "suyuq" lipid qo'sh qavati membrananing asosini tashkil etib, unda lipid molekulalari har xil (segment harakatchanligi diffuziya va aylanma) harakatda bo'la oladi. Kamdan- kam hollarda ular qo'sh qavatning biridan ikkinchisiga "sakrab" (*flip-flop-* arg'umchoq) o'tishlarini amalga oshiradi. Aynan shu hodisa hamda maxsus fermentlar ta'siri tufayli membrana qavatlarining fosfolipid tarkibi o'zaro farqlanadi, ya'ni membrana lipid tarkibi jihatidan assimetrikdir. Bunday assimetriya oqsillarning qo'sh qavatdagi assimetriyasi hisobiga ham yuzaga keladi. Membrananing bunday xossasi egrilik gradienti, taxlanmalar, burilishlar, pufakchalar hosil qiluvchi omillardan bo'lib, mazkur holatlar hujayralararo aloqa va ta'sirlashishlarda muhim ahamiyatga ega.

Membrana tarkibidagi oqsillar ham lateral diffuziya va boshqa xil harakatlarni amalga oshiradi. *Lateral diffuziya* oqsil geometriyasi, o'lchami, uning oqsil - lipid ta'sirlashishiga bog'liq bo'lib, lipid qurshovining mikroyopishqoqligi hamda lipid qo'sh qavatining fazoviy holat bilan boshqarib turiladi. Qo'sh qavatning fazoviy holati bir qator omillar: harorat, fosfolipid tarkib, xolesterin miqdori, ionli qurshov va birinchi navbatda, muhitda Ca^{2+} va boshqa ko'p valentli ionlarning bor- yo'qligiga ham bog'liq bo'ladi. Kalsiy ionlari xolesterin singari, membrananing manfiy zaryadli tarkiblari (fosfatidilserin, glikolipidlar, glikoproteidlar) bilan o'ziga xos "tiqilishlar" hosil qiladi. Shu munosabat bilan membrananing katta miqdordagi fosfatidilxolin tip neytral fosfolipidlarga ega sohalarida, fazalarga bo'linish hodisasi yuzaga keladi. Umuman shu xil lipid-lipid ta'sirlashishlar, membrana faoliyatlarining normal amalga oshishi uchun zarur mikrogeterogenlikning shakllanishini ta'minlaydi.

Biomembranalar oqsil tarkibining topografiyasi ham alohida ahamiyatga ega. Membrana oqsillari, ularning membranada joylashishiga bog'liq holda **periferik va integral**, deb ikkiga bo'linadi. Periferik oqsillar membrananing tashqi va ichki sirt yuzalarida joylashib, elektrostatik kuchlar vositasida ushlab turiladi va shuning uchun ular tuzli eritmalar yordamida osonlikcha ekstraksiyalanadi. Integral oqsillar membrana qalinligiga har xil darajada cho'kkan holda joylashib, asosan, gidrofob ta'sirlashishlar tufayli ushlab turiladi. Ularni faqat membranani organik ekstragentlar, detergentlar va xaotrop agentlar vositasida ajratib olish mumkin.

Membrananing lipid va oqsil tarkibi bilan hujayra ichidagi ba'zi biopolimerlar o'rtaida ion bog'lari uchraydi. Masalan, eritrosit membranasining ichki yuzasida joylashgan periferik oqsil - spektrin sitoplazma oqsillari bilan ta'sirlashib, ularning

harakatchanligi va taqsimlanishini boshqarib turadi. Spektrin membrana komponentlarining harakatchanligini cheklaydi, flip-flop o'tishlarga to'sqinlik qiladi, eritrosit shakliga ta'sir etadi, plazmatik membrananing ichki va tashqi sirt yuzalarida undagi tarkibiy qismlar bilan bog'lanib o'ziga xos panjaralar hosil qiladi.

Sinov savollari.

1. Membrana lipidlari, lipidlarning membranada qo'sh qavat hosil qilib joylashishi, sun'iy membranalar, dinamikasi.
2. Membrana oqsillari, ularning joylashishi, ularga xarakteristika.
3. Membrananing fizikaviy xossalari, sirtmoq (kink) gipotezasi.
4. Hujayra membranasining tanlab o'tkazish xossasi, ahamiyati.
5. Membrananing agregat holati haqidagi hozirgi zamon tasovvurlari, gipotetik modellar.
6. Membranoaktiv moddalar, kanaloformerlar va ionoforlar.

Mavzuga oid adabiyotlar:

Asosiy adabiyotlar:

1. Қосимов М.М. Назарий биофизика асослари. Тошкент, Университет, 2006, 220 б.
2. Remizov A.N. Tibbiy va biologik fizika. Toshkent. Ibn-Sino nashriyoti, 2006.
3. Рубин А.Б. Биофизика. Учебник в 2 х книгах. М., Высшая школа, 2000. 1т. – 448 б. 2т. - 467 б.
4. Антонов В.Ф., Черныш А.М., Пасечник В.И., Вознесенский С.А., Козлова Е.К. Биофизика, Владос, 2000. 287 б.

7-MAVZU: MODDALARNING BIOMEMBRANA ORQALI TASHILISHI

Reja

1. Passiv transport va uning turlari.
2. Aktiv transport.

Birinchi savol bayoni.

Diffuziya, osonlashgan diffuziya va kanallar orqali tashilish. Hujayrada kechadigan bir qator jarayonlar (substrat va metabolitlar transporti, ATF sintezi, ion tarkibi hamda suv miqdorining doimiyligi) moddalarning membrana orqali transportiga bevosita bog'liq.

Biologik membranalarda neytral molekulalar ionlar aktiv hamda passiv transportining har xil turlari amalga oshadi. Tashilish turlari, ularning mustaqil yoki mustaqil bo'lmasligiga qarab quyidagilarga ajratiladi:

- **uniport** - bitta moddaning mustaqil transporti (masalan, O₂ning hujayraga kirishi),
- **simport** - ikki xil moddaning bir yo'nalishidagi birgalikda tashilishi (masalan, qandlar yoki aminokislotalarning Na⁺ bilan birgalikda hujayraga kirishi),

- **antiport** - ikki xil moddaning bog'langan holda qarama-qarshi yo'nalishda membrana orqali tashilishi (masalan, ATP⁴⁻ bilan ADF³⁻ning mitoxondriya ichki membranasi orqali qarama-qarshi yo'nalishdagi antiporti).

Aktiv yoki passiv transport mezoni sifatida kimyoviy yoki elektrokimyoviy potensial yo'nalganligining o'zgarishi ish beradi. **Aktiv transport** - energiya sarf etilishi bilan borib, kimyoviy yoki elektrokimyoviy potensial ($\Delta\mu \leq 0$ yoki $\Delta\mu > 0$) gradientiga qarshi yo'nalishda amalga oshadi. Uning energiya manbai ATF gidro'lizi yoki elektronning masalan, mitoxondriyada redoks zanjir bo'ylab tashilishidir.

Passiv transport - moddaning qo'sh qavat orqali kimyoviy (noelektro'litlar) yoki elektrokimyoviy (ionlar) potensial gradienti yo'nalishidagi ($\Delta\mu < 0$), ya'ni potensial kam tomonga yo'nalgan diffuziyasidan iborat.

Diffuziya va singdiruvchanlik

Diffuziya – molekulalarning konsentrasiyasini yuqori tomondan kon-sentrasiyasini tuban tomonga o'zligidan siljishidir. Bunda, modda oqimi (J) konsentrasiya gradientiga (dcG'/dx ga) proporsional bo'lib, u Fik teglamasi yordamida tasvirlanadi:

$$J = D (dcG'/dh),$$

bu erda D - diffuziya koeffisienti bo'lib, Eynshtein teglamasi D_{qUKT}

ga binoan, moddaning harakatchanligi U -ga proporsional. Tenglamadagi manfiy ishora, oqimning gradient bo'yicha, ya'ni konsentrasiyaning kamayish yo'nalishida borishini ifodalaydi.

Singdiruvchanlik - zaryadga ega bo'limgan zarrachaning biomembrana orqali amalgaga oshadigan oqimini zarrachaning membranaga bo'lgan u yoki bu xil yaqinligi (lipofilligi), uning membrana tomonlaridagi K , ya'ni

$$k q [H]_{membrana} G'[H]_{suv} \text{ ga muvofiq turlicha bo'ladi.}$$

Agarda zarrachaning hujayra ichidagi konsentrasiyasining C_i , tashqaridagi konsentrasiyasini S_o orqali ifodalasak, membrananing l - qalinligida $(S_i - S_{C_o})G' l$ ga teng konsentrasiya gradienti - dcG'/di yuzaga keladi, ya'ni

$$dcG'/dh = q \frac{k (C_i - C_o)}{l}$$

Shu asosda, moddaning membrana orqali diffuziyasini tasvirlovchi Fik teglamasi quyidagicha yoziladi:

$$I q = \frac{Dk}{l} (C_i - C_o).$$

Agarda $Dk G' l q R$ tarzida ifodalansa, u holda mazkur formula $I q = P(C_i - C_o)$ ko'rinishiga keladi. Bu erda R - singdiruvchanlik koeffisienti.

Zaryadli zarrachalar holida, harakatlantiruvchi kuch sifatida elektrokimyoviy potensial gradienti ($\Delta \bar{\mu} G'/dx$) namoyon bo'ladi. Bunday hollarda oqsil kattaligini hisoblab topish uchun Nernst-Plank elektrondiffuziya teglamasi ishlataladi. Tenglama ion konsentrasiya gradienti (dcG'/dh) bilan elektr gradienti ($d\varphi / dh$) ning diffuziyadagi ulushini aks ettiradi:

$$I q = -D (dcG'/dh) - u c Z F (d\varphi / dh),$$

Bu erda U - ion harakatchanligi, S - konsentrasiya, Z - ion zaryadi, F - Faradey soni.

Oddiy va osonlashgan diffuziya

Ko'pchilik noelektro'lit moddalarning membrana orqali siljishi, ularning lipid qo'shqavatida erishi va o'sha qavat orqali passiv diffuziyalanish xossasi bilan belgilanadi. Gazlar va harxil lipofil birikmalar membrana orqali diffuziya yo'li bilan o'tadi. Eruvchanligi bir xil, ammo molekulyar massasi har xil moddalardan, tuban molekulyarlisi tezroq diffuziyalanadi. Bunda, transport tezligi bilan diffuziyalanuvchi modda konsentrasiyasi o'rtasidagi bog'liqlik chiziqli xarakterga ega.

Passiv transportning o'ziga xos alohida turi - membrana geometriyasining o'zgarishi bilan amalga oshadigan **endo-** va **ekzositoz** (endositozda membrananing bir qismi sitoplasmaga botib kirish yo'li bilan moddalarning sitoplasmaga kiritilishi, va aksincha ekzositozda hujayra ichidagi pufakchalarining tashqariga chiqarilishi sekresiya) dir. Shunday qilib, oddiy diffuziya mexanizmi hujayra membranasining O_2 , SO_2 va boshqa har xil yot moddalar (zaharlar, dori moddalar) ga bo'lgan singdiruvchanligini ta'minlaydi. Ammo bunday jarayonlar sekin kechadi.

Shuning uchun ham, evolyusiya davomida, moddalarning **osonlashgan tashilishini ta'minlovchi mexanizmlar** vujudga kelgan. Neytral va zaryadli molekulalarning biologik membranalar orqali o'tkazilishi, asosan, osonlashgan transportning har xil mexanizmlari, ya'ni **harakatchan tashuvchilar** va **ion kanallari** vositasida amalga oshiriladi. Bu xil transport, muayyan moddalarni "tanib", ularni membrana orqali tashishga qodir oqsillar va membrananing boshqa tarkibi qismlari tomonidan amalga oshiriladi. Har xil substrak va metabolitlarning osonlashgan diffuziyasiga **stereospesifiklik** (izomerlardan faqat bir xilining tashilishi) xarakterli holdir. Masalan, biomembranalar orqali qandlarning faqat D-izomerlari, aminokislotalarning L-izomerlari o'ta oladi.

Osonlashgan diffuziyaga xarakterli bo'lgan xossalardan yana biri to'yinish fenomeni bo'lib, u tashilish tezligining tashuvchi modda konsentrasiyasiga bog'liq holda, ma'lum bir darajagacha oshib borishi va keyin esa, o'zgarmasdan qolishida (V_{max}) namoyon bo'ladi. Mazkur tezlik, ionofor yoki boshqa tashuvchi tomonidan cheklanadi. Masalan, tabiiy ionofor siklik polipeptid - valinomisin K^Q ionlari bilan ideal (Rb^Q bilan uncha ideal bo'lмаган) kompleks hosil qiladi. Kaliy ioni valinomisin molekulasi "halqasi" o'rtasidagi bo'shliqqa, o'lchami jihatdan, to'la mos tushadi va bunda ionning gidrat qobig'i valinomisin molekulasidagi alifatik qoldiqlardan iborat hidrofob qobiqqa almashinadi. Shunday holatdagi kompleks (K^Q -valinomisin) membranadan osonlikcha o'tib, mazkur ionning elektrokimyoviy gradientini yo'qotadi.

Harakatchan tashuvchi yordamida amalga oshadigan osonlashgan transport intensivligiga membrananing fazoik holati kuchli darajada ta'sir etadi, membrana "qattiq" holatga o'tganda bu xil transport tezligi keskin kamayadi. Valinomisin va boshqa ionoforlar tuban konsentrasiya holida ionlarning membrana orqali tashilishini tezlatadi va ular effekti jihatidan fermentlarga o'xshab ketadi. Shuning uchun ularning faoliyatini fermentativ kataliz qoidalari asosida tasvirlash mumkin (V_{max} , K_m , K_i va [S]).

Ion kanallari

Hujayra membranasining ion singdiruvchanligi, integral oqsillardan iborat. Ion kanallari tomonidan ham ta'minlanadi. Ion kanallarining ko'pchiligiga **maxsuslik** (tanlovchanlik): substrat konsentrasiyasi ko'payganda- **to'yinish**, substrat analogi

paydo bo'lganda (ion-blokatorlar tomonidan ham) ***raqobatli bosiqtirilish*** xossalari xarakterlidir. Har xil kanallar orqali 10^6 - 10^9 ion o'tadi. Kanalda yuz beradigan konformasision o'zgarishlar uni ochiq yoki yopiq holatga keltiradi. Bu xil o'zgarishlar membrana potensiali, kanalning ma'lum bir kimyoviy moddalar bilan ta'sirlashishi yoki kanal tarkibiy qismlarining maxsus fosforlanishi bilan shartlanishi mumkin.

Biologik membranalarda uchraydigan kanallar boshqarilishining kamida, uch xil usuli ma'lum.

1. Birinchi usuliga binoan, kanal elektr maydoni tomonidan boshqariladi. Membranada, qutblanganlik holatining o'zgarishidan ta'sirlanadigan, elektr zaryadiga ega qurilma mavjud bo'lib, u ***kuchlanish sensori*** nomi bilan yuritiladi.

2. Ikkinci usuli, ion kanali, ma'lum bir kimyoviy birikma yoki birikma bilan ta'sirlashadigan reseptorga ega bo'lishi mumkin. Sodir bo'ladigan ta'sirlashish natijasida kanal ochiladi.

3. Va nihoyat, kimyoviy moddaning membranadagi reseptor bilan ta'sirlashishi hujayrada, proteinkinazaning faollanishiga sabab bo'lувчи, ikkilamchi vositachi (masalan, s-AMF) ning paydo bo'lishiga olib keladi. Vositachi o'z navbatida, ion kanalini fosforlab ochadi.

Birinchi tip kanallar **elektr yo'li bilan boshqartuvchi**, 2- va 3- tip kanallar esa **kimyoviy yo'l bilan boshqariladigan kanallar** deb ataladi.

Hujayra membranasining ion singdiruvchanligiga doir alohidaliklaridan yana biri, uning har xil ishora va kimyoviy tabiatga ega moddalarni farqlay olish xossasidir. Bu xil ion - tanlovchilik xossaga asos bo'lgan prinsiplarni aniqlash - hujayra elektr faolligi tabiatini tushunishning zaruriy sharti hisoblanadi.

Eng oddiy hollarda, moddalarning poralar orqali tashilish jarayoni keng doirada, tashiluvchi modda konsentrasiyasiga bog'liq bo'lmay, odatdagи elektro diffuziya tenglamasiga muvofiq tasvirlanadi. Bunday hollarda singdiruvchanlik koeffisienti (R) effektivligi membrana yuza birligiga to'g'ri keladigan kanallar soni (n), kanal radiusi (r) va moddaning suvdagi diffuziyalanish koeffisientiga (D) bog'liq bo'ladi, ya'ni

$$R \propto r^n D G^{-l},$$

bu erda, l - membrana qalinligiga teng, kanal uzunligi.

Agar kanalda zaryadli guruhlar mavjud bo'lsa, u holda kanal ichidagi ionlar konsentrasiyasi, kontroldagi o'rtacha potensial kattaligiga bog'liq holda yotadi, yo kamayadi. Natijada singdiruvchanlik o'zgaradi. Shular bilan bir qatorda, kanalga kirgan ionlar ham potensialga ta'sir etadi. Undan tashqari, agar kanal tor bo'lsa, unga kirgan ionlar bir birining harakatlanishiga halaqt beradi. Myullins taxminiga ko'ra, kanaldan gidrat qobig'i bilan birgalikdagi radiusi pora radiusiga teng keladigan ionlar yaxshi o'tadi. Bunday holda, kanal devori o'tuvchi ion bilan ta'sirlashib, uning gidrat qobig'ini to'liqlaydi va ion suvli eritmadan membranaga o'tüadi.

Membrananing ion tanlovchanligini tavsiflash maqsadida, ko'pincha Goldman-Xodjkin-Kas o'zgarmas maydon yondashuviga asoslanib hisoblab topiladigan singdiruvchanlik koeffisientlari ishlataladi. Ko'pchilik biologik faol birikmalar kanal hosil qilish xossasiga ega. Zoo- va fitotoksinlar, dori moddalar, pestisidlar va boshqalar shular jumlasidandir. Masalan, qora qurt zaharida oqsillatrotoksin bo'lib, u nerv tolalariga ta'sir etganda, membranada Sa^{2+} ga o'tkazuvchan ion kanallari paydo

bo'ladi. Natijada nerv uchlarida Sa^{2Q} ko'payib, mediator sekresiyalanishi kuchayadi. Bunday hol hatto shunday darajaga etib boradiki, oqibatda sinapslardagi mediatorlar tugab, ular endi nerv impulsini o'tkaza olmaydigan bo'lib qolfdi.

Muhokama uchun savollar:

1. Passiv transport qanday amalga oshadi?
2. Diffuziya va uning turlari haqida nimalarni bilasiz?
3. Osmos nima?
4. Ionlarning kanallar orqali tashilishi qanday amalga oshadi?

Ikkinchи savolning bayoni.

Ionlar aktiv transporti sistemalarining ko'pchiligi energiya manbai sifatida ATF dan foydalanib, ATF funksional tabiatini jihatidan fermentlardan iborat, transportchi ATFaZalar ta'sirida gidro'lizlanadi. U yoki bu fermentni ifodalash uchun ATFaZ so'zi oldiga tashiladigan ion belgisini qo'shib yozish qabul qilingin (Na, K-ATFaZ, Sa-ATFaZ, N-ATFaZ va h.k.).

Prokariot va eukariot hujayralar transport ATFaZalarni R, V va F dan iborat 3 turga ajratish mumkin.

R-turga mansub. ATFaZalar uchun umumiy bo'lgan xossa, reaksiya davomida $E \sim P$ shaklidagi fosforlangan intermediat hosil qilinishi bo'lib, bu guruhga eukariot hujayralar plazmatik membranalari Na,K-ATFaZasi, Ca-ATFaZ va H-ATFaZalari kiradi. Endo - yoki sarkoplazmatik retikulum Ca-ATFaZasi, prokariotlar (*E.coli*, *Strifaecalis*) tashqi membranasida uchraydigan K-ATFaZ ham shular jumlasidandir.

V-turga transport ATFaZalar achitqi zamburug'i vakuolalari o'simlik topoplastlari hamda lizosomalar va sekret donachalarining membrana tuzilmalarida uchraydi. Ular asosan gradientga qarshi yo'nalgan N^Q transportini amalga oshiradi. Ammo ular transportchi fermentlarning eng katta guruhini tashkil etsada, afsuski, kam o'rganilgan.

F-tur ATFaZalar, N-ATFaZalar yoki $(FoqF_1)$ -ATFaZalar, deb ham atalib, bakteriya membranasini xloroplast tilakoidlari va mitoxondriya ichki membranasida joylashgan. Bu xil fermentlar murakkab subbirliklar strukturasiga ega bo'lib, N^Q aktiv transportini amalga oshiradi. F_1 - ham ATF sintezi hamda uning gidro'lizini katalizlaydi. Bunda ADF miqdori, mazkur ikkita funksional faollik o'rtasidagi, o'ziga xos "qayta ulagich" ro'lini o'ynab, u ko'payganda ATFaZ sintetaza aktivligiga ega strukturaga, kamayganda esa, aksincha, gidrolaza strukturasiga ega bo'ladi. F_0 membranaga gidrofob birikkan oqsil struktura bo'lib, u membranada N^Q ga o'tkazuvchan, ammo oligomisin tomonidan bo'g'ib qo'yiladigan kanad hosil qiladi.

Albatta, hujayrani o'rabi turgan muhitga nisbatan hujayra ichida Na^+ ning tuban, K^+ ning yuqori konsentrasiyasini ushlab turish hamda ularning tashilishiga mas'ul (Na, K-nasos) muhim transport sistemasini ko'zdan kechiramiz. Hujayraning fiziologik tinchlik holatda, mazkur jarayon uchun unda sintezlanadigan ATFning 1G'3 dan ko'p qismi sarf etiladi. Natriy va kaliy ionlarining aktiv transporti nerv, muskul tolalarining elektrqo'zg'aluvchanligini ta'minlash, qandlar va aminokislotalar transporti hamda Ca^{2+} ning $Na^+G'Ca^{2+}$ almashinish yo'li bilan hujayradan

chiqarilishi uchun zarurdir. Mazkur ATFaZanining faollanishi, ya’ni natriy va kaliy ionlarining membrana orqali tashilishi uchun, natriy hujayraning ichkarisidan, kaliy esa uning tashqarisidan ta’sir etishi lozim.

Struktura jihatidan, Na, K-ATFaZa ikki xil subbirliklar: bog’lovchi va fosforlovchi markazlarga (70-100 kDa) ega asosiy (α) va funksiyasi hozircha noma'lum (45-55 kDa) - β -subbirliklardan tashkil topgan. Faraz etilishicha, mazkur subbirlik, α -subbirlikning membranaga birikishini osonlashtiradi va Na,K-ATFaZa maxsus ingibitori - *ouabainga* yuqori sezgirlikka ega bo’lib reseptor vazifasini bajaradi.

R-tur ATFaZanining katalitik sikli, har xil konformasiyaga ega, ikkita fosforlangan formalarni (E_1R i E_2R) o’z ichiga oladi.



Sikl davomida Na, K-ATFaZa ishining quyidagi asosiy bosqichlari amalga oshadi:


- hujayra ichidan uch Na^Q ionini birlashtirish va fermentning fosforlanishi (Mg^{2Q} ishtirokida);
- bog’lovchi markazni membranining tashqi tomoniga ko’chirish (1-translokasiya);
- uchta natriy ionni tashqi muhitga ajratib, tashqi muhitdan ikkita kaliy ionlarini biriktirib olish;
- fosfat kislota qoldig’ini ajratish;
- K^Q ionini biriktirgan markazlarni sitoplazma tomonga o’tkazish (2-translokasiya);
- 2K^Q ni sitoplazmaga chiqarib, undan 3 Na^Q ni biriktirib olish va fermentning fosforlanishi.

Shunday qilib, 1 molekula ATF gidro'lizlanganda 3 Na^Q bilan 2K^Q antiporti amalga oshadi, ya’ni membrana orqali elektr toki hosil qilinadi. Aniqroq qilib aytganda, tashqi muhitga 3 Na^Q ning chiqarilishi, 2K^Q ning esa hujayraga kiritilishi membrananing ichki tomonida 1 ta manfiy potensialning paydo bo’lishiga ekvivalent, ya’ni bunda Na,K-ATFaZa elektrogen rejimda ishlagan bo’lib, chiqadi.

Skelet muskulida membranaga bog’langan naychalar va pufakchalarining murakkab turi (sarkoplazmatik retikulum- CR) mavjud. CR muskul qisqaruvchi tolalarini o’rab turgan muhitdagi kalsiy ionlari konsentrasiyasini boshqaradi. CR fiziologik tinchlik paytida membranasidagi Ca-ATFaZa yordamida, miofibrillalar atrofidagi ion holatidagi kalsiy ionlarining tuban konsentrasiyasini ta’minlab turadi. CR membranasining harakat potensiali ta’sirida qo’zg’alishi, shu ionning o’zida katta miqdordagi kalsiy ionlarning ajralishga sabab bo’lib, muskul qisqarish mexanizmini ishga soladi, ya’ni kalsiy ionlari harakat potensiali bilan muskul qisqarishini bog’lovchi omil tarzida ishlaydi.

Kalsiy ionlarining CR sisternalariga o’tkazilishi, ATF energiyasi hisobiga amalga oshadi. CR membranasidagi Ca-ATFaZa faoliyat davrasida, dastlab fosforlanadi va quyidagi bosqichlarni bosib o’tadi:

- substratni bog’lash, ATF gidro'lizi va ferment substrat kompleksining $E\sim R$ hosil bo’lishi:



• bog'lash markazining membrananing ikkinchi tomoniga o'tishi (translokasiya). Translokasiya jarayoni ionning aktiv tashilishi uchun etarli emas. Bog'lovchi markazga mahkam bog'langan kalsiy ionlarining ajratilishi uchun energiya talab etiladi



Bunda, fosfat qoldig'i bilan fermentlar o'rtasidagi bog' xarakterining o'zgarishi natijasida, katta miqdorda energiya ajralib, u oddiy bog'ga aylanadi: u gidro'lizlanganda esa kam energiya ajraladi. Umuman, 1 molekula ATF gidro'lizlanganda ikkita kalsiy ionlarining membrana orqali tashilishi amalga oshadi. Endoplazmatik to'r Ca-ATFazasi faoliyati asosida ham shu xil mexanizm yotadi.

R-tur ATFaZalar o'zaro ingibitorlari bilan farqlanadi. Masalan, ortovanadet shu tur ATFaZalarning hammasi uchun samarali ingibitordir, yurak glikolizidlari (strofantin, ouabain, olitorizid va b.) Na,K- ATFaZaning maxsus ingibitorlaridir, disiklogeksilkarbodiimid va dietilstilbestrol esa plazmatik membranalar N-ATFaZasini ingibirlaydi. Ca-ATFaZa tiol qatori zaharlariga yuqori sezgirlik namoyon etadi. Yurak CR Ca-ATFazasi, proteinkinaza ishtirokida fosforlanib, Ca-nasosi bog'lanishini o'zgartishga qodir gidrofob oqsil **fosfolamban** tomonidan faollanadi. Plazmatik membrana Ca-ATFazasi, Ca-bog'lovchi regulyator oqsil **kalmodulin** ishtirokida Ca^{2+} ionlari tomonidan faollanadi.

Muhokama uchun savollar:

1. Aktiv transport va uning turlari haqida nimalarni bilasiz?
2. Qanday ATFaZalarni mavjud?
3. Na, K-ATFaZa ning ishslash mexanizmini tushuntirib bering.

Sinov savollari.

1. Moddaning kimyoviy potensiali, oddiy va osonlashgan diffuziya.
2. Oddiy va osonlashgan diffuziya kinetikasi.
3. Elektrokimyoviy potensial va ionlarning passiv tashilishi.
4. Tashuvchilar, xossalari, katta- kichik karusellar, kanallar.
5. Moddalarning membrana orqali aktiv tashilishi, natriy- kaliy ATFaZa.
6. Sa-ATFaZa, vazifasi, ishslash prinsipi.
7. Ikkilamchi aktiv transport, mohiyati va misollar.
8. Membrana orqali moddalar transportining boshqarilishi.

Mavzuga oid adabiyotlar:

Asosiy adabiyotlar:

1. Қосимов М.М. Назарий биофизика асослари. Тошкент, Университет, 2006, 220 б.
2. Remizov A.N. Tibbiy va biologik fizika. Toshkent. Ibn-Sino nashriyoti, 2006.
3. Рубин А.Б. Биофизика. Учебник в 2 х книгах. М., Высшая школа, 2000. 1т. – 448 б. 2т. - 467 б.

4. Антонов В.Ф., Черныш А.М., Пасечник В.И., Вознесенский С.А., Козлова Е.К. Биофизика, Владос, 2000. 287 б.

8-MAVZU: BIOELEKTROGENEZ

Reja

1. Membranening statsionar va harakat potensiallari.
2. Tinchlik va harakat potensiali.
3. Harakat potensialining nerv tolasi bo'y lab uzatilishi.

Birinchi savol bayoni.

Lipid (2) va suv (1) fazalararo, A^Q B^- elektrolitning taqsimlanishini ko'zdan kechiramiz. Bundagi anion- V^- va kation- A^Q lipofilliklari bilan farqlanadi (anion V^- ning lipofilligi katta deb hisoblaymiz). chegara bo'lim yaqinidagi lipid fazada, anion V^- 5- 0 konsentrasiyasi A^Q dan bir qadar katta. Shuning uchun chegara bo'lim yaqinida lipid faza (2) manfiy zaryadli bo'lib, suv faza (1) ga nisbatan ancha tuban potensialga ega. Ammo, yuza bo'limdan uzoqda A^Q bilan V^- konsentrasiyalari o'zaro teng, ya'ni fazalar hajmida elektroneytrallik S_{AQSV} . shartiga amal qilinadi. Umuman, elektr o'tkazuvchanliklarning farqlanishi tufayli A^Q va V^- ionlarning (2) fazadagi konsentrasiyalari, tuban bo'lib chiqadi. Natijada, yuza bo'limga yaqin sohada diffuzion qatlamlar shakllanib, ularning har biridagi A^Q va V^- konsentrasiyalari bir xil bo'lmay, chegara bo'lim yaqinida elektroneytrallik shartiga amal qilinmaydi.

Shunday qilib, yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqadiki, fazalararo potensiallar farqi, faqat anion va kationlar taqsimlanish koeffisientlari turlicha ($\gamma_A \neq \gamma_V$). bo'lganda yuzaga keladi. Potensialning chegara yaqinida kamayish xarakteri, ionlarning qo'sh elektr qavati va membrana qalinligida taqsimlanishi bilan belgilanadi. Analiz natijalariga ko'ra, chegara bo'limi yaqinida elektro potensial kattaligi faza hajmiga nisbatan, membrana qalinligining koordinatasi x bo'y lab, masofaga bog'liq ravishda, eksponentsiyal o'zgara boradi:

$$\varphi(x) = \varphi_0 e^{-xG/\lambda}$$

Bu erda φ_0 - potensialning chegara bo'limdagi kattaligi, λ - berilgan fazadagi ionlar konsentrasiyasi va fazaning dielektr o'tkazuvchanligiga bog'liq konstanta. Potensialning asosiy (e-marta) kamayishi, xq 71 0 masofada yuz berib, bu masofa qo'sh diffuzion qavatning qalinligini xarakterlaydi. λ - kattaligi **ekranlash masofasi**. (Debay ekranlash radiusi) deb ataladi. Suyultirilgan eritmarda qo'sh diffuzion qavat qalinligi yuzlab angstromlarda o'lchansa, konsentrangan eritmarda, u bir necha angstromga teng bo'lib chiqadi. Demak, ionlar konsentrasiyasi bir necha tartibga kam bo'ladigan lipid qatlamida ekranlanish masofasi, suv muhitga qaraganda ancha katta bo'ladi. Qalinligi ekralanish qalinligidan ancha kichik bo'ladigan yupqa membranada membrana ichida potensial sakrashi amalda, umuman sodir bo'lmaydi.

Membranalar yuzasidagi potensial bioelektrokimiyoviy jarayonlarda ham muhim rol o'ynaydi. Odatta, tadqiqotlarda, unga yaqin - **elektrokinetik potensial** . - ξ (dzeta potensial) yoki o'zgargan potensial o'lchanadi. U gidrat qobiqli ionlarning

birinchi qatlami va qattiq fazani ho'llab turuvchi zarracha (masalan, achitqi hujayrasi, eritrositlar va h.k.) suyuqlikka nisbatan siljiganda, - zaryadli yuzada ushlanib, u bilan siljiyidigan suv molekulalari bilan suyuqlikning butun hajmi o'rtasida kelib chiqadigan potensialdir. Elektrokinetik hodisalar (elektroforez, elektroosmos, cho'kish potensiali va oqish potensiali) membrananing sirt yuza zaryadi bilan shartlangan.

Donnan potensiali.

Donnan muvozanati - fazalardan biridagi zaryadli zarrachalarning, boshqa bir fazaga o'taolmasligi tufayli fazalar o'rtasida yuzaga keladigan ionlar muvozanatining bir turidir. Faraz etaylik, elektro'litga o'tkazuvchan membrana bilan ajratib qo'yilgan ikkita suv faza mavjud bo'lib, ularda $A^Q V^-$ elektro'lit eritilgan. Fazalarning birida (2-fazada) muqimlashgan musbat Q zaryadlar mavjud bo'lib, ular membranadan o'ta olmaydi. Muvozanat sharoitida, muayyan bir harakatchan ionning ikkala (1,2) eritmalaridagi elektrokimyoiy potensiallari bir xil bo'ladi:

$$RT \ln C_{A1} Q ZF \varphi_1 = RT \ln C_{A2} Q ZF \varphi_2 \quad \text{va}$$

$$RT \ln C_{B1} Q ZF \varphi_1 = RT \ln C_{B2} Q ZF \varphi_2$$

Muvozanat shartidan kelib chiqib, potensiallar farqi uchun hosil qilinadi:

Mazkur tenglama, membrana muvozanat potensialining Nernst teglamasi deb atalib, u membranadagi muvozanat potensialining fazalardagi elektro'lit konsentrasiyalari nisbati bilan belgilanishini ko'rsatadi. Kationlar A^Q nining esa tuban miqdori bilan kompensasiyalanadi. Bunday vaziyatda, donnan potensiallar farqi paydo bo'lib, u teng bo'ladi:

$$\Delta \varphi_D = \varphi_2 - \varphi_1 = \frac{RT}{F} \ln \frac{C}{CA_2} > 0,$$

bu erda $S_{A2} < S$. dir. Ikkinci fazada to'plangan V_2^- anionlari konsentrasiyasini, suvli eritmadiagi elektro'lit konsentrasiyasidan oshganda, mazkur potensial katta qiymatlarga erishishi mumkin.

Muhokama uchun savollar:

1. Membrananing statsionar va harakat potensiali nima?
2. Donnan potensiali haqida nimalarni bilasiz?

Ikkinci savolning bayoni.

Tinchlik potensiali (TP) - hujayraning fiziologik tinchlik paytida, uning sitoplazmatik membranasini bilan tashqi muhit o'rtasida mavjud potensiallar farqidir. TP hujayraning qo'zg'aluvchanligini ta'minlaydi, uning o'zgartilishi orqali, bir qator hujayraviy jarayonlar: nerv impulsining paydo bo'lishi va uzatilishi, sekretorlik faoliyat, muskul qisqarishi va h.k. boshqariladi.

Bernshteyn (1902 y.) gipotezasiga binoan, TP K^O ionlarining membrana orqali notekis taqsimlanishi tufayli yuzaga keladi va Nernst teglamasi yordamida tasvirlanadi:

$$EK = \frac{RT}{F} \ln \frac{K_o}{K_i} = 0,06 \lg(K_o G' K_i) \text{ (volt)}$$

bu erda E_k -kaliyning muvozanat potensiali. Tenglamadan kelib chiqadiki, kaliyning plazmatik membranadagi gradienti 10 ga teng (ichkarida u 100 mM, tashqarida esa 10 mM) bo'lganda, TP kattaligi 60 mVga teng bo'lib chiqadi.

Tinchlik va **harakat potensiali (HP)** kelib chiqish mexanizmlarini tekshirishga oid klassik tadqiqotlar o'tkazilgan kalmar *Loligo* gigant aksoni membranasining tinchlik paytida ion singdiruvchanlik koeffisientlariaro nisbat quyidagicha: $PK^Q : PNa^Q : PCl^- \approx 1 : 0,04 : 0,45$ qo'zg'алиш paytida esa bu nisbat o'zgarib, $PK^Q : PNa^Q : PCl^- \approx 1 : 20 : 0,45$ holiga keladi, ya'ni membrananing Na^Q ionlariga bo'lgan singdiruvchanligi 500 lardan oshib ketadi.

Shunday qilib, tinchlik potensiali K^Q harakat potensiali esa Na^{5Q} ionlari bilan shartlangan.

Agarda membrana potensialini baholashda K^Q gina emas, boshqa ionlarning unga qo'shadigan ulushlari inobatga olinmasa, u holda Goldman-Xodjkin-Kas teglamasidan foydalanishga to'g'ri keladi:

$$\Delta\varphi_{i-o} = \frac{RT}{nF} \ln \frac{PK[K_o] + PNa[Na_o] + PCl[Cl_i]}{PK[K_i] + PNa[Na_i] + PCl[Cl_o]}$$

Mazkur, statsionar (statsionar holat shartiga muvofiq) deb atalmish tenglama, membrana orqali amalga oshib turadigan K^Q , Na^Q , Cl^- va boshqa ionlarning qaramaqarshi yo'nalishdagi oqimlarini ham inobatga oladi. Nerst teglamasi esa, Na^Q va Cl^- ionlari e'tibordan chetda qoldiriladigan sharoitdagi Goldman teglamasining xususiy holidir.

Ko'pchilik hujayralarning TP, odatda, $-50 \div 70$ mV, donnan potensial esa 2-3 mV atrofida bo'ladi. Kuchli darajada zararlangan hujayraning TP kamayib, undagi ionlarning qayta taqsimlanishi, ion asoslari emas, balki, hujayradagi ko'p valentli anionlar miqdori bilan belgilanadigan, donnan potensiali darajasiga tushib qoldi.

Tinchlik potensiali membrananing ionlarga bo'lgan absolyut singdiruvchanligi emas, balki nisbiy singdiruvchanligi bilan belgiladi. Statsionar potensialning shakllanishida, Na,K-nasosi (Na,K-ATFaza) tomonidan yuzaga keltiriladigan ion oqimlari ham ishtirok etishi mumkin. Chunki, ferment faoliyatining har davrasida hujayradan chiqariladigan Na^Q (3), unga kiritiladigan K^Q (2) dan ko'p. Shu tufayli, hujayradan tashqariga yo'naltirilgan musbat zaryadli yig'indi oqim, hujayra ichidagi manfiy potensialning oshishiga olib keladi (muhit potensiali 0 ga teng deb qabul qilinadi).

Loligo aksonining HP iz giperpolyarizasiysi bilan kechadi. Mazkur giperpolyarizasiya harakat potensiali amalga oshib bo'lganidan keyin ham membrana kaliy o'tkazuvchanligining ma'lum vaqt davomida odatdagagi darajadan yuqori bo'lib qolishi bilan izohlanadi.

Natriy kanallari faolligining susayishi natijasida membrana qo'zg'almaydigan asosiy refrakterlik holatga (refrakterlik davriga) o'tadi. Uning ketidan nisbiy refrakterlik davri boshlanib, bu davrga HP pog'onasi yuqori bo'lib qoldi.

Muhokama uchun savollar:

1. Tinchlik potensiali nima va u kim tomondan aniqlangan?
2. Harakat potensiali, uning kelib chiqish sabablari va ahamiyati.

Uchinchchi savolning bayoni.

Harakat potensialining nerv tolasi bo'y lab uzatilishi.

Nerv muskul hujayralari, hatto suv o'tlari hujayralari qo'zg'alganda hujayra ichi muhit bilan tashqi muhitdag'i eritmalararo, so'nuvchi tebranishlarni eslatuvchi membrana potensialining o'zgarishi yuz berib, u **harakat potensiali** deb ataladi. Har bir impulsga mos, akson bo'y lab tarqaluvchi elektr signal - *spayk* deb ataladi. Aynan mana shu spayk, nerv tolasi bo'y lab uzatiladigan informasiyaning asosiy birligidir.

Mielinli nerv tolalarida, harakat potensiali Ranve bo'g'imlarida yuzaga kelib, bo'g'imdan elektr (elektr kabeli bo'y lab, telegraf axboroti berish) yo'li bilan uzatiladi. Mielinsiz nerv tolalarida uning har bir sohasi, qo'shni sohadan elektr signalini qabul qilib, harakat potensiali hosil qiladi va uni navbatdagi sohaga uzatadi. Mohiyatan, HP o'z-o'zini qo'llab- quvvatlab, tarqaladigan signaldir.

Harakat potensiali, TP kamayib, **pog'ona** deb ataladigan kritik darajagacha kamayganda paydo bo'ladi. Membrananing pog'ona darajasigacha qutbsizlanishiga (membrana potensialining musbat tomchi siljishiga) javoban, membranadagi potensialga bog'liq natriy kanallarining faollanishi (kanalning ochilishi) ro'y beradi.

Loligo gigant aksonining TP -60 mVga teng. TPning -45 mVgacha kamayishi harakat potensialining kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Bunday vaziyatda membrananing elektr sig'imi deyarli o'zgarmaydi, ammo uning elektr qarshiligi 25 marta kamayadi. Bunday hol membrana Na^Q o'tkazuvchanligining oshishi bilan belgilanadi. Boshqacha aytganda, tinchlik paytida membrana K^Q ga ko'proq o'tkazuvchan bo'lsa, qo'zg'alish paytida unda hujayraga yo'nalgan Na^Q oqimi paydo bo'ladi. Membrana potensialining Na^Q muvozanat potensiali (E_{Na} q 55 mV) darajasiga yaqinlashishi barobari, kiruvchi Na^Q oqimi kamaya boradi. Membrana potensialining musbatlik tomon siljishi nafaqat natriy kanallarini ochadi (faollowaydi) faol kanallari sonining kamayishiga (inaktivasiyasiga) ham sabab bo'ladi. HP paytida membrana kaliy o'tkazuvchanligining nisbatan sekin oshishi ro'y beradi. Na^Q o'tkazuvchanlikning susayishi va kaliy o'tkazuvchanligining osha borishi, HPni cheklab, membrananing yangidan qutblanishiga olib keladi.

Nerv va muskul tolalari silindr shaklidagi o'tkazgichlardir. Ular ichki muhitini solishtirma qarshiligi ancha yuqori bo'lib, yuqori o'tkazuvchanlikka ega tashqi muhitdan izolyatordan iborat, membrana vositasida ajratilgan. Bu jihatlari bilan tolalar, suv osti elektr kabelini eslatadi. Membrananing elektr sig'imi, taxminan, 1 $mkFsm^2$ ga teng.

Aksoplazma elektro'litrarga ega bo'lsa ham, u yaxshi o'tkazgich emas. Chunki uning solishtirma qarshiligi R 10- 1000 msm. Diametri 1mkm nerv tolasining uzunlik birligiga to'g'ri keladigan solishtirma qarshiligi 10^9 - 10^{10} omG'sm bo'lib, bu kattalik shu xil diametrli mis simi qarshiligidan 10^8 marta katta. Demak, nerv tolasi yomon o'tkazgich. Aslida bunday o'tkazgichda tok qochishi va oqib ketishi katta bo'lishi lozim. Ammo, akson nerv impulsini bir necha metr masofaga o'zgartmasdan va so'ndirmasdan uzata oladi. Nerv qo'zg'alishi mahalliy HP yuzaga kelishidan boshlanadi. Keyin esa, u akson bo'y lab, ko'p sonli tolalardan tashkil topgan sistema orqali uzatiladi, hatto yonma-yoen joylashgan tolalarga o'tkaziladi.

Nerv tolasining u yoki bu joyida (X_0) paydo bo'lgan qo'zg'alish, membranani qutbsizlantiradi. Bunda membrana ichi tomondagi potensial tinchlik holatdагisidan ma'lum bir musbat V_n kattaligiga oshadi. Qo'zg'algan va koordinatasi x ga teng, qo'zg'almagan qo'shni sohalar o'tasidagi paydo bo'lgan potensiallar farqi aksoplazma (yoki sarkoplazma) orqali o'tadigan mahalliy tok - I_a paydo bo'lib, u qo'zg'algan va qo'zg'almagan sohalarni halqa shaklida qamrab oladi. Bu o'z navbatida qo'shni sohaning V_n - kattaligigacha qutbsizlanishiga olib keladi. Agarda x - nuqtadagi qutbsizlanish kattaligi V_n tolaning qutbsizlanish kattaligidan V_t katta bo'lib chiqsa ($V_n > V_t$) membrananing o'sha joyi qo'zg'aladi va h.k.

Bordi-yu, membranaga t - vaqt bilan ajralgan ikkita ketma-ket turtki berilsa, bunday holda, tolaning hatti-harakati o'sha vaqt kattaligiga bog'liq holda har xil namfyon bo'ladi. Vaqt oralig'i o'sha kichik bo'lsa, nerv tolsi qo'zg'almaydi (absolyut refrakterlik). Ma'lum bir vaqtdan so'ng, qo'zg'aluvchanlik tiklana boshlaydi, bunday paytda tolaning pog'ona darajasi balandroq bo'ladi (nisbiy refrakterlik). Umumiyl refraktorlik 1 ms-dan bir necha ms-ga cho'zilishi mumkin. Turtki ta'siridan nerv tolasida qo'zg'alish hosil bo'lishi uchun ma'lum bir vaqt talab etiladi. Bu shunday bir vaqtki, uning davomida tola membranasi pog'ona kuchi ta'siridan, e - kattaligiga qutbsizlanadi. Aynan mana shu vaqt tolaning **vaqt doimiysi** (τ) deb atalib, qo'zg'aluvchan to'qimalar, jumladan, nerv tolalari ham τ - kattaligi bo'yicha, o'zaro farqlanadi.

$$V_t \propto V_0 e^{-tG'\tau}$$

bu erda V_0 - toladagi dastlabki potensiallar farqi, V_t - o'sha potensialning t - vaqt o'tgandan keyingi kattaligi. e - natural logarifm asosi, τ - tolaning (yoki membrananing) vaqt doimiysi bo'lib, u $\tau \propto R_m C_m$ dir. Tolaning vaqt doimiysi qanchalik kichik bo'lsa, u shunchalik tez qo'zg'aladi va aksincha.

Shunday qilib, nerv impulsining paydo bo'lishi qo'zg'aluvchan to'qimaning qo'zg'algan va qo'zg'almagan sohalari aro mahalliy tokning paydo bo'lishi bilan shartlanib uning ta'siridan MP qutbsizlanib, pog'ona darajasiga erishganda HP paydo bo'ladi. So'ngra, mahalliy tok o'z domiga navbatdagi sohani oladi va h.k. Jarayon ba'zi bir tomonlari bilan bikford arqonining enishini eslatadi.

Nerv impulsining tarqalishi ham telegraf teglamasi yordamida tasvirlanadi:

$$V_x \propto V_0 e^{-xG'\lambda},$$

bu erda x - akson bo'y lab masofa, λ - **uzunlik doimiysi** bo'lib, u teng

$$\lambda \approx \sqrt{rl\rho_m / 2\rho_a}$$

formulada, r - akson radiusi, l - membrana qalinligi, ρ_m , ρ_a membrana va aksoplazmaning solishtirma qarshiligi.

Nerv tolsi bo'y lab HPning uzatilish tezligi, normal sharoitda, X_0 - nuqtadagi ($X_0 = 0$), V_0 -ga teng potensialning masofa x -ni bosib o'tishiga bog'liq. Nerv impulsining gigant aksondagi yuqori tezligi, r -ning katta bo'lishi, mielinli tolalarda esa, l -ning kattalashtirilishi evaziga ta'minlanadi. Mielin katta elektr qarshiligidagi

ega. Buning ustiga mielin qobig'ining qalinligi - *l*, odatdagи membranalar qalinligidan bir necha yuz marta katta. Shular tufayli, mielinli tolalarda λ katta bo'lib, harakat potensiali sakrash yo'li bilan uzoq masofaga uzatiladi.

Sinapslar va sinaptik jarayonlar.

Yonma-yon joylashgan hujayralararo bevosita aloqa, yuksak o'tkazuvchanlikka ega kontaktlar yordamida amalga oshib, bunday kontaktlar **tirqichli birikishlar** deb ataladi.

Nerv hujayralari nishon hujayralar bilan maxsus kontaktlar - **sinapslar** hosil qilish xarakteriga qarab, **kimyoviy, elektrik va aralash sinapslarga**. bo'linadi. Kimyoviy sinapslar holida, HP ta'siridan akson uchlaridan neyromediator ajralib, u sinaps tirqichiga tushadi va postsinaptik membranadagi reseptor bilan ta'sirlashib, nishon hujayrani yo qo'zg'aydi yoki tormozlangan holatga o'tkazadi.

Nerv uchlaridagi sinaptik pufakchalarda mediator konsentrasiyasi yuqori bo'ladi. Sinaps tirqichi to'qima suyuqligi bilan to'lган bo'lib, uning kengligi taxminan 10- 50 mkm. Shuning uchun bunday masofadan signalning elektr yo'li bilan uzatilishi, mumkin bo'lmay qoladi.

Kimyoviy sinapslarda signal faqat bir yo'nalishda, ya'ni sinaps oldi membranadan sinaps orti membranasi yo'nalishida uzatiladi. Kimyoviy sinapslarga **sinapsda kechikish** - sinaps oldi membranada HP paydo bo'lган vaqtidan tortib, sinaps orti membranada HP (postsinaptik potensial) hosil bo'lguncha ketgan vaqt oralig'i xarakterli bo'lib, u taxminan 0,3 ms, ba'zan undan ham ko'p davom etishi mumkin. Bu davr, sinaps oldi membranadan mediator sekresiyalanishi, uning sinaps tirqichi orqali diffuziyalanishi va reseptorga bog'lanishi uchun ketgan vaqt yig'indisidan iborat. Ba'zi bir sinapslarda neyromediatorning reseptor bilan ta'sirlashishi, ion kanallarini faollowchi va shu orqali postsinaptik potensial (PSP)ning yuzaga kelishiga sabab bo'luvchi ikkilamchi mediatorning paydo bo'lishiga olib keladi. Ko'pchilik kimyoviy sinapslarda, mediator sifatida, quyidagi moddalar ishlaydi: asetilxolin, katekolaminlar- adrenalin, noradrenalin va dofamin, serotonin (5- gidroksitriptamin), gistamin, γ-aminomoykislota (GAMK), glutamin, asparagin kislotalari va glisin.

Nerv uchlarida mediator ajratilishining zaruriy sharti- bu tirqishda Ca^{2+} ionlarining mavjud bo'lishidir. Sinaps oldi membranaga HP kelib etishi bilan undagi Ca-kanallari ochiladi. Ichkariga Ca^{2+} ionlari kiradi va ular mediatorlarga ega pufakchalarining sinaps oldi membranaga epishishini ta'minlaydi. Bu jihatdan Mg^{2+} antagonistdir.

Postsinaptik potensiallar (PSP). Mediatorning sinaps keti membranasidagi reseptorlar bilan ta'sirlashishi unda postsinaptik potensialning paydo bo'lishiga olib keladi. PSP qo'zg'atuvchi qutbsizlantiruvchi postsinaptik potensial (QPSP) yoki tormozlovchi (qutblilikni oshiruvchi) postsinaptik potensial (TPSP)ga bo'linadi. Nerv muskul sinapslarida, sinaps oldi membranaga kelib yotgan HP, sinaps tirqishiga asetilxolinning (AX) ajratilishiga sabab bo'ladi. So'ngra, mediator molekulalari diffuziyalanib, sinaps keti membranaga yetib kelib, undagi maxsus reseptor (xolin reseptor) molekulalariga birikadi. Natijada mazkur membrana qutbsizlanib, muskul tolasi membranasida tarqaluvchi HPni keltirib chiqaradi. AX esa asetilxolinesteraza fermenti ta'siridan gidro'lizlanadi va sinaps keti membranasi yangidan qutblanadi.

Kas o'z tadqiqotlarida amplitudasi o'rtacha 0.5 mV, taxminan 20 ms davom etadigan ana shunday impulslar zaipini qayd etgan. Ular **miniatyur potensiallar** deb atalib va tasodif tarzda paydo bo'lib, uzoq vaqt davom etadi. Ma'lum bo'ldiki, ular, fiziologik tinchlik paytida, spontan (o'zligidan) tarzda ajralib turadigan AX porsiyalari bilan shartlangan. Sinaps oldi membranasining HP ta'siridan qutbsizlanishi sinxron holda, taxminan, 100 ta AX kvantlarining ajratilishini shartlaydi. Yetarli miqdorda ajratilgan AX kvantlari ta'siridan yuzaga kelgan miniatyur potensiallar summasiyalanib, sinaps keti membranasining qutbsizlanish darajasini pog'ona darajasiga etkazib, HPni yuzaga chiqaradi.

Qo'zg'atuvchi potensialning paydo bo'lishi, odatda, sinaps keti membranasi Na^{Q} va K^{Q} , ehtimol $\text{Ca}^{2\text{Q}}$ ionlari o'tkazuvchanligining oshishi, ya'ni ularga tegishli ion kanallarining ochilishi bilan bog'liqdir. Bunday paytda Na^{Q} ionlari ichkariga kiradi, K^{Q} ionlari esa tashqariga chiqadi. Ba'zan, membrananing K^{Q} o'tkazuvchanligi kamayganda ham qo'zg'atuvchi potensial yuzaga keladi. TPSP holida (GAMK ta'sir etib Cl^- kanallari faollanganda) membrana qutblilik holatining oshishi (giperpolyarizasiya), bilan uning pog'ona darajasi ham oshadi, natijada HP paydo bo'lmaydi. Demak, tormozlanish yuz beradi.

Elektr yo'li bilan ishlovchi sinapslar kam uchraydi. Bu xil sinapslarda qo'zg'atuvchi yoki tormozlovchi potensiallar mediator ta'siridan emas, balki elektr (katodik yoki anodik elektroton) yo'l bilan hosil bo'ladi. Sinaps tirqish kengligi 2-3 nm, sinaps oldi va sinaps keti membranalari aro tirqish bog'lanishlari mavjud bo'lib, ko'p hollarda ular ikki tomonlama o'tkazish xossasiga ega (to'g'rilash xossasiga ega emas), ammo, ba'zi bir tomonlama tok o'tkazish xossasiga ega, elektr sinapslari ham uchraydi. Masalan, daryo qisqichbaqasining gigant harakat sinapsi. Bunday sinapslarda sinaps kechikishi yuz bermaydi. Ular ko'pincha qo'zg'atuvchi sinapslardir.

Aralash sinapslar o'zida ham kimyoviy, ham elektr sinapslarini mujassamlantirgan bo'lib, ilk bor jo'ja kipriksimon gangliyasida topilgan. Ular elektr signallarini kimyoviy sinapslarga nisbatan tez o'tkazadi. Ehtimol, ular signal uzatilishining aniqligi, to'liqligi va koordinasiyalanib turishini ta'minlaydi. Markaziy nerv sistemasining faoliyatida kimyoviy sinapslari ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Chunki signalning bir yo'nalishida uzatilishi, nerv sistemasining tartiblangan va aniq ishlashini ta'minlaydi. Qizig'i shundaki, kimyoviy sinaps qanchalik tez-tez ishlab tursa, u impulsni ham shunchalik tez o'tkazadigan bo'lib qoladi (sinapsdagi yengillashish) bunday hol kimyoviy sinapslarning **plastikligidan** darak beradi.

Muhokama uchun savollar:

1. Harakat potensialining nerv tolasi bo'ylab uzatilishi qanday amalga oshadi?
2. Sinapslar va sinaptik jarayonlar naqida nimalarni bilasiz?
3. Qanday sinaps turlari mavjud?

Sinov savollari.

1. Ionlarning muvozanat potensiali, yuzaga kelish sabablari.
2. Membrananing statsionar potensiali, Goldman-Xodjkin teglamasi.
3. Membrananing harakat potensiali, profili, yuzaga kelish mexanizmi.

4. Harakat potensiali paytida yuzaga keladigan membrana toki.
5. Harakat potensialining uzatilish mexanizmlari.
6. Nerv tolasining kabel xossalari.
7. Sinapslar, ularning tuzilishi va funksiyasi bo'yicha klassifikasiyasi.
8. Sinaptik jarayonlar, qo'zg'atuvchi va tormozlovchi postsinaptik potensiallar, yuzaga kelish mexanizmlari.

Mavzuga oid adabiyotlar:

Asosiy adabiyotlar:

1. Қосимов М.М. Назарий биофизика асослари. Тошкент, Университет, 2006, 220 б.
2. Remizov A.N. Tibbiy va biologik fizika. Toshkent. Ibn-Sino nashriyoti, 2006.
3. Рубин А.Б. Биофизика. Учебник в 2 х книгах. М., Высшая школа, 2000. 1т. – 448 б. 2т. - 467 б.
4. Антонов В.Ф., Черныш А.М., Пасечник В.И., Вознесенский С.А., Козлова Е.К. Биофизика, Владос, 2000. 287 б.

9-MAVZU: ELEKTRO'TKAZUVCHANLIK

Reja

1. Hujayra va to'qimalarning o'zgarmas tok uchun elektro'tkazuvchanligi.
2. Qutblanish turlari.
3. Hujayra va to'qimalarning o'zgaruvchan tok uchun elektro'tkazuvchanligi

Birinchi savol bayoni.

Biologik ob'ektlarining elektro'tkazuvchanlik xossasini tekshirish, bir tomonidan, tirik moddaning fizikaviy jihatdan tavsiflashdan iborat nazariy ahamiyatga ega bo'lsa, ikkinchi tomonidan, uning funksional holatga bog'liq ravishda o'zgarishini aniqlash orqali (masalan, to'qimaning yallig'lanishi yoki o'lik-tirikligi, diabet diagnostikasi va h.k.) undan amaliy maqsadlarda foydalanish mumkin. Yallig'langan to'qima bo'kadi. Natijada, hujayralararo bo'shliqlar torayib to'qimaning elektr qarshiligi oshadi. Ter chiqarishni kuchaytirishga olib keladigan fiziologik jarayonlar, aksincha, to'qima (teri) qarshiligining kamayishiga sabab bo'ladi.

Elektr o'tkazuvchanlik G - o'tkazgichning elektr qarshiligi R -ga teskari kattalik bo'lib, u $G \propto R^{-1}$, qarshilik esa $R \propto \rho \frac{l}{S}$ dir.

Bu erda ρ - solishtirma qarshilik, l - o'tkazgich uzunligi, S - o'tkazgichning ko'ndalang kesimi.

Tirik to'qimadan o'zgarmas yuqori, hujayralararo suyuqlikdan o'tadi. qolgan qismi katta qarshilikka ega hujayra membranasi orqali o'tadi. Eritrositlarning soni o'zgarmas tok ishlatib aniqlangan solishtirma qarshiligi $\rho = 10^{12}$ OmG'sm. Bu kattalik (ρ) turli to'qimalarda turlicha bo'lib, ular o'zaro keskin farqlanadi.

Biologik ob'ektlari orqali o'zgarmas tok o'tkazilganda qayd etilganki, tok kuchi tok qo'shilishi bilanoq uzlucksiz kamayib, oxirida eng tuban miqdorga erishib qaror

topadi, ya’ni tok vaqt e’tibori bilan kamayadi. Bunday hol biologik ob’ektlarining tokni qutblantira olish xossasiga ega ekanligi bilan izohlanadi. Boshqacha aytganda, o’zgarmas tok ta’siridan hujayralarda qo’yilgan tokka yo’nalishi jihatidan qarshi qutblanish EYUK (R) hosil bo’ladi, vaqt o’tishi bilan u ma’lum bir darajagacha osha boradi, demak, u vaqtning funksiyasidir, ya’ni $R_{EYUK} q f(t)$. Shu asosda to’qimadan o’tadigan tok uchun yozamiz: $I q (V-P)G’R$

Tirik ob’ektda to’planadigan elektr miqdori (qutblanish toki) statik sig’imgina emas, qutblanish sig’imi bilan ham belgilanadi. Bunga, hujayra va to’qimalar sig’imining tok kuchlanishi hamda vaqtga bog’liq ravishda o’zgarishi dalil bo’ladi.

Biologik ob’ektlarining o’zgarmas hamda tuban chastotali tok ishlatib, o’lchab olingan qutblanish sig’imlari turlicha bo’lib, ancha katta, ya’ni $0.1 \text{ mkFG’sm}^2 - 10 \text{ mkFG’sm}^2$, hatto undan ham katta miqdorlar bilan xarakterlanadi. Masalan, uning eng katta miqdori 40 mkFG’sm^2 krab muskul tolalarida qayd etilgan. Ta’kidlash lozimki, yuqori qutblanish sig’imi faqat zararlanmagan tirik hujayralarga xos xususiyatlardan hisoblanadi.

Biologik ob’ektlarning elektr qarshilagini aniqlash, ularda yuzaga keladigan qutblanish hodisasi tufayli murakkablashadi. Uning ustiga, tirik hujayradan o’zgarmas tok o’tganda, protoplazmada dezintegrasiya yuz berib, buning natijasida, hujayraning elektr o’tkazuvchanligi oshadi. Shuning uchun qutblanish hodisasiga yo’l bermaslik maqsadida, elektr o’tkazuvchanlikni tekshirish o’zgaruvchan tok ishlatib amalga oshiriladi. Bunda o’ziga xos kompensasiyalash imkonlariga ega, maxsus ko’prikchalari (masalan, Koiraush ko’prigi) ishlatiladi.

Tirik to’qima elektr o’tkazuvchanligining dispersiyasi, tuban chastotalarda ham o’zgarmas tok ishlatgandagi singari qutblanish hodisasiga bog’liq bo’lib, chastota yetishi bilan, qutblanishning elektr o’tkazuvchanlikka ko’rsatadigan ta’siri kamaya boradi. Demak, dispersiya ham qutblanish singari faqat tirik hujayraga xos xususiyatdir.

To’qima o’lganda, uning tuban chastotali tokka ko’rsatadigan qarshiligining kamayib ketishini Ostergau qayd etgan edi. Keyinchalik, to’qima qarshilagini tuban chastotalarda o’lchash metodidan to’qimaning fiziologik holatini baholash maqsadida ham foydalanila boshlandi. Masalan, to’qimalarni ko’chirib o’tqazishda (transplantasiya).

B.N.Tarusov tomonidan, to’qimaning fiziologik holatini baholash uchun tavsiya etilgan tuban chastotali o’lchab olingan qarshilikning yuqori chastotada aniqlangan qarshilikka nisbatidan iborat, elektro’tkazuvchanlik dispersiyalanish qiyaligi aniqlash metodi ishonchli hisoblanadi. Chunki, bir xil sharoitda o’lchab olingan ikki xil qarshiliklar nisbati (K) normal to’qimalarda o’zgarmas kattalikka ega. Shu maqsad uchun 10^4 Gs va 10^6 Gs chastotalar tavsiya etilgan. 10^4 Gs chastotada dispersiya egri chizig’ida egilish qayd etiladi, 10^6 Gs chastotada esa to’qimaning elektr o’tkazuvchanligi maksimal kattalikka erishadi. Ba’zi bir tadqiqotchilar to’qimaning maksimal elektr o’tkazuvchanli 10^8 Gs chastotada qayd etiladi, deb hisoblatadi.

$$K q \frac{\frac{R}{10^4}}{\frac{R}{10^6}}$$

Tirik to'qimalar uchun u har doim K>1 bo'lishi lozim. To'qima o'lganda esa, u KQ1 bo'lib qoladi. Qizig'i shundaki, uning kattaligi organizmning evolyusion qatordagi o'rniga bog'liq bo'ladi.

Tadqiqotchilar, biologik ob'ektdan tok o'tganda qayd etilgan qonuniyatlarini izohlashda, tirik to'qimaning elektr qarshiligi, uning om va sig'im qarshiliklarining geometrik yig'indisidan iborat, degan nuqtai-nazarga asoslanadi. Elektrotexnikadagi singari, to'qimaning yig'indi qarshiligi **impedans** (Z) nomi bilan yuritiladi. Impedans deganda, to'qimaning aktiv om qarshiligi (**rezistans**) sig'im qarshiligi (**reaktans**) iborat effektiv qarshilik tushiniladi, ya'ni

$$Z = \frac{1}{\sqrt{1/R^2 + \omega^2 C^2}} \sqrt{R^2 + \omega^2 C^2} \cdot i \frac{1}{\omega C},$$

bu erda R - om qarshiligi, S - sig'im qarshiligi, ω - doiraviy chastota.

To'qima yoki organning impedansi, uning funksional holatiga bog'liq. To'qima impedansining o'zgarishini qayd etishga asoslangan diagnostika metodlari **reografiya** (impedans-pletizmografiya) deb ataladi. Aynan mana shu metod yordamida bosh miya reogrammasi, yurak (reokardiogramma) asosiy qon tomirlar, o'pka, jigar va oyoq-qo'l reogrammalari yozib olinadi. Bunday ishlar odatda 30 kGs chastotada olib boriladi.

Sinov savollari.

1. Hujayra va to'qimalarda yuzaga keladigan qutblanish hodisasi, qutblanish turlari.
2. Elektro'tkazuvchanlik disspersiyasi egri chizig'i va uning universalligi.
3. Qutblanish koeffisienti va ilmiy ahamiyati.
4. Hujayraning aktiv va reaktiv qarshiligi, impedans va tangens yo'qotish.

Mavzuga oid adabiyotlar:

Asosiy adabiyotlar:

1. Қосимов М.М. Назарий биофизика асослари. Тошкент, Университет, 2006, 220 б.
2. Remizov A.N. Tibbiy va biologik fizika. Toshkent. Ibn-Sino nashriyoti, 2006.
3. Рубин А.Б. Биофизика. Учебник в 2 х книгах. М., Высшая школа, 2000. 1т. – 448 б. 2т. - 467 б.
4. Антонов В.Ф., Черныш А.М., Пасечник В.И., Вознесенский С.А., Козлова Е.К. Биофизика, Владос, 2000. 287 б.

10-MAVZU: HARAKATNING MUSKULLI VA MUSKULSIZ FORMALARI

Reja

1. Qisqaruvchanlikning molekulyar mexanizmlari.
2. Mushaklar mexanikasi.
3. Harakatning nomushak shakllari.

1. Qisqaruvchanlikning molekulyar mexanizmlari.

Hujayra va organizmlar harakatlanib, mexanik ish bajaradi. Bu ish izotermik va izobarik sharoitda bajariladi va bunda energiya manbai bo'lib issiqlik va kimyoviy energiya xizmat qiladi.

Ko'ndalang yulli muskulning tolalari ichida ko'p sonli miofibrillalar joylashgan. Ularning diametri 1-2 mm bo'lib, sarkomerlardan tashkil topgan. Xar bir sarkomer Z-soha bilan chegaralangan. Sarkomerlarning uzunligi 2,0 mkm ni tashkil etadi. Miofibrillani ichki qismi sarkoplazma deb atalib, unda mitoxondriyalar va endoplazmatik to'r joylashgan. Sarkomer - bu muskulning asosiy harakatlantiruvchi strukturasi bo'lib, yug'on va ingichka tolalardan iborat. Ingichka tolalar aktin oqsilidan, yug'on tolalar miozin oqsilidan tashkil topgan. Miozin molekulasida funksional qismlar - "sharnir" mavjud. Bu molekulaning bir qismi yug'on tolaning tanasida va ikkinchi qismi uning tashqi tomonida joylashgan. Og'ir miozinda faol va aktin bog'lovchi markazlar bor. Muskul tolasi aktivatsiyalashganda SaQQ ingichka tolalarning boshqaruvi kompleksi bilan birikadi va natijada bu tolalarning faol markazi ochilib miozinning ko'priklchalari shu faol markazlari bilan birikadi. Yug'on tolalarning strukturasi o'zgarmay ko'priklchalari ingichka tolaning faol markazlari bilan birikadi. Tinch holatda yug'on tolaga nisbatan perpendikulyar joylashgan ko'priklchalar qisqarish vaqtida ma'lum burchakda egiladi. Ko'priklchalarining egilishi bilan ingichka tola siljiydi. Qisqarishda yug'on va ingichka tolalarning bir – biriga nisbatan harakatlanadi.

2. Mushaklar mexanikasi

Hamma sarkomerlarda miozin iplarni aktin iplar bilan birlashtirib turadigan ko'ndalang ko'priklchalar bor. Muskul tolasi qisqarganda miozin va aktin iplar kaltalashmaydi, aktin iplari miozin iplari orasiga sirpanib kiradi, natijada disklar kaltalashadi, A disklarning uzunligi o'zgarmaydi.

Miozin iplari shoxlanib, xar qaysisi taxminan 150 miozin molekulasidan tashkil topgan ko'p boshchalarini hosil qiladi. Bu boshchalar miozin ipning o'simtasi bo'lib, uni aktin iplar bilan bog'lab turadi. Kundalang ko'priklchalarining boshchalar eshkaksimon harakat qilib, aktin iplarni miozin oraligiga siljitadi. Ko'priklchalar harakatlarining amplitudasi 20 nm, chastotasi sekundiga 5-50 tebranishdan iborat. Ko'priklchalar asinxron ravishda harakatlansada, ular juda ko'p bo'lganidan vujudga keladigan tortish kuchi qisqarish davomida bir me'yorda saqlanadi.

Tinch holatda ko'priklcha energiyaga boyiydi, lekin aktin ipi bilan birika olmaydi, ular o'rtasida joylashgan troponin oqsili bilan birikkan tropomiozin ipi bunga xalaqit beradi. Muskul faollashganda uning mioplazmasida erkin SaQQ ionlari paydo bo'ladi. Troponin kaltsiy bilan birikib, o'z konformatsiyasini o'zgartiradi va tropomiozin ipini surib, kundalang ko'priklchalarining aktin iplari bilan birikishiga

imkoniyat tug'diradi. Birikish natijasida ko'prikchaning konformatsiyasi keskin o'zgaradi, uning boshchasi egiladi, aktin ipi 20 nm suriladi. Bu harakat uchun sarflangan energiya fosforillangan aktomiozin tarkibidagi makroergik fosfat bog'lanish hisobidan ajraladi. ATF-aza aktivligiga ega bo'lgan aktomiozin makroergik fosfatlar parchalanishini ta'minlaydi.

Bundan keyin aktin va miozin iplar atrofida SaQQ miqdori kamayishi tufayli tropomiozin troponindan ajraladi va ko'ndalang ko'prikcha bilan aktin ipi o'rtaida yana to'siq bo'lib qoladi. Miozin ATF hisobiga fosforolanadi. ATF fakat miozinni energiyaga boyitish uchun emas, balki iplarni bir-biridan vaqtincha ajratish uchun zarur bo'lgan modda. Bu ajralish muskulni yumshatib, cho'zilishiga imkoniyat tug'diradi.

Qisqarish uchun zarur bo'lgan CaQQ ionlari muskulning tinch holatida sarkoplazmatik retikulumda saqlanadi. Bunda retikulum membranasining kaltsiy uchun o'tkazuvchanligi past, oz miqdorda mioplazmaga chiqqan ionlarni kaltsiy nasosi sarkoplazmatik retikulum ichiga xaydab, u erda kaltsiy kontsentratsiyasi yuqori bo'lishini saqlab turadi. Sarkoplazmatik retikulum bo'shlig'ida kaltsiy ionlari kontsentratsiyasi sarkoplazmadagiga nisbatan yuqori bo'lib, sarkoplazmatik retikulum membranasining faollanishi undagi kaltsiy kanallarining ochilishiga va kontsentratsion gradient bo'yicha kaltsiyning aktin va miozin iplar atrofiga chiqishiga olib keladi. Retikulum membranasini faollanishi uchun muskul tolasining tashqi membranasida vujudga kelgan qo'zg'alish T- sistema orqali sarkoplazmatik retikulum membranasiga tarqalishi kerak. T- sistema tashqi membrananing sarkomer ichiga botib kirgan qismi hisoblanadi. Ko'ndalang naychaning diametri 50 nm. Umurtqali hayvonlarning muskul tolalarida bu naychalar disklar sohasida miofibrillalarga yaqinlashadi.

Ko'ndalang naychalarga perpendikulyar bo'lib, miofibrillalarga parallel holda uzunchoq naychalar joylashgan. Uzunchoq naychalarning ikki uchi kengayib, tsisternalar hosil qiladi. Ko'ndalang naycha va ikki tarafdag'i tsisternalar uchliklarga birlashgan.

Nerv tolesi orqali muskul tolasiga etib kelgan impuls tashqi membranada harakat potentsialini vujudga keltiradi, bu potentsial kundalang naycha orqali tarqalib, tsisterna membranasini faollashtiradi va kaltsiy ionlarining chiqib, aktin va miozin iplar atrofida ko'payishiga olib keladi va qisqarish mexanizmini ishga tushiradi.

Muskul qisqarishini ta'minlovchi jarayonlar quyidagilardan iborat:

- ta'sirlanish, harakat potentsialining vujudga kelishi, uning miofibrilla ichkarisiga o'tkazilishi,
- kaltsiy ionlarining chiqishi va aktin va miozin iplar atrofiga diffuziyalanishi,
- aktin iplarining miozin iplar oraligiga sirpanishi va sarkomerning kaltalashishi,
- kaltsiy kanallarning faollashishi va erkin kaltsiy kontsentratsiyasini kamayishi,
- miofibrillalarning bo'shashishi.

Bo'shashgan muskul tolesi sarkomerining uzunligi 3,6 mkm, tola qisqarganda 2,0 - 2,2 mkm ni tashkil qiladi.

3.Harakatning nomushak shakllari

Hujayralar harakatchanligining nomushak shakllarida aktin va miozin oqsilining hujayralar tarkibiga kirib, ularning harakatlanishini – trombotsit, leykotsit, fibroblastlar va shu kabi hujayralarning amyobasimon harakatini; shuningdek hujayra ichida amalga oshadigan harakatlarni, masalan xromosomalarining tarqalishi, endotsitoz, ekzotsitoz, epitelial kiprikchalar, mikrovorsinkalar harakatlarini ta'minlab turadi.

Muskul hujayralardan farq qilib, bu hujayralarda miozinning nisbiy miqdori kam bo'ladi, ba'zilarida faqat aktin oqsili mavjud bo'lib, faol harakatga ega hujayralarda, masalan trombotsitlarda aktin tsitoplazma umumiy oqsillarining 20-30 % ini tashkil etadi. Nomushak harakat shakllarida tubulin oqsili ham ishtirok etishi qayd etilgan.

Nazorat uchun savollar

1. Qisqaruvchan tizimlar qanday tuzilgan?
2. Muskul tolasi qanday strukturaga ega?
3. Qisqaruvchan tizimning qisqarish mexanizmi?
4. Harakat mexanizmi haqida tushuncha.

Mavzuga oid adabiyotlar:

Asosiy adabiyotlar:

1. Қосимов М.М. Назарий биофизика асослари. Тошкент, Университет, 2006, 220 б.
2. Remizov A.N. Tibbiy va biologik fizika. Toshkent. Ibn-Sino nashriyoti, 2006.
3. Рубин А.Б. Биофизика. Учебник в 2 х книгах. М., Высшая школа, 2000. 1т. – 448 б. 2т. - 467 б.
4. Антонов В.Ф., Черныш А.М., Пасечник В.И., Вознесенский С.А., Козлова Е.К. Биофизика, Владос, 2000. 287 б.

11-MAVZU: FOTOBIOLOGIYA MUAMMOLARI

Reja


1. Yorug'likning makromolekulalar bilan o'zaro ta'sirlashuvi.
2. Fotoqo'zg'aluvchanlik energiyasidan foydalanish yullari.

1.Yorug'likning makromolekulalar bilan o'zaro ta'sirlashuvi.

Fotobiologiya biologik sistemalarga nur kvanti - hv va ultrabinafsha nurlar ta'sirining molekulyar mexanizmlarini o'rganadi. Bu jarayonlar asosida fotokimyoviy reaksiyalar yotib, nur kvantining yutilishi bilan boshlanuvchi va turli xil yakuniy biokimyoviy, fiziologik va umumbiologik effektlar bilan tugallanuvchi murakkab zanjir holidagi reaksiyalar kompleksidan iborat. Fotobiologik jarayonlarda umumiy holda muhim biologik birikmalar sintezlanadi. Bunday jarayonlar yuksak o'simliklar, ba'zi bakteriyalar va suv o'tlarida kechuvchi fotosintez misol bo'ladi. O'simliklarda fotosintez yuqori darajada ixtisoslashgan strukturalar- xloroplastlarda amalga oshadi.

Fotobiologik jarayonlarga fotosintezdan tashqari nur kvanti holida olingan informatsiya ta'sirida kelib chiquvchi biologik ritmlar xam organizmlar hayotida muhim ahamiyatga ega. Fotobiologiya shuningdek, ultrabinafsha nurlar ta'sirida tirik sistemalarda yuz beradigan buzilishlarning molekulyar mexanizmlarini ham o'rganadi. Yirik portsiya holida nur kvanti yoki qisqa to'lqin uzunligidagi ultrabinafsha nurlar tirik organizmda nuklein kislotalar, oqsillar kabi muhim genetik-informatsion, struktura va fermentativ funksiyalarga ega bo'lgan makromolekulalarga ta'sir etib, turli xil mutatsiyalar va jiddiy funksional izdan chiqishlarni keltirib chiqaradi.

Ultrabinafsha nurlar organizm ning genetik sistemasida nuklein kislotalar DNK sida komplementarlikni buzish xususiyatiga ega. Fotobiologiya ultrabinafsha va ko'rinvchi nurlar energiyasining yutilishi evaziga biomolekulalarda sodir bo'ladigan elektronli qo'zg'alish holatlari va ularga bog'liq holda amalga oshadigan fotofizikaviy hamda fotokimyoiy o'zgarishlarni o'rganish bilan cheklanadi. Nur kvanti molekula yoki atomga yutilganda tashqi pag'onadagi elektronlar qo'zg'algan holatga kelib, S_1 – singlet holatdan S^* - singlet holatga o'tadi va buni quyidagicha ifodalash mumkin:



Bunda $S^* \rightarrow S_0$ holat nur kvanti holida yutilgan energiyaning bir qismi **fluoresentsiya** ko'rinishida sochilishini ifodalaydi va bu 10^{-8} - 10^{-9} sek davom etadi.

Elektron qo'zg'alishi asosiy energiyasi keyingi zanjiriylar jarayonlarga uzatilib, kimyoviy bog'lar energiyasiga aylantiriladi. $T_1 \rightarrow S_0$ holatdagi o'tish **fosforetsentsiya** deyiladi. Flouretsentsiya spektrining shakli (Kashi qoidasi) va kvant chiqishi (Vavilov qonuni) qo'zg'atuvchi nur to'lqin uzunligiga bog'liq bo'lmaydi. Chunki flouretsentsiya nurlanishi har doim qo'zg'algan holatning eng past satxidan boshlanadi va quyidagicha ifodalanadi:

$$q = n / N$$

Bu erda q – kvant chiqishi, n – chiqariladigan kvantlar soni, N – yutilgan kvantlar soni.

Stoks qonuniga ko'ra, flouretsentsiya maksimumi molekula yutish maksimumiga nisbatan uzunroq to'lqin sohasida bo'ladi. Chunki yutilgan energiya bir qismi issiqlikka aylanadi.

Energiya migratsiyasi qo'zg'algan molekulalarning S_1 , T_1 satxlarida amalga oshib, nurlanishsiz- B va kinetik to'qnashuvlarsiz –C, issiqlikka aylanmasdan uzatishlardan iborat bo'lib, umumiy tarzda quyidagicha ifodalanadi:



Bu jarayon molekula ichida yoki molekulalararo kechadi. B va C uzatishning **aylanma-rezonans yo'lida** energiya jixatidan farqlanuvchi elektronlar almashinadi.

Induktiv rezonans yo'lida esa molekulalararo masofa ancha katta (2-10 nm) holatda qo'zg'algan B* va C molekulalarning rezonansli ta'sirlashishi amalga oshadi.

Eksiston yo'li kristall strukturalarda uchrab, qo'zg'algan elektronning boshqa molekulaga o'tishida fazoviy yaqin molekulalar guruhining birgalikda qo'zg'alishi ro'y beradi.

Qo'zg'algan molekula reaktsiyaga oson kirishib, ushbu reaktsiyalar quyidagicha guruhlanadi:

1. **Fotoluminisentsiya**
2. **Fotooksidlanish**
3. **Qayta guruhlanish va izomerlanish**
4. **Fotokimyovmy parchalanish.**

Yorug'lik oqimining yutilishi Buger- Lambert qonuni (bir jinsli rangli muhitning o'zgarmas qalinlikka ega har bir yupqa qatlami undan o'tadigan monoxromatik nuring faqat ma'lum bir qisminigina yutadi) va Ber qonuni (Berilgan yupqa qatlam tomonidan yutiladigan nur intensivligi yutuvchi molekulalar kontsentratsiyasiga proportsional) asosida boradi. Ushbu qonunlarning yig'indisi quyidagicha ifodalanib, **Buger- Lambert- Ber qonuni** deb ataladi:

$$\Delta I / I = E c \Delta x$$

Bu erda, E – yutilish koeffitsenti, S – kontsentratsiya, Δx – yutuvchi qatlam qalinligi

Agar Δx – yutuvchi qatlam qalinligi q 1 deb olinsa,

$$\ln I / I_0 = -E c l \text{ ёки } I / I_0 = 1 - E c l = T$$

Bu erda I / I_0 - nisbat yutuvchi qatlamdan o'tgan nur intensivligi I ning yutuvchi qatlama tushgan nur intensivligi I_0 ga bo'lgan nisbati – o'tkazuvchanligi (T):

$$E \cdot c l = \lg I / I_0 = T$$

D – optik zichlik deb ataladi.

Energiya nuqtai nazardan, fotobiologik reaktsiyalar ikki gruppaga bo'linadi: fotobiologik reaktsiyalar natijasida yorug'lik energiyasi maxsulotlarda to'plansa, bunday reaktsiyalar **endergonik**; energiya reaktsiyaning aktivlanish tusig'ini engishga sarf etilsa, bunday reaktsiyalar **ekzergonik** reaktsiyalar deyiladi.

Biologik nuqtai nazardan esa, fotobiologik reaktsiyalar **funktsional – fiziologik** hamda **destruktiv - modifikatsion** reaktsiyalarga bo'linadi.

Funktsional - fiziologik reaktsiyalar ko'rinvchi nur ta'sirida amalga oshadi:

- a) energetik reaktsiyalar (otosintez, fotofosforlanish)
- b) informatsion reaktsiyalar (fotoreseptsiya, fototropizm, fotomorfogeneza, fotoperiodizm)
- v) biosintetik reaktsiyalar (xlorofill biosintezi, pigment va vitaminlar sintezining induktsiyalanishi) ga bo'linadi.

Destruktiv - modifikatsion reaktsiyalar asosan ultrabinafsha nur ta'sirida amalga oshadigan reaktsiyalar hisoblanadi :

- a) xalokatga (mikroorganizmlar va sodda hayvonlarning nurdan zararlanishiga olib keladigan reaktsiyalar
- b) mutatsiyaga (nurning genetik apparatga ta'siri natijasida kelib chiqadigan o'zgarishlarga) sabab bo'lувchi reaktsiyalar
- v) patofiziologik reaktsiyalarni o'z ichiga oladi.

Funktional - fiziologik reaktsiyalar hujayraning hayotiy muhim makromolekulyar va molekulyar darajalarida zararlanishlarning yuz bermasligi bilan xarakterlanadi.

Ikkinci xil reaktsiyalarda nur substrat molekulasini zararlab, normal fiziologik holatga xarakterli bo'lмаган toximiyaviy reaktsiyalar kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Bunday reaktsiyalar ultrabinafsha nur ta'sirida yuzaga keladi. Lekin ko'rinvchi nur ham, fotodinamik effekt sharoitida yoki katta intensivlikka ega nur (lazer) shu xil oqibatlarga sabab bo'ladi.

Fotobiologik reaktsiyalar quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- Fotofizikaviy bosqich (yorug'likning yutilishi, elektronli-qo'zg'algan holatning
- sodir bo'lishi, energiyaning molekula ichida qayta taqsimlanishi)
- Birlamchi toximiyaviy bosqich (dastlabki fotomaxsulotning hosil bo'lishi)
- Ikkilamchi toximiyaviy bosqich (birlamchi fotomaxsulotning barqaror
- maxsulotlarga aylanishi)
- Qorong'ida o'zgarish bosqichi (barqaror maxsulotlarning navbatdagi o'zgarishi)
- Oxirgi biologik makroeffekt


Fotobiologik reaktsiyalar qanchalik xilma-xil bo'lmasin, ularning hammasi asosiy mexanizmlari jihatidan ichki umumiylukka ega bo'lib, tirik organizmlarning hayot faoliyatlarida o'z ifodasini topadi.

Fotosintez - Yuksak o'simliklar, suv o'tlari va ba'zi bir bakteriyalar tomonidan, yorug'lik energiyasi ishtirokida, organik moddalarning hosil qilinishi jarayonidir.

Fotosintezning birlamchi bosqichi , energiya transformatsiyasining uch pag'onasini o'z ichiga oladi:

- yorug'likning fotosintetik pigmentlar tomonidan yutilishi va elektronli-qo'zg'alish energiyasining fotosintez reaktsiya markaziga migratsiyalanishi,
- reaktsiya markazida zaryadlarning dastlabki taqsimlanishi va energiya transformatsiyasi,
- elektronning elektron-transport zanjiri bo'y lab tashilishi, CO_2 fiksatsiyalanishi qorong'ulik bosqichlari va maxsulotlar sintezida ishlataladigan barqaror maxsulotlar (NADF, ATF) ning paydo bo'lishi.

Birlamchi fotosintetik jarayonlarning barchasi oksidlanish-qaytarilish reaktsiyasi tabiatiga ega bo'lib, bunda e-donordan (H_2O) aktseptorga (CO_2 va boshqa) uzatiladi va qaytarilgan birikmalar (uglevodlar) hamda kislород hosil bo'ladi. Fotosintezning umumiy yig'indi tenglama ko'rinishi quyidagicha ifodalanadi:



Bunda I.Yorug'lik fazasi quyidagicha kechadi:

Foton xlorofill molekulasini qo'zg'ab, e-orbitaldan uzilib tashuvchi bilan membrana ikkinchi tomoniga o'tkaziladi. Xlorofill e- o'mini H_2O xisobidan to'ldiradi. Bunda proton va O_2 xosil bo'lib, O_2 chiqarib yuboriladi. H esa membrana ichida to'planib boradi. Proton potentsiali kritik nuqtaga chiqqanda ATF –sintetaza ishga tushib, proton kanal orqali tashiladiva e- bilan birikib atomar H va ATF xosil bo'ladi.

II. Qorong'ilik fazasi xloroplastda amalga oshadi va umumiy ko'rinishda quyidagicha ifodalanadi:



Fotosintez - erkin energiyaning tashqi manba hisobiga to'planishiga olib keladigan, o'simliklar va barcha geterotrof organizmlar mavjudligini ta'minlovchi yagona biologik jarayondir. Fotosintez natijasida, o'simliklar har yili $4*107$ t organik modda sintezlab, 200 mlrd tonna erkin O_2 ajralib chiqadi. Fotosintez atmosferada CO_2 kontsentratsiyasining oshib "parnik effektini" keltirib chiqarishiga to'sqinlik qiladi.

Fotosintez maxsulotlarida mujassamlangan erkin energiya, insoniyatning energiyaga bo'lgan extiyojini ta'minlovchi asosiy manbadir. Fotosintezda boshlang'ich fotofizikaviy hamda fotoximiya viy bosqichlarning yuksak (taxminan 95%) effektivligiga qaramay, quyosh energiyasining hosliga o'tadigan qismi 1-2 % dan oshmaydi. Bunday past effektivlik- yorug'likning to'la yutilmasligi hamda bioximiya viy va fiziologik darajalarda mavjud cheklanishlar bilan shartlangan.

2.Fotoqo'zg'aluvchanlik energiyasidan foydalanish yo'llari.

Fototaksis (taxis - joylanish) - taksis hodisalarining bir turi bo'lib (termo-, xemo-, gidrotaksis va xokazo), erkin holatdagи biologik ob'ektning yorug'lik ta'siridan kelib chiqadigan, muayyan yo'nalishli harakatidan iborat. Boshqa xil taksislar singari, fototaksislар ham ob'ektning yorug'lik manbai tomon (ijobiy) yoki unga teskari (salbiy) yunalishdagi harakatini belgilovchi topotaksislар hamda maydon yoritilganligiga javoban ob'ektning siljishini belgilovchi fototaksislarga bo'linadi.

Fototaksislар sodda hayvonlar, chuvalchanglar, bakteriyalar, suv utlari hamda ba'zi bir hujayra ichidagi organoidlar uchun xarakterlidir.

Topotaksis suv o'ti hu jayrasi, retseptor orqali o'tgan yorug'lik intensivligi gradientining o'zgarishiga qarab, yorug'likka nisbatan zarur yo'nalishni tanlab olishidir.

Fototaksis ta'sir spektrlarini o'rganish orqali qayd etilganki, xlorofill, fikotsianin va fikoeritrin - suv o'tlari hamda sodda hayvonlarda, bakterioxlorofill - bakteriyalarda, fitoxrom - xloroplastlarda fototaksisi ta'minlovchi pigmentlardir. Ko'p xollarda shu xildagi pigment sifatida xromoproteid ishlaydi. Muayyan bir organizmning fototaksisi, xar xil pigmentlar ishtiroki bilan shartlangan ham bo'lishi mumkin. Fototaksik javob birlamchi fotoximiya viy maxsulotlar fotooksidlanish

reaktsiyasining natijasida emas, balki ATF-aza aktivligining oshirilishi natijasida amalga oshadi. Fototaksis fotosintez bilan aloqador hisoblanadi.

Fotokinez - fototaksisiga yaqin hodisa bo'lib, u yorug'lik ta'sirida kelib chiqadigan biologik ob'ekt harakatchanligining - yorug'lik manbai yunalishiga bog'liq bo'limgan holda boshqarilishidan iborat. Fotokinezda xlorofill, fikotsianin, karotinoidlar yorug'lik aktseptori vazifasini bajaradi. Fotosintetik reaktsiyalar – bir necha minut davom etadigan latent davr bilan xarakterlanganligi uchun uning kuchaytirgich mexanizmi inertsiyaga ega deb tushuniladi. Qutblangan nuring qutblanmagan nurga nisbatan anchagina effektiv ta'sirga ega bo'lishi, xromoforlar fazoviy orientatsiyalanganligining muhim ekanligidan darak beradi.

Fototropizm - fotoretseptsiya hodisasiga mansub bo'lib, biologik ob'ekt qismlarining yorug'lik manbai tomon yoki unga teskari yunalishdagi harakatini belgilaydi. Fototropizm oliy va tuban darajali o'simliklarda, zamburug'lar hamda o'troq hayot kechiradigan suv o'tlarida kuzatilib, o'sayotgan organizmning yoritilgan tomonlaridagi hujayralar bo'linish tezliklari va kattaliklarining oshishidagi farqlar orqali amalga oshadi.

Yuksak o'simliklarda sodir bo'ladigan fototrop reaktsiyalarning ko'rinvchi nur intensivligiga bog'liqligi juda murakkab bo'lib, qoida ko'ra, organlarning o'sayotgan joyida o'z aksini topadi. Odatda, o'simlik tanasi ijobiy, ildizlari esa salbiy fototropizm nomoyon etadi.. Yuksak o'simliklarda bir necha fotoretseptor sistemalar mavjud bo'lsa, fikomitsetlarda fototropizmga faqat bitta fotoretseptor sistema javobgar bo'ladi. Fototrop javoblarda, biologik aktiv yorug'likning yutilishiga flavin pigmentlari yoki fitoxrom javobgar bo'ladi. Flavinli pigmentlarda fototropizmga oid fotoximiyyaviy reaktsiya tripletli satxlar ishtirokida, bir kvantli mexanizmga asosan amalga oshadi.

Yorug'likning fototrop ta'siri, membrana o'tkazuvchanligining o'zgarishi bilan shartlanadigan, auksinlar yon gradientining vujudga kelishi orqali amalga oshadi.

Polyarotropizm ham fototropizmning bir xili bo'lib, mox va paparotniklarda qayd etilgan bo'lib, sporalarning chiziqli qutblangan nur tekisligiga nisbatan 90^0 burchak ostida orientatsiyalishlari bilan xarakterlanadi. Ma'lumki, polyarotropizm fotoretseptor pigmentlarning fazoviy tartiblangan orientatsiyasiga bog'liq bo'lib, flavinlar ana shu xildagi rolga ega.

Nazorat uchun savollar

1. Fotobiologik reaktsiyalar qanday amalga oshadi?
2. Fotosintezening biologik ahamiyati.
3. Fotobiologik reaktsiyalar qanday bosqichlar orqali amalga oshadi?
4. Fototaksis, fotokinez va fototropizmning tirik organizm uchun ahamiyati.

Mavzuga oid adabiyotlar:

Asosiy adabiyotlar:

1. Қосимов М.М. Назарий биофизика асослари. Тошкент, Университет, 2006, 220 б.
2. Remizov A.N. Tibbiy va biologik fizika. Toshkent. Ibn-Sino nashriyoti, 2006.

3. Рубин А.Б. Биофизика. Учебник в 2 х книгах. М., Высшая школа, 2000. 1т. – 448 б. 2т. - 467 б.
4. Антонов В.Ф., Черныш А.М., Пасечник В.И., Вознесенский С.А., Козлова Е.К. Биофизика, Владос, 2000. 287 б.

12-MAVZU: HUJAYRAGA SIGNAL TRANSDUKTSIYA SISTEMASI HAQIDA ASOSIY MA'LUMOTLAR

Reja:

1. Retseptor molekulalarini strukturaviy-funksional tashkilish modeli.
2. Sitoretseptsiya tiplari
3. Retseptorlarning gormon-bog'lovchi xususiyatlari
4. Retseptorlarning ba'zi bir muxim fizik-kimyoviy xususiyatlari va ularning tuzilmasi xaqida ma'lumotlar
5. Turli kimyoviy tabiatli gormonlar retseptsiyasining modeli
6. Retseptorlarning fosfolirlanishi-defosfolirlanishi jarayonlari muammolari
7. Yuqumli kasalliklar patogenezida adenilattsiklaza sistemasining ishtiroki
8. G – oqsillar
9. Adenilattsiklaza va sAMR

Tayanch so'z va iboralar: retseptor molekulalari, sitoretseptsiya, gormonlar, Stoks radiusi, proteaza ingibitorlari, yadro retseptorlari, mitochondrial retseptorlar, sitozol retseptorlari, peptid gormonlar va katekolaminlar, xromatin aktseptor, adenilattsiklaza mexanizmi, kaltsiy mexanizmi, proteaza mexanizmi, desensibilizatsiya mexanizmi, retseptorlarning fosfolirlanishi-defosfolirlanishi jarayonlari, G – oqsillar.

1. Retseptor molekulalarini strukturaviy-funksional tashkilish modeli.

Hujayralarga gormonlarni fiziologik ta'sirini kalitli bosqichi biomaksus oqsil-retseptor bilan spontan va qaytar kompleks xosil qilishi xisoblanadi.

Agar hujayrada retseptor yo'q bo'lsa, gormon unga ta'sir ko'rsata olmaydi. Bu, retseptor gormonli signallarni qabul qilish intensivligi, o'tkazuvchanligi va amalga oshirishi ta'minlab beradigan endokrin faoliyatga zarur bo'lgan periferiyadagi muxim soxasi ekanligidan darak beradi. Hujayraning retseptori – metabolizmning hujayra ichidagi boshqaruvchisi, gormonlar esa – ularning hujayraning tashqarisidagi allosterik effektorlari. Butun organizmning gormonlari – hujayra tashqarisidagi tizimli signallari, retseptorlar esa – gormon samarasini bilib oladigan vositachi.

Har xil gormonlarni retseptorlarining oqsillarini strukturasini va xususiyatlarini o'rganish natijasida retseptor molekulasi umumiy fenomenologik modeli yaratilgan (1 – rasm). Retseptor molekulasi bir-biridan ma'lum masofada joylashgan uchta asosiy dinamik bir-biriga bog'liq bo'lgan vazifani amalga oshiradigan uchta asosiy lokusdan tashkil topgan: 1) maxsus va qaytar bog'lanuvchi gormonni diskret lokus bilan gormon signalini tanlab qabul qiladigan; 2) gormon ta'sirini boshqarishni rag'batlantiradigan va natijada xar xil hujayraning aktseptor

strukturalari (aloxida ijobi etuvchi soxa yoki retseptor molekulasini soxasi) tanlab gormon-retseptor kompleksni xamkorligini amalga oshiradigan; 3) tashqaridagi gormondan qabul qilingan signalni, hujayra ichidagi retseptor molekulasini birlamchi konformatsion qayta qo'rilishi (oldingi ikki ichki molekula bog'lanish soxalari orqali amalga oshiradi) natijasida xosil bo'lган yangi signalga o'tkazilishi (transduktsiya). Boshqacha qilib aytganda, retseptor – determinantlari asimmetrik joylagan yagona funktional birlikdir, ulardan biri gormonni bog'lab oladi, boshqasi (boshqalari) hujayraning aktseptori bilan tanlab bog'lanadi va biologik samarani rag'batlantiradi.

2. Sitoretseptsiya tiplari

Retseptorlarni hujayrada joylashishi bo'yicha, aktseptor joyi va gormonlarni tsitoretseptsiyasi samarasini rag'batlantirish xususiyatlariga qarab ularni ikki asosiy tipga bo'lish mumkin: 1) hujayra ichidagi, streoid va tireoid gormonlarni xar xil variantda retseptirlanishi bo'yicha; 2) yuzadagi (membranali), oqsil va peptid gormonlari, katekolaminlar, xamda amaliy jixatdan barcha gistogormonlar va neyromediatorlarni retseptirlanishi bo'yicha. Birinchisi bo'yicha gormon hujayraning plazmatik membranasidan nisbatan erkin sizib o'tadi, u erda retseptor (tsitozoldagi, yadrodag'i va boshqalardagi) bilan xamkorikda ta'sir ko'rsatadi va birinchi bosqichda o'zining ta'siri uchun hujayraning ichida mediatorlarni xosil bo'lishini talab qilmaydi. Bunda yadroda joylashgan gormon-retseptor komplekslar uchun eng muxim aktseptor saytlar, bu erda ularning eng muxim tipik samarasini enzimlarning va boshqa oqsillarning sintezi bilan bog'liq va vaqtning o'tishi bilan oxistalik bilan rivojlanadi. Tsitozolning retseptorlaridan ma'lum bir qismi xromatin, lizosoma, plazmatik va yadro membranalari bilan, xamda tsitoskelet elementlari bilan bog'lanishi xam extimoldan xoli emas.

Ikkinchisi bo'yicha gormon, qoida bo'yicha plazmatik membranada joylashgan retseptor bilan bog'lanadi. Retseptsiyaning birinchi etapida hujayraning ichidagi mediatorlarni membrana aktseptor strukturalari bilan gormon-retseptor komplekslarini xamkorlikdagi ta'siri natijasida gormonning samarasini hujayra ichida amalga oshgani bilan, ular hujayraga qiyinchilik bilan kiradi. Ana shunday membrana aktseptorlari adenilattsklaza, noelektrogen kaltsiy kanallari va maxsus proteazalar xisoblansa, hujayra ichidagi mediatorlar – tsAMF, kaltsiy, maxsus glikopeptidlar xisoblanadi. Yuzada ta'sir ko'rsatadigan gormonlarning ta'sirini o'ziga xos xususiyati, avvaldan sintezlangan strukturaviy oqsillarning funktsiyalarini faollashuvi bilan bog'liq nisbatan tez samara beradi (2 rasm).

Bu bayon etilgan ikki tip retseptsiya, bir-biridan sezilarli farq qilgani bilan, gormon signalini qabul qilish mexanizmi umuman olganda umumiyligini qonuniyatlarga mos keladi. Keyinchalik bu ikki tip retseptsiya yo'llari bir-biridan farq qiladi, ammo jarayon umumiyligini sxemaga bo'yicha amalga oshadi.

3. Retseptorlarning gormon-bog'lovchi xususiyatlari

Gormonlarning spetsifik nokovalent bog'lanishi – ular retseptsiyasi ishga tushiradigan mexanizmidir. Ta'kidlash zarurki xozirgi paytgacha spetsifik bog'lanadigan ligand tajribalarda xujayraning biospetsifik molekulasi sifatida retseptorning asosiy indikatori bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun retseptorning asosiy xossalaring bilish xam nazariy, xam amaliy axamiyatga ega. Retseptor molekulasining maxsus lokusi tomonidan amalga oshiriladigan asosiy gormon bog'lovchi xossalariiga quyidagilar kiradi: a) gormonlarga yuqori darajada o'xshashlik, b) o'xshashlikning tanlash xususiyati, va v) cheklangan xajm. Ko'rsatib

o'tilgan xossalardan farqli qilib qo'yadi.

Gormonlar bilan o'xshashlikning yuqori darajasi ular assotsiatsiyasining 0° S da $10^7\text{-}10^{10}\text{ M}^{-1}$ ga teng konstanta qiymati bilan belgilanadi. Bu kompleks xosil bo'lishi erkin energiyasi darajasini (-8) $\text{-}(-13)$ kkalG'mol aks ettiradi. O'z navbatida assotsiatsiya konstantasi assotsiatsiya ($K_{Q_1}q10^3\text{-}10^6\text{M}^{-1}\times\text{s}^{-1}$) va dissotsiatsiya ($K_{-1}q10^3\text{-}10^6\text{ M}^{-1}\times\text{s}^{-1}$) tezligining konstanta kattaligiga bog'liq. Retseptor oqsillaridan farq qilib, nospetsefik bog'lanuvchi oqsillar assotsiatsiya koefitsienti $10^3\text{-}10^5$ ga teng bo'lgan komplekslar xosil qiladi. Qizig'i steroid gormonlar retseptori uchun bu parametr qondagi ligandlar kontsentratsiyasiga teskari bog'liqdir. Shunday qilib, assotsiatsiyaning eng katta konstantasi estrogenlar retsetorlari (10^{10}M^{-1}), eng kichigi esa (10^8M^{-1}) glyukokortikoid retsetorlari uchun xosdir.

Gormonlarga o'xshashlikni tanlashning yuqori darajasi retseptorlar faqat muayyan guruxdagi tabiiy va sintetik gormonlar, shuningdek antigormonlarni bog'lash xususiyatiga egaligi bilan bog'liqdir. Xususan estrogenlar retseptorlari faqat estrogen va antiestrogen birikmalar bilan, progestinlarning retseptorlari faqat gestagenlar va ularning raqobatli antagonistlari bilan, insulin retseptorlari esa faqat insulin bilan o'zaro ta'sirlashadi. Ko'pchilik xollarda gormonning biologik faolligi assotsiatsiya konstantasi kattaligi bilan musbat, dissotsiatsiya konstantasi kattaligi bilan esa manfiy korrelyatsiyada bo'lishi ko'rsatilgan. Olingan ma'lumotlarga ko'ra retseptor bilan kovalent bog'langan gormon retseptor molekulasingin effektor lokuslarini ishga tushirishi mumkin. Nokovalent assotsiatsiyalanganlari esa odatda aktseptor uchastkalarini faollashtira olmaydi, bu esa ligandlarni bog'lanishini samarasiz qiladi. Aftidan gormon retseptor bilan samarali ta'sirlanishi uchun kompleks xosil bo'lishi erkin energiyasining etarlicha yuqori bo'sag'a kattaligi kerak bo'ladi. Bu kattalik assotsiatsiya kattaligiga mos kelib, $10^6\text{-}10^7\text{ M}^{-1}$ ga tengdir. Biroq bu energiyaning yuqori darajasi zarur bo'lsada u gormon-retseptor kompleksining gormonal samarasini ishga tushirish uchun etarli bo'lmaydi. Ba'zi bir gormonlarning ma'lum sintetik raqobatli antagonistlari retseptor bilan asosiy gormon-antagonistlarga nisbatan ko'proq bog'lanadi. Shu bilan birga bunday bunday antagonistlar gormonal samarani yuzaga chiqarmasdan, aksincha unga qarshilik qiladi. Extimol gormonal samarani amalga oshishi uchun gormon-retseptor ta'sirlashuvi erkin energiyasining yuqori darajasi gormon molekulasingi qandaydir tuzilmaviy xossalardan bilan birikishi zarur.

Aftidan retseptorni ligandlarga o'xshashligining tanlanishi gormonal signalning diskriminatsiyalangan qabul qilinishini belgilab beradi va shunday qilib gormonni xujayraga tanlab ta'sir qilishini ta'minlab beradi. Ko'pchilik retseptorlar muayyan gormonlarga nisbiy tanlab ta'sir qilish xossasiga egaligini esdan chiqarmaslik kerak. Masalan progestin retseptorlari androgenlar bilan kuchsiz bog'lanadi, androgen retseptorlari esa progestinlar bilan kuchsiz bog'lanadi. Extimol ligand spetsifikligining bunday nisbiyligi gormonlar antagonizmi liniyasi bo'yicha gormonlararo ta'sirlashuv uchun imkoniyatlар ochib berar.

Retseptorlarning cheklangan bog'lovchi xajmi ularning xujayra bilan bog'lanadigan joyini past kontsentratsiyasiga bog'liq. Odatda retseptor molekulasinga

bitta bog'lovchi joy to'g'ri keladi. Aftidan ikkita ma'lum xolda, ya'ni insulin retseptorlari va qushlar tuxum yo'llarining progesteron retseptorlarida retseptorning bitta molekulasiiga ikkita bog'lovchi joy to'g'ri keladi. Buni insulinni retseptor bilan o'zaro ta'sirlashuv jarayonidagi manfiy kooperativ samara bilan tushuntirish mumkin, bunda bog'lovchi joylar soni 10^{-15} — 10^{-11} molG'mg oqsilga yoki bitta xujayraga 500-30000 bog'g'a teng. Retseptorlarning cheklangan xajmi gormonni fiziologik yoki mo'tadil farmokologik kontsentratsiya doirasida ta'sir qilishini ta'minlaydi. Shu bilan birga fiziologik sharoitlarda xujayradagi retseptor molekulalarining kam ulushi gormon tomonidan egallab olinadi. Gormonning retseptor bilan qaytar, nokovalent kompleks xosil qilishi jarayoni massalar ta'siri qonuni asosida amalga oshgani uchun retseptorlarning ortiqcha kontsentratsiyasi eng avvalo gormon-retseptor ta'sirlashuvini yuqori tezligini ta'minlaydi.

4. Retseptorlarning ba'zi bir muxim fizik-kimyoviy xususiyatlari va ularning tuzilmasi xaqida ma'lumotlar

Retseptorlarning fizik-ximiyaviy xossalari va ularning bir qator tuziilmaviy xarakteristikalari birinchi marta tozalanmagan yoki qisman tozalangan preparatlarda olingan. Keyinchalik bu ma'lumotlar muayyan darajada retseptorlarning o'ta yuqori darajada tozalangan preparatlarida o'z isbotini topdi. Aniqlanishicha, retseptorlar – kislotali yirik molekulyar oligomer oqsillar bo'lib, xujayra ichi retseptorlari uchun ular oddiy, membrana retseptorlari uchun esa glikoproteinlar ekanligi ma'lum bo'ladi. Barcha retseptor oqsillar termolabil va og'ir agregatlar xosil qilishga moyil bo'ladi. Bu esa ularni tadqiq qilishni qiyinlashtiradi.

Ko'rsatilishicha, tsitoplazmatik va yadroli retseptorlar gidrofil, membrana retseptorlari esa asosan hidrofobdir. Transmembrana joylashgan yuza retseptorlarning hidrofob qismi qo'shqavatlari lipid membranasiga botib kirgan bo'ladi, ayni paytda esa gormon bilan bog'lanuvchi va funktsiya bajaruvchi uchastkasi suvli fazada joylashgan bo'ladi.

Membrana retseptor molekulasing gormon bilan va gormon-retseptor kompleksining aktseptor bilan o'zaro ta'siri tashqi xujayraviy suyuqlikning suvli fazasida va tsitozolda amalga oshadi deb xisoblanadi. Aftidan tireoid gormonlarning mitochondrial retseptorlari xaqida xam shunday fikrni bildirish mumkin. Membrana retseptorlari ularning fiziologik aktivligi saqlangan xolda lubrol RX yoki triton kabi detergentlar yordamida solyubillanishi (eruvchan qilish) mumkin.

Steroid gormonlarning retseptorlari. Steroid retseptorlarning strukturasini xozirgi paytda juda yaxshi o'r ganilgan. Bular nordon gidrofil, juda termolabil oqsillar bo'lib, ammoniy sulfat bilan 30-35% to'yintirilganda tuzlanishi mumkin. Ion kuchi past muxitda (KCl kontsentratsiyasi <0.3 M) turli steroid gormonlarning retseptorlari 6.5-9 S sedimentatsiya koeffitsientiga, 150-320 KD molekulyar massaga, 5-8.5 nm Stoks radiusiga va asimetrik formaga ega bo'ladi. Ion kuchi yuqori muxitda esa oligomerli retseptor oqsil (xoloretseptor) gormon bilan kompleksda yoki kompleks xosil qilmasdan 3.5-4 S-retseptorli subbirlikka (veroretseptor) va maxsus shakllantiruvchi omilga to'liq, biroq qaytar dissotsilanadi. Veroretseptor retseptor molekulasing barcha funktsional xossalari, xususan gormonni spetsifik bog'lash va xromatinni aktseptor joylariga yuqori darajada o'xshashlikni saqlab qoladi. Shu bilan birga 6.8 S-shakllantiruvchi omil murakkab oligomer oqsil bo'lib, estrogen

retseptorlari xolatida o'zaro qaytar bog'lanadigan A komponenti va oltita V komponentidan tashkil topadi. U gormon bog'lovchi faoliyka ega bo'lmasdan, xromatinga xam past o'xshashlikka ega. Ta'kidlash zarurki, shakllantiruvchi omilning subbirliklari varoretseptorga turli darajada o'xshashlikka ega. Shakllantiruvchi omil varoretseptorni yadro xromatini bilan ta'sirlashish qobiliyatiga nisbatan funktsiya bajarishi uchun regulyator vazifasini bajaradi. Ba'zi bir ma'lumotlarga ko'ra shakllantiruvchi omil bu o'zaro ta'sirni ingibirlasa, ba'zi bir ma'lumotlarga ko'ra stimullaydi.

Extimol turli steroid gormonlar retseptor oqsillarining tuzilmaviy tashkil topishi u yoki bu darajada bir-biriga o'xshash bo'lishi mumkin, umumiyligida qoidadan istisno xollar xam mavjud. Xususan suriya xomyagining ba'zi bir to'qimalaridagi androgen retseptorlar, aftidan varoretseptor va shakllantiruvchi omil xosil bo'lishi bilan dissotsilanmaydi va KCl kontsentratsiyasi 0.6 M ga oshirilganda xam 8 S sedimentatsiya koeffitsientini saqlab qoladi. Xaligacha tovuqlar tuxum yo'lining dimer progestin retseptorlarini funktsional-struktur tashkil topishi xaqidagi bilimlar to'liq emas.

Proteaza ingibitorlari xisoblangan leypeptin yoki antipain mavjudligida varoretseptorni yumshoq fermentativ gidroliz qilish yordamida retseptor subbirligi tuzilmasidan uning sretsifik gormon bog'lovchi xossalarni saqlab qolgan, biroq yadro xromatini bilan ta'sirlashish qobiliyatini yo'qotgan kichkina qismini ajratib olishga muvaffaq bo'lindi. Bu minimal uchastka, extimol retseptorning gormon bog'lovchi lokusiga aynan o'xshash bo'lib, "meroretseptor" sifatida belgilanadi. Uning sedimentatsiya koeffitsienti 2.5 Sga teng, Stoks radiusi esa 2.5 nm. Extimol, meroretseptor strukturasi bo'yicha geterogen bo'lishi mumkin (3 rasm).

Ko'pchilik mualliflar asosan xromatin bilan bog'langan steroid gormonlarning yadro retseptorlari yadroda ikkilamchi to'planib, tsitoplazmatik va mitoxondrial retseptor oqsillarining bir qancha mustaqil puli bilan namoyon bo'ladi. Tireoid gormonlar retseptorlari turli fraktsiyalarining umumiyligida xossalarning tiroksindan ko'ra ko'proq triyodtironinga (10-20 marta) o'xshashlidir. Extimol tiroksin nishon-xujayralarda retseptorlarning turli populyatsiyalari bilan komplekslar xosil qilishdan oldin asosan triyodtironinga aylanadi.

Tireoid gormonlarning retseptorlari. Katta miqdorda to'plangan mavjud ma'lumotlarga ko'ra bu retseptorlar turli xil yadro, tsitoplazmatik va mitoxondrial retseptor oqsillarining bir qancha mustaqil puli bilan namoyon bo'ladi. Tireoid gormonlar retseptorlari turli fraktsiyalarining umumiyligida xossalarning tiroksindan ko'ra ko'proq triyodtironinga (10-20 marta) o'xshashlidir. Extimol tiroksin nishon-xujayralarda retseptorlarning turli populyatsiyalari bilan komplekslar xosil qilishdan oldin asosan triyodtironinga aylanadi.

Yadro retseptorlari. Ma'lumki ular retseptorlar umumiyligida miqdorining 90% ni tashkil qiladi va ko'pchilik nishon-organlardagi bitta xujayraga 10^4 bog'lovchi joyni egallaydi. O'zining ximiyaviy tabiatiga ko'ra bu termolabil nordon nogiston oqsillari bo'lib, sedimentatsiya koeffitsienti 3 S, molekulyar massasi 50.5 kD, Stoks radiusi 3.5 nm; triyodtironin retseptorlarining in vivo tajribalardagi assotsiatsiya konstantasi $10^{11} M^{-1}$, in vitro tajribalarda esa 10^8 — $10^9 M^{-1}$ ni tashkil qiladi.

Mitoxondrial retseptorlar. Bu retseptorlar mitoxondriyalarning ichki membranalarida joylashgan bo'lib, faqat in vitro tajribalarida aniqlanadigan

termostabil lipoproteinlar xisoblanadi. O'zining bog'lovchi xossalariga ko'ra bu retseptorlar triyodtironinning yadro retseptorlariga yaqin turadi.

Sitzol retseptorlari. Ular termolabil kislotali oqsillar xisoblanib, molekulyar massasi 100 kD va assotsiatsiya konstantasi yadro retseptorlariga qaraganda 2-3 tartibga past bo'ladi. Shu sababli eutireoid xolatda retseptorlarning tsitoplazmatik fraktsiyalari bilan atigi 1% triyodtironinlar bog'langan bo'ladi. Bu retseptorlarning funksional roli noaniq, biroq u tireod gormonlarning yadroni retseptor oqsillari bilan aloqasini amalga oshiradi.

Plazmatik membranalarda tireoid gormonlarning mavjudligi xaqida ma'lumotlar bor, biroq ular bu retseptor oqsillarning fizik-ximiyaviy xossalarini to'liq ochib bera olmaydi.

Peptid gormonlar va katekolaminlarning membrana retseptorlari. Retseptorlaring bu turi xaligacha to'liq o'r ganilmagan va turli mualliflar tomonidan olingan ularning molekulyar xarakteristikalarini ko'pincha bir-biriga to'g'ri kelmaydi. Oxirgisi, aftidan solyubilizatsiyalangan preparatlarni ular bilan mustaxkam bog'langan membrana komponentlarini va qiyinchilik bilan yuviladigan detergenlardan tozalashni turli darajasi bilan, shuningdek ba'zi-bir xollarda retseptor molekulalarining agregatsiyalangan formalarini olish bilan bog'liq. Masalan lyutropin retseptorlarning molekulyar massasi 23-96 kD atrofida, glyukagon retseptorlariniki esa 23 dan 53 kD gacha bo'ladi.

Retseptorlarning molekulyar o'lchamlaridagi farqlar, extimol shu bilan bog'liq bo'lsa kerak. Ular sedimentatsiya koeffitsientining kattaligi 4 dan 8 Sgacha, molekulyar massasi 450 kD, Stoks radiusi esa 3 dan 7 nm gacha bo'ladi. Membrana retseptorlarining uchlamchi va to'rtlamchi strukturalari deyarli ta'riflanmagan, biroq ular oligomer oqsillar bo'lishi mumkin deb taxmin qilish mumkin. Masalan insulin retseptori molekulyar massasi 125 kD bo'lgan α -zanjirdan va molekulyar massasi 90 kD bo'lgan β -zanjirdan iborat bo'lib, ular bir-biri bilan disulfid ko'rikchalari orqali bog'langan.

Membrana retseptorlari odatda plazmatik membranaga asimetrik joylashadi. Ular molekulasingin tanib oluvchi fragmenti uning tashqi yuzasiga, xujayralararo bo'shliq tomonga yo'naladi. Aktseptor bilan ta'sirlashuvchi lokus qarama-qarshi tomonga, xujayra tsitoplazmasiga yo'nalgan bo'ladi. Bunday retseptorlarning qat'iy bir tomonga yo'nalganligi extimol xujayra ichiga tashqaridan kirib keluvchi gormonal axborot transmembrana oqimining vektorligi bilan bog'liq bo'lsa kerak. Bunday retseptorlarning membranada joylashuvining nisbiy qat'iyligiga qaramasdan ular baribir ko'ndalang va bo'ylama xarakatlarni amalga oshirishi mumkin va shu orqali retseptorni "qidirish" va gormon-retseptor kompleksining aktseptor joylari bilan o'zaro aloqalari engillashadi.

Biroq ba'zi-bir xollarda, masalan insulin retseptori misolida uning molekulalari membrana ichida unchalik mustaxkam o'r nashmagan bo'ladi va nafaqat lateral va "po'kaksimon", balki turli funksional qismlari bilan gox xujayradan tashqari, gox ichki xujayraviy bo'shliqqa yo'naladi. Mazkur xollarda qat'iy asimetriya va transmembrana joylashuvining yo'qligi ularning yuksak xarakatchanligi bilan kompensatsiyalanadi.

5. Turli kimyoviy tabiatli gormonlar retseptsiyasining modeli

Bu bo'limda xujayrada retseptorlar ishlashining asosiy mexanizmi ko'rib o'tiladi. Ilgari ta'kidlab o'tilganidek, retseptor apparatining faoliyati turli gormonlar uchun turlichadir.

Xozirgi paytda xilma-xil va ko'p sonli bioximiyaviy va tsitoximik ma'lumotlar asosida xujayra ichi va membrana retseptorlarining ishlash modeli yaratilgan.

Steroid gormonlar retseptsiya modeli. 4 rasmida steroid gormonlar retseptsiyasing umumiylfenomenologik modeli ko'rsatilgan. Bu modelga asosan xujayra tomonidan steroidlar retseptsiyasi bir nechta bosqichda amalga oshadi.

1. Qonning spetsifik transport oqsili bilan birikmagan steroid gormon (transkortin, sekssteroid bog'lovchi globulin, progesterin bog'lovchi oqsil va boshq.) plazmatik membrana orqali xujayra ichiga nisbatan erkin kirishi va tsitozolda muayyan retseptorlar bilan bog'lanishi mumkin. Tsitozol retseptorlarining birmuncha qismi plazmatik membrana va boshqa subxujayraviy fraktsiyalar bilan labil, ya'ni barqaror bog'langan bo'lishi xam mumkin. Notsitozol tsitoplazmatik fraktsiyalarda retseptorlarning o'ziga xos puli joylashgan bo'lishi xam extimoldan xoli emas. Ular tsitozol retseptor oqsillarining asosiy qismidan mustaqil ravishda funksiya bajaradi. retseptor molekulalarida gormon bog'langandan keyin konformatsion o'zgarishlar ro'y beradi.

2. Sitozolda xosil bo'lgan gormon-retseptor kompleks temperaturaning ko'tarilishi, ion kuchining oshishi, aralashma, gelfiltratsiya va boshqa bir qator omillar ta'sirida faollashishi mumkin va bunda kompleksning yadro xromatiniga, eng avvalo DNK ga o'xshashligi oshadi. Bu bosqich xujayrada spontan ravishda mikromolekulyar kompleksning qaytar dissotsiatsiyasi natijasida, extimol bir qator retseptorli makromolekulyar ingibitorlar dissotsiatsiyasi natijasida ro'y beradi. Retseptorning o'zi xam faollashishi mumkin. Biroq gormon u bilan bog'lanib, retseptor – ingibitor kompleksidagi muvozanatni ularning dissotsiatsiya jarayoni tomoniga suradi va shu bilan jarayon stabillashadi. Gormon-retseptor kompleksining ingibitor (lar) dan ajralishi retseptor molekulasining lizin va arginin qoldiqlarining musban zaryadi yuzasida qo'shimcha konformatsion qayta qurilishiga olib keladi. Buning oqibatida dastlabki kislotali oqsil funktional amfoter bo'lib qoladi, bu esa unga nafaqat polikationlar, balki polianionlar, xususan DNK bilan birikish imkonini beradi. Bunda molekula retseptorining zaryadi sezilarli o'zgarmaganligi kuzatildi, biroq zaryadning maxalliy o'zgarishi, bir tomonidan faollashgan retseptorlarning DEAE-tsellyuloza tipidagi polikationlarga o'xshashligini pasaytiradi. Boshqa tomonidan, ilgari ta'kidlab o'tilganidek faollashgan retseptorlar polianionlar, xususan DNK o'xshashligi ortadi. Shuningdek gormon-retseptor kompleksining ko'p omilli aktivatsiyasi nafaqat elektrostatik omillarga, balki tuzilmaviy o'zgarishlarga xam bog'liq bo'ladi. Komplekslarning tsitoplazmadan yadroga translokatsiyasi tezligini belgilovchi asosiy mexanizm, aftidan, ularning qaytar polifaktor aktivatsiyasi xisoblanadi.

3. Faollashgan gormon-retseptor kompleks xromatinga kuchli o'xshashligi natijasida xujayra yadrosiga erkin ko'chib o'tadi (translokatsiyalanadi). Bu jarayon odatda energiya oqimi, nuklein kislotalar va oqsillarning qo'shimcha sintezini talab qilmaydi, tsitoskelet elementlarining ishlashiga xam bog'liq emas. Vitamin V₆ va uning xosilalari, xususan piridoksalfosfat faollashib bo'lgan komplekslar

translokatsiyasini ingibirlaydi va shu bilanbir qatorda yadrodan retseporlarning chiqishiga zamin yaratadi. Extimol vitamin V₆ va uning xosilalari gormonlar retseptsiyasingiz fiziologik retseptorlari xisoblanar.

4. Xromatinda faollashgan gormon-retseptor kompleksi xromatinning aktseptor joylari bilan bog'lanib, o'zaro ta'sirlashadi va gormonlarning xar tomonlama ta'sirini indutsirlab, transkriptsiya jarayonlarini regulyatsiya qiladi.

Xromatin aktseptor joylarining tabiatini va u bilan gormon-retseptor kompleksining o'zaro ta'siri xaqidagi masala katta qiziqish uyg'otadi. Aniqlanishicha steroid-retseptorli komplekslar xromatinning deyarli barcha komponentlari, DNK, RNK, ba'zi bir kislotali va asos oqsillar bilan bog'lanishi mumkin. Oxirgi yillarda olingan ma'lumotlarga ko'ra gormon – retseptor kompleksi ta'sirlashuvida polikation xossalari va DNK strukturasining o'ziga xosligi ustunlik qiladi. Bunda DNK gormon-retseptor kompleksini xujayra yadrosiga translokatsiyasini ta'minlashi, xromatin tuzilmasining o'zgarishida, shuningdek transkriptsiya darajasining spetsifik o'zgarishini ta'minlashi mumkin. Oxirgisi aloxida axamiyatga ega, negaki transkriptsiya jarayoni steroid-retseptor kompleksining fiziologik ta'sirida asosiy xisoblanadi. Bu tomondan quyidagi ikkita fakt e'tiborimizni tortadi.

Birinchi fakt bir qator eksperimental modellarda olingan. Ularda sichqonlar sut bezi o'smasining MMTV virusi, tovuqlar tuxum yo'lining ovalbumin geni ishlatilgan va gen injenerligi metodi bilan tozalab olingan glyukokortikoidlar yoki progesteron yordamida genomda cheklangan miqdordagi aktseptor lokuslarining mavjudligi aniqlandi. Ular gormon-retseptor kompleks bilan tanlab ta'sirlashish qobiliyatiga ega. Bunday klonlangan lokuslar gormonga bog'liq mRNA kodlovchi genomning reguliyator uchastkalarida joylashgan. Spetsifik nukleotid ketma-ketliklar gormon-retseptor komplekslarni assotsiatsiya tezligidan uncha katta bo'limgan tezlikda bog'laydi.

Yana aniqlanishicha ko'pchilik xollarda gormon samarasi gormon-retseptor kompleksi kontsentratsiyasiga bog'liq. Shu bilan birga xujayraning gormonga spetsifik reaktsiyasi tsitozol retseptorlarining zaxirasi tugamaguncha oshib boraveradi. Shuningdek gormon-retseptor komplekslar xujayra yadrosida xromatinning nospetsifik destabillashuvini amalga oshiradi va uning umumiyligi transkriptsiya faolligi 1.6-3 marta oshadi. Xromatinning tuzilmaviy qayta qurilishi spetsifik gormonal samaralar bilan ijobiy korrelyatsiyada bo'ladi. Aftidan mRNA va oqsillar sintezida cheklovchi mexanizm aynan xromatinni gormon-retseptor kompleksi bilan nospetsifik bog'lanishi xisoblanadi.

Yuqorida aytib o'tilgan ma'lumotlarni muvofiqlashtirish uchun ikkita mexanizmning mavjudligi xaqidagi faraz aytib o'tilgan: a) selektiv samara mexanizmi, ya'ni komplekslarni DNK ning cheklangan spetsifik aktseptor uchastkalari bilan tanlab bog'lanishi; b) intesiv samara mexanizmi, ya'ni komplekslarni DNK ko'pchilik uchastkalari bilan to'yinmagan bog'lanishi. Birinchi mexanizm gormonal samaraning sifat, ikkinchi mexanizm esa miqdoriy tomonini aks ettiradi.

1. Shunday qilib gormon-retseptor kompleksi xromatin bilan ta'sirlashib muayyan mRNA, shuningdek rRNA sintezi darajasini spetsifik ravishda o'zgartiradi.

2. gormon-retseptor komplekslarini yadro xromatini bilan o'zaro ta'sirini ko'rib chiqib, ko'rsatib o'tilgan ta'sir natijasida yadro retseptorlarining xossalari o'zgarishiga to'xtalib o'tish zarur. Eng avvalo xujayra yadrosiga komplekslar translokatsiyasi jarayonida ularda 0.3-1 M KCl da eruvchan retseptorlarning to'planishi ro'y beradi. Biroq shu bilan birga yadroda KCl da erimaydigan boshqa retseptorlar xam to'planadi. Xujayra tipi, gormon tabiatiga, uning dozasiga va vaqtiga qarab yadro retseptorlarining KCl ga sezgir formalari yadrodag'i umumiy komplekslar miqdorining 5 dan 90% ga bo'lishi mumkin. Ba'zi bir mualliflar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar retseptorlarning aynan mana shu formasi transkriptsiya jarayonlarining spetsifik reguliyatsiyasi uchun faol ekanligi aniqlandi. Biroq boshqa tadqiqotchilarining ma'lumotlari KCl-erimaydigan retseptorlarning to'planishi retseptor tsiklining terminatsiyasiga aloqador deb o'ylashga asos beradi.

3. Retseptor yoki G' va steroid metabolizm fermentlari kabi terminatsiyaning maxsus faktorlari retseptorlarning ishchi tsiklini tugatadi deb xisoblanadi.

4. Aniqlashicha steroid gormonlarning xujayraga samarasini yadroda transkriptsiya darajasining o'zgarishi bilan bog'liq. Biroq xujayralarning ba'zi-bir tiplarida steroidlarning bir qator muxim samaralari posttranskriptsion darajalarda ekstranuklear ravishda amalga oshirilishi mumkin. Xuddi shu usulda estrogenlar ta'sirida bachadonga prostaglandinlarning otilib chiqishi amalga oshadi. Extimol bu steroid- retseptor kompleksning nafaqat yadro, balki polisomalar, retikulum membranasi, tsitoskelet komponentlari bilan o'zaro ta'siri bilan bog'liq bo'lsa kerak.

Tireoid gormonlar retseptsiyasining modeli. Oldin ko'rsatib o'tilganidek xujayralarda tireoid gormonlarning retseptori bir nechta aloxida ishlovchi populyatsiyalardan iborat bo'lib, ularning sifat va miqdor jixatdan asosiysi yadro retseptori oqsillari xisoblanadi. Aftidan shuning uchun tireoid gormonlarning yadro retseptsiyasi xozirgi eng yaxshi o'rganilganlardan biri xisoblanadi. Mavjud ma'lumotlarga ko'ra bu retseptsiya quyidagi asosiy bosqichlardan tashkil topadi.

1. Plazma tiroksin bog'lovchi globulin va prealbumini bilan bog'lanmagan triyodtironin va tiroksin xujayraga nisbatan erkin kiradi. Oxirgisi triyodtironinga aylanadi va asosan xujayra yadrosi bilan ta'sirlashadi.

2. Bu retseptorlar DNK molekulasiida joylashgan, gormon- retseptor kompleksning bog'lanishi esa ion va aktseptor DNK ning birlamchi va ikkilamchi tuzilmalari xossalariiga bog'liq. Mavjud ma'lumotlar N₃ va N₄ gistonlari gormon- retseptor kompleksini DNK ning aktseptor saytlari bilan bog'lanishini ta'minlaydi.

3. Gormon- retseptor kompleksi funktional mRNK va tRNK larning sintezi darajasini regulyatsiya qiladi.

4. Protessing jarayonidan keyin yadrodan tsitoplazmaga chiqqan, indutsirlangan RNK kodlanadigan oqsillar sintezi darajasini o'zgartiradi. Gipofizda ular somatotropin sintezini faollashtiradi, jigarda esa glitserofosfatdegidrogenazalar, malatdegidrogenaza, shuningdek globulinlar fraktsiyasi sintezini faollashtiradi.

5. Gormon-retseptor kompleksining yadroda gistonlar bilan o'zaro ta'sirining buzilishi retseptorlarning DNK va triyodtironinga o'xshashligini kamaytiradi. Shuning uchun xromatinning qisman degistonlanishi gormonlar ta'siri terminatsiyasining etakchi faktorlaridan biri xisoblanadi. Triyodtironin retseptsiyasining ekstranuklear mexanizmi xali to'liq o'rganilmagan.

Oqsil-peptid gormonlari va katemolaminlar retseptsiyasining modeli. Steroid va tireoid gormonlardan farq qilib oqsil-peptid gormonlari va katemolaminlar nishon-xujayralarga plazmatik membranalarda joylashgan retseptorlar orqali ta'sir qiladi. Ular o'z samaralarini uchta asosiy yo'l orqali amalga oshiradi.

Xozirgi paytda signal moddalarining (informonlar) xujayra yuzasi bilan ta'sirining uchta yo'li aniqlangan: 1) informonlarning adenilattsklaza va tsAMF orqali initsiirlovchi adenilattsklaza yo'li; 2) informonlarni kaltsiy kanallari orqali initsiirlovchi kaltsiy kanallari; 3) informonlarni samaralarini spetsifik membrana proteazalari orqali initsiirlovchi proteaza kanallari (5 rasm). Bu barcha yo'llar umuman olganda bir-biridan mustaqil ravishda amalga oshishi mumkin, biroq real fiziologik sharoitlarda ular bir-biri bilan bog'lanib ishlaydi.

Adenilattsklaza mexanizmi. Xujayra yuzasida gormonlar ta'sirining asosiy yo'llaridan biri gormon-retseptor kompleksining denilattsklaza fermenti bilan ta'sirlashuvi orqali amalga oshadi. Bu ferment oligomer membrana oqsili bo'lib, molekulyar massasi 150 kD. Maksimal gormonal stimulyatsiya sharoitida uning kontsentratsiyasi 1-5 min dan keyin 10^{-8} dan 10^{-6} gacha oshishi mumkin.

Adenilattsklaza ko'pchilik gormonlar, xususan adrenallin, gipotalamik neyrogormon, gipofizning trop gormonlari, vazopressin kabilar tomonidan faollashtiriladi. Turli xil retseptor gormonlar adenilattsklazada konvergent ravishda birikadi.

Transmembrana birikishida polifunktional GTF asosiy vazifani bajaradi. Bu oqsil adenilattsklazaning aktivatsiyasida muxim vositachi xisoblanadi. Bu kuchsiz gidrofob oqsil 3 komponentdan tashkil topadi. Oqsil molekulasing subbirliklari gormon-retseptor kompleks, GTF, adenilattsklaza, Mg^{2Q} va GTF-azalar uchun spetsifik bog'lovchi markazlarga ega. Aftidan N-oqsil bilan birinchi bo'lib gormon-retseptor kompleks ta'sirlashadi. U N-oqsilning β -subbirligi bilan bevosita bog'lanadi. Buning natijasida N-oqsilning GTF ga o'xshashligi ortadi.

GTF ning bog'lanishi xosil bo'lgan kompleksda retseptorning gormonga bo'lgan o'xshashligini pasaytirib yuboradi. Keyin gormon ajralib chiqib yangi retseptor tsiklga kiradi. Gormonsiz kompleks GTF ning bog'lanishi bilan faollashadi va adenilattsklazaga yuqori darajada o'xshash bo'lib qoladi. Fermentning faollashishi, tsAMF ning xosil bo'lishining tezlashishi va uning xujayrada to'planishi ro'y beradi. Mg^{2Q} ning mos markaz bilan bog'lanishi N-oqsilni gormon-retseptor kompleksiga va adenilattsklazaga o'xshashligini oshiradi. Shu bilan birga Mg^{2Q} teskari ta'sir ko'rsatadi. Ilgari GTF xam xuddi unga o'xshab GDF va N-oqsilning funktsiyasini stimullashi mumkin deb xisoblanardi, biroq oxirgi yillarning tadqiqotlari GDF mazkur oqsilning ingibitori ekanligini ko'rsatdi.

Retseptor va adenilattsklaza bilan bir kompleksda N-oqsil o'ziga GTF-azani biriktirishi mumkin. U GTF ni parchalaydi, shu bilan birga oqsilni va adenilattsklazani inaktivatsiyalashtirib, tsiklaza fermenti aktivatsiyasi jarayonini to'xtatadi.

N-oqsil yana bitta muxim funktsiyaga ega. GTF bilan kompleksda u xujayradagi aktiv retseptorlarning vaqtinchalik eliminatsiyasida ishtirok etadi va shu bilan ularning gormonga bo'lgan sezuvchanligini kamaytiradi.

N-oqsilning barcha aytib o'tilgan xossalari gormonal signalarni membrana orqali aktseptor adenilattsklazaga o'tkazilishidagi universal funktsiyasini belgilab beradi. Bu oqsil jamlanma tushunchaga xam ega, ya'ni turli xil mustaqil funktsiyaga ega GTF-bog'lovchi oqsillar oilasi xisoblanadi.

Gormon-retseptor kompleksining adenilattsklaza bilan transmembrana birikishida tsitoskelet elementlari va membrana kislotali fosfolipidlar ishtirok etishini ta'kidlab o'tish zarur.

Shunday qilib, adenilattsklazani gormon-retseptor kompleksi orqali aktivatsiyasi ro'y beradi. Bunda kompleksning bitta molekulasi 500 molekula tsAMF xosil bo'lishini ta'minlaydi. tsAMF ning kontsentratsiyasi nafaqat adenilattsklaza tizimining aktivligi, balki tsitozolda joylashgan fosfodiesteraza fermenti faolligiga xam bog'liq. Fiziologik sharoitlarda bu fermentning faolligi insulin, somatotropin va somatomedin tomonidan boshqarilishi mumkin. Xujayrada xosil bo'lган tsAMF tsAMF-bog'liq proteinkinazaning ikkita izoshakli subbirliklari bilan spetsifik ta'sirlashadi. tsAMF ni regulator subbirliklar bilan bog'langanidan keyin ferment molekulasining monomerlarga dissotsiatsiyasi ro'y beradi. Buning oqibatida "tormozlashgan" katalitik subbirlik faollahadi va tsitoplasmada sintezlangan oqsillarning fosforillanishi ro'jf beradi. Bunday oqsillarning fosforillanishi ularning faolligi va xolatini o'zgartirib yuboradi. Shunday qilib xujayralarda fosforilaza β kinazasi, lipaza, fosfolipaza, ribosoma fosfoproteini, gistonlar, bir qator membrana oqsillari faollahadi.

Shunday qilib, tsAMF-bog'liq proteinkinazalar xujayraning universal aktseptor strukturalari xisoblanadi.

Ba'zi gormonlar, shuningdek opioidlar, dofamin kabi neyromediatorlar adenilattsklaza va tsAMF ni stimullamaydi, aksincha ularni ingbirlaydi. Ta'kidlash zarurki gormonlarning ba'zi-bir stimullovchi effektlari ikkilamchi ravishda kuchayishi mumkin. Xususan ko'pchilik gormonlar tsiklaza tizimini aktivlashitirib nishon-xujayralarda prostaglandinlar xosil bo'lishini to'xtatib qo'yadi. Prostaglandinlar xujayradan chiqib shu xujayraning retseptorlariga yoki qo'shni xujayralarning retseptorlariga ta'sir qilishi mumkin.

Aytib o'tilgan ma'lumotlar asosida retseptsiyadagi asosiy xodisalarlarning ketma-ketligi adenilattsklaza yo'li bo'yicha bosqichma-bosqich quyidagicha tasavvur qilish mumkin:

- 1) plazmatik membranada spetsifik gormon-retseptor kompleksining xosil bo'lishi;
- 2) bu kompleksning N-oqsil bilan ta'siri, uning GTF tomonidan faollahishi;
- 3) adenilattsklaza kompleksi tomonidan stimulyatsiyasi;
- 4) tsAMF ning jadal xosil bo'lishi;
- 5) proteinkinaza katalitik subbirliklarining aktivatsiyasi;
- 6) bir qator oqsillar fosfolirlanishining kuchayishi;
- 7) proteinkinaza tsAMF-regulyator subbirligining yadroga kirishi; Mazkur jarayonning terminatsiyasi turli darajalarda amalga oshirilishi mumkin deb taxmin qilinadi. Retseptor darajada u komplekslarning yirik klasterlarga to'planishi bilan bog'liq. tsAMF darajasida terminatsiya fosfodiesterazaga bog'liq bo'ladi.

Kaltsiy mexanizmi. Gormonal signal o'tkazilishining mazkur transmembrana yo'li gormon-retseptor kompleksi tomonidan sekin, noelektrogen kaltsiy

kanallarining aktivatsiyasini o'z ichiga oladi. Ko'pchilik neyrogumoral stimullar ta'siri natijasida tsitotzoldagi $\text{Ca}^{2\text{Q}}$ miqdori 10^{-8} - 10^{-7} dan 10^{-5} M gacha oshadi. Liberinlar, gipofizning trop gormonlari, kaltsitonin, paratgormon va boshq. gormonlar bir paytda $\text{Sa}^{2\text{Q}}$ va tsAMF-yo'llar bilan ta'sir qiladi.

Noelektrogen $\text{Sa}^{2\text{Q}}$ -kanallari va ularning gormon-retseptor kompleksi bilan o'zaro ta'siri deyarli o'rganilmagan. Extimol bu kanallarning aktivatsiyasi ma'lum darajada plazmatik membrananing fosfolipid komponenti – fosfoinozitol bilan bog'liq bo'lsa kerak.

$\text{Sa}^{2\text{Q}}$ ning gormonlarni xujayraga ta'sirining vositachisi sifatidagi ta'sirining keyingi mexanizmlari xozirgi paytda yaxshi o'rganilib kelinmoqda. Aniqlanishicha $\text{Sa}^{2\text{Q}}$ ta'sirining trigger mexanizmi uning kalmodulin bilan kompleks xosil qilishi xisoblanadi. Bu polifunktional oqsil $\text{Sa}^{2\text{Q}}$ samarasining universal vositachisi funktsiyasini bajaradi. Bu oqsilning funktional universalligi va organizmning xamma joyida tarqalganligi uni boshqa $\text{Sa}^{2\text{Q}}$ bog'lovchi oqsillardan, jumladan troponin S, parvalbumin, miya oqsili S-100 dan farq qiladi.

Kalmodulin bu hidrofil kislotali oqsil bo'lib, molekulyar massasi 16.5 kD va u 148 aminokislota qoldig'idan tashkil topgan. Uning molekulasi $\text{Sa}^{2\text{Q}}$ uchun to'rtta bog'lovchi joyga ega. Aynan shu joylarga $\text{Mg}^{2\text{Q}}$ xam bog'lanadi. Tinch xolatdagi xujayrada kalmodulin nofaol tetramagniy shaklida bo'ladi deb xisoblanadi. Gormon ta'sirida esa kalmodulin faollashadi va keyin bir necha tipdagi xujayra oqsillari – aktseptorlar bilan ta'sirlashadi. Shu aktseptorlar orqali eng muxim Sa-bog'liq gormonal samaralar indutsirylanadi. Samalararning boshqa guruxi bevosita $\text{Sa}^{2\text{Q}}$ - bog'liq proteinkinazalar va bir qator oqsillarning fosfolirlanishi bilan bog'liq. Odatda bu fermentlar tsAMF ga qaram emas. Ularga silliq mushak qisqarishida ishtirok etadigan silliq mushaklar miozini engil zanjirlarining kinazasi, Sa-nasosining stimulyatori xisoblangan fosfolamban oqsilining sarkoplazmatik kinazasi kabilar kiradi.

Faol kalmodulin shuningdek N_1 gistonlar fosfolirlanishi, mikronaycha va mikrofilamentlarning qurilishi va parchalanishiga xam ta'sir qiladi. Fenotiozin xosilalarining psixotrop preparatlari faollashgan kalmodulin bilan tanlab bog'lanib, uning aktseptorlar bilan ta'sirlashish qobiliyatini ingbirlaydi va $\text{Sa}^{2\text{Q}}$ ning xujayraga ta'sirini tormozlab qo'yadi.

Shunday qilib, gormon ta'sirining mazkur mexanizmi:

- 1) plazmatik membranada gormon-retseptor kompleksining xosil bo'lishi;
- 2) xosil bo'lган komplekslarning noelektrogen $\text{Sa}^{2\text{Q}}$ kanallari bilan ta'sirlashuvi va $\text{Sa}^{2\text{Q}}$ ning xujayraga jadal kirishi;
- 3) $\text{Sa}^{2\text{Q}}$ va $\text{Mg}^{2\text{Q}}$ bilan kalmodulining faol shaklining xosil bo'lishi;
- 4) faollashgan kalmodulining uni ko'pchilik aktseptor saytlariga ta'siri;
- 5) $\text{Sa}^{2\text{Q}}$ mexanizmi bilan bog'liq bo'lган retseptor ishchi tsiklining yakunlanishi.

Proteaza mexanizmi. Ba'zi – bir gormonlarning retseptorlar bilan kompleksi o'z samaralarini membrana proteazalarini faollashuvi orqali amalga oshirish qobiliyatiga ega. Aktseptor proteazalarining aktivatsiyasi natijasida molekulyar massasi 1-2 kD bo'lган bitta yoki bir nechta glikopeptidlар xosil bo'ladi.

Faol retseptorlarni o'z ishchi tsiklidagi eliminatsiyasi va hujayralarni gormonlarga desensibilizatsiyasi muammozi. Gormonlar, ma'lumki bir tomondan

muayyan oqsillarning sintezi va aktivatsiyasini boshqarsa, ikkinchi tomodan xujayrani gormonning keyingi dozalariga sezuvchanligini pasaytiradi yoki butunlay to'xtatib qo'yadi. Retseptor tsiklining zaruriy bosqichi xisoblangan ikkinchi jarayon desensibilizatsiya (desensitizatsiya, autodeinduktsiya, refrakterlik, taxifilaksiya, tolerantlik, ko'nikish) nomini olgan. Keyin muayyan vaqt oralig'ida gormon ta'siri tugagandan keyin xujayraning reaktivligi tiklanadi, ba'zan gipersensibilizatsiya kuzatiladi.

Desensibilizatsiya mexanizmida xujayra retseptorlari bir qismining dozaga bog'liq eliminatsiyasi xisoblanib, bu jarayon retseptorlar etishmovchiliga olib keladi. Elminatsiya darajasi retseptorlarning dastlabki miqdorining 80-90% ni tashkil qilishi mumkin. Bunda gormon regulator samarasining initsiatsiyasida ishtirok etayotgan va ishtirok etmagan retseptorlarning eliminatsiyasi ro'y beradi. Steroid gormonlar xolatida retseptorlar inaktivatsiyasi yadroda va extimol tsitozolda ro'y beradi. Bu jarayon retseptor oqsillarning fosfatazalar tomonidan defosfolirlanishi xisobiga ro'y beradi.

Membrana retseptorlari eliminatsiyasining eng extimoliy sabablaridan biri plazmatik membranalarda katta klasterlarning xosil bo'lismi jarayoni bo'lishi mumkin. Xujayra yuzasidan ajralib, plazmaga o'tgan retseptor klasterlar lizosomaga o'tadi yoki tsitozolda suvda eriydigan molekula shakliga o'tadi. Desensibilizatsiyaning ba'zi-bir shakllarida N-oqsilning xolati o'zgarishi mumkin. Bunda uning adenilatsiklaza va retseptor oqsillari bilan ta'sirlashish qobiliyati pasayib ketadi.

6. Retseptorlarning fosfolirlanishi-defosfolirlanishi jarayonlari muammolari. Xozirgi paytda ba'zi-bir mualliflar gormonlar retseptoriyasi turli bosqichlarda fosfolirlanish-defosfolirlanish jarayonlari tomonidan boshqariladi deb xisobla-shadi.

1. Ba'zi – bir retseptorlarning gormon bog'lovchi faolligi retseptor oqsillarning fosforilirlanishi bilan kuchayadi va stabillashadi. Masalan ATF va ATF-generatsiyalovchi tizim mavjudligida, shuningdek molibdat va glyukoza-1-fosfat tipidagi fosfataza ingibitorlari mavjudligida xam ba'zi xujayralarda glyukokortikoid va estrogenlar tsitozol retseptorlari gormon bog'lovchi xossalari kuchayadi. Shu bilan birga ATF-generatsiyalovchi tizimning yo'qligida yoki ishqoriy fosfataza ta'sirida retseptorlarning gormon bog'lovchi xossalari birdan pasayib ketadi.

2. Steroid gormonlar retseptorlarining translokatsiyasi ba'zi - bir omillar tomonidan ingibirlanishi ko'rsatilgan. Bunda mazkur ingibitorlarning fosforilirlanishi nafaqat tormozlovchi samarani olib tashlaydi, balki gormon-retseptor kompleksini yadroga o'tishini tezlashtiradi.

3. Steroid gormonlar yadro retseptorlarining defosforilirlanishi ularni xromatin bilan bog'lanishini pasaytiradi. Shu bilan birga xujayradagi retseptorlarning summar miqdori pasayadi, ular qisman eliminatsiyaga uchraydi.

Demak, gormonlarning oqsil retseptorlari endokrin funktsiyaning muxim bo'g'ini xisoblanadi. Retseptorlar o'z molekulasing maxsus tuzilmasi xisobiga gormonal signalni tanlab qabul qiladi va qayta o'zgartiradi. Gormonlar retseptoriyasining bir nechta tipi aniqlangan. Ular tuzilishi, joylashgan o'rni, aktseptor joylarining xossasiga qarab farq qiladi. Xujayra ichi va membrana retseptorlari aniqlangan. Birinchilari odatda yagona tsitozol-yadro tizimi shaklida yoki bir qancha mustaqil tsitozol, mitoxondrial va extimol boshqa retseptorlar puli ko'rinishida

mavjud bo'ladi. Ikkala xolatda xam retseptsiyaning bu tipi birinchi bosqichlarda ichki xujayraviy mediatorlarni talab qilmaydi. Retseptorlarning boshqa tipi plazmatik membrana oralig'ida joylashadi va gormonlar ta'sirini aloxida membrana aktseptori tuzilmalari – adenilattsiklaza, sekin kaltsiy kanallari xisobiga belgilab beradi. Membrana aktseptorlari faolligining o'zgarishi xujayra ichi mediatorlari sintezining modulyatsiyasiga olib keladi. Bularga tsAMF, Sa^{2Q} va maxsus glikopeptidlar kiradi. Yuzadan ta'sir qiluvchi bir qator gormonlar xujayraga funktsiyasiga o'z ta'sirini bir qancha yo'llar orqali amalga oshirishi mumkin. Xujayra ichi mediatorlari ta'sirining eng muxim mexanizmlaridan biri xujayra mavjud oqsillar faolligining o'zgarishi xisoblanadi.

Retseptorlar asimmetrik shaklga ega kislotali yirik molekulyar oligomer oqsillar ekanligi ko'rsatilgan. Xujayra ichi retseptorlari asosan gidrofil oqsillar bo'lsa, yuzadagilari esa gidrofob, transmembrana oqsillari xisoblanadi.

Ba'zi retseptorlar etarlicha yaxshi tozalab olingan va ularga antitelalar olingan. Yaxshi tozalangan retseptorlarga antitelalar, asosan monoklonal antitelalarning olinishi ularni miqdoriy aniqlash, xossalarni aniqlash va fiziologik funktsiyalarini o'rganish uchun yaxshi imkoniyatlar yaratadi.

Retseptsiya jarayonida oqsillar bir qator konformatsion o'zgarishlarga uchraydi, gormon-retseptor kompleksi esa albatta ekstraretseptor omillar bilan o'zaro ta'sirlashadi. Samaralarning rivojlanishi uchun muxim omil ba'zi-bir past- yoki yuqori molekulyar ingibitorlarning ta'sirini yo'qotish xisoblanadi.

Aynan bir xil gormon tipi uchun bir qancha retseptorlar mavjud bo'lishi mumkinligi (multiretseptor model) aniqlangan. Retseptorlarning geterogenligi gormonlarning xujayra jarayonlariga tanlab ta'sir qilishini oshirishi mumkin.

Xozirgi paytda eng dolzarb muammolardan biri xujayra aktseptor tuzilmalarining ulanishi (on) va uzilishi (off) mexanizmi xisoblanadi. Ikkinci muxim muammolardan biri xujayraning gormonlarga nisbatan desensibilizatsiyasi va resensibilizatsiyasini o'rganish muammozi xisoblanadi. Desensibilizatsiya ba'zi shakllarining amalga oshishini sababi ko'pchilik retseptorlarning gormon ta'sirida vaqtinchalik dozaga bog'liq eliminatsiyasi xisoblanadi. Retseptor molekulalarining fosforilirlanish – defosforilirlanish muammozi xam extimol shu bilan bog'liq bo'lsa kerak. Bu muammoni echish retseptor tsiklining amalga oshishi va terminatsiyasi va nishon- xujayralarni gormonlarga sezgirligini o'zgarishi mexanizmini ochishda muxim axamiyatga ega bo'ladi.

7. Yuqumli kasalliklar patogenezida adenilattsiklaza sistemasining ishtiroki.

Boshqaruv signallari ta'siridan keyin hujayra funktsiyalarining o'zgarishlari effektor – oqsillar (retseptorlar, fermentlar va boshqalar) molekulalarida kovalent modifikatsiyalar amalga oshishi natijasida yuzaga keladi. Retseptor orqali signal uzatilishida, ya'ni ligandning effektorga bog'lanishi postretseptor bosqichdagi amalga oshuvchi jarayonlar davomida bir nechta kaskadlar yordamida modifikatsiyalanishi kuzatiladi.

Qayd qilib o'tish kerakki, me'yoriy va patologik holatlarda hujayralarda oqsillarning allosterik boshqaruvchisi sifatida GTP muhim ahamiyatga ega

hisoblanadi, shuningdek asosiy oqsil molekulalarining qaytar tarzda fosforlanish jarayoni xam umumbiologik nuqtai nazardan muhim o'rinni tutadi.

Hujayra ichki jarayonlarining boshqarilishida tizimning mukammal funktsiya bajarishi ayniqsa patologik holatlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Aynan hujayra ichki signal uzatilish mexanizmlarida amalga oshuvchi buzilishlar ko'pgina infektsion kasalliklar patogenezi jarayonida muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, o'sma hujayralarining nazorat qilib bo'lmaydigan darajadagi ko'payishini belgilab berishi qayd qilingan.

Hujayralar funktsiyalarining boshqarilishi xususiyatlarini qarab chiqishda nisbatan batafsil o'rganilgan adenilatkinaza tizimi bo'yicha ma'lumotlarni tahlil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi .

Retseptorlarga qo'zg'atish beruvchi ta'sirlarning adenilatkinaza tizimiga (ATs) ta'siri bevosita G_S – oqsil molekulasi orqali amalga oshadi. Fermentlar va ion kanallarining fosforlanishi ularning funktsiyasida keskin va tezkor tarzdagi o'zgarishlar amalga oshishiga olib keladi. Transkriptsiya omili – CREB ning fosforlanishi hujayrada maxsus oqsil molekulalarining genlari transkriptsiyasi jarayoniga turtki beradi va bu funktsiyalardagi o'zgarishlar nisbatan uzoq vaqt davomida saqlanib qolishi kuzatiladi.

Birinchidan, singal uzatilishida transmembranaviy jarayon bosqichida singalning *o'zgarishlariga* katta e'tibor qaratish talab qilinadi. Hujayra ichki qismida vositachi (ikkilamchi) sifatida boshlang'ich signal manbasidan (masalan, gormon) keskin farq qiluvchi kimyoviy birikmalar (ushbu holatda sAMF) markaziy o'rinni egallyaydi. Ikkinchidan, signal uzatilishi jarayonida kaskadlar orqali signalning *kuchaytirilishi* amalga oshadi. Gormonning bitta molekulasi orqali faollashgan retseptor bir nechta G oqsil molekulasiiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. O'z navbatida keyingi bosqichlarda signalning ko'p martobalik kuchaytirilishi fermentlar tizimi orqali amalga oshadi (adenilatkinaza, proteinkinaza), bu fermentlar bitta allosterik regulyator ta'siriga javoban ko'plab miqdordagi maxsulot molekulalarini xosil qilish xususiyatiga ega hisoblanadi. Uchinchidan, signal uzatilishi jarayonida hujayrada molekulyar darajadagi *ajratuvchi* tizimlar mavjud hisoblanadi.

Signallarning uzatilishi navbatdagi molekulyar ajratuvchi tizimlar xususiyatlariga bog'liq holatda bir nechta bosqichda amalga oshadi.


Ularga α -subbirliklarning GTPaza faolligi, sAMRni parchalanishini katalizlovchi fosfodiesteraza va nihoyat proteinkinaza ta'sirida modifikatsiyalangan oqsillarning defosforlanishi amalga oshishida ishtirok etuvchi proteinfosfotazalar kiritiladi. Bu molekulyar ajratuvchi tizimlarning har biri o'ziga xos xususiy boshqaruvchi molekulalar yig'indisiga ega hisoblanadi, bunda ushbu tizimlar orqali hujayra ichki qismidagi nozik tarzda amalga oshuvchi regulyatsiya jarayonlari va yakuniy holatda ta'sirga nisbatan javob reaktsiyasi amalga oshishi haqidagi axborotlar bo'yicha ma'lumot beradi.

Gormonlar yoki neyromediatorlar ta'sir qiluvchi retseptorlar orqali signal uzatilishi adenilattsiklaza ferment (ATs) bilan GTR – bog'lovchi oqsil molekulasi (G -oqsili) – adaptor molekula yordamida bog'lanishi aniqlangan. Bunda ATs faolligiga ta'sir xususiyatiga ko'ra G -oqsillar qo'zg'atuvchi – G_S yoki ingibirlovchi – G_i turlarga bo'linadi. G -oqsillar 3 ta subbirlik – α , β va γ subbirliklardan iborat.

Bunda oxirgi ikkita subbirlik bir butun holatda funktsiya bajarishi aniqlangan. Nofaol holatdagi G-oqsili GDP bilan bog'liqligi qayd qilingan.


Ligandning bog'lanishi natijasida retseptorning molekulasi konformatsion o'zgarishlar amalgalashadi, bunda G-oqsil molekulasi bilan bog'lanish sohasi yuzaga keladi. «Faollashgan retseptor – G-oqsili» ko'rinishidagi kompleks xosil bo'lishi GDP va GTR o'rtasidagi almashinuv reaksiyasi hamda β va γ komplekslarining ajralishi jarayoniga olib keladi. Natijada G-oqsili molekulasi ATs bilan bog'lanish sohasi shakllanadi, va ATs ATRdan tsiklik adenozin monofosfat (sAMR) sintezlay boshlaydi. G-oqsili GTRaza fermenti hisoblanib, GTR ni GDR va R_i ga parchalanishini ta'minlaydi va signal uzatilib bo'lgandan so'ng $\beta\gamma$ kompleksining qayta birikishidan yana nofaol holatga qaytadi. G-oqsili molekulyar vaqtini belgilovchi vosita bo'lib, ATsning faol holatda bo'lish davri davomiyligini belgilab beradi.

Hujayra ichki qismida sAMR kontsentratsiyasining ortishi fosforlovchi oqsil – proteinkinaza A ferment molekulasi allosterik tarzda faollashishiga olib keladi. Proteinkinaza A struktura tuzilishiga ko'ra tetramer holatda bo'lib, 2 ta regulator (R_2) va 2 ta katalitik subbirliklardan (K_2) tashkil topgan. sAMR ning 4 ta molekulasi bilan bog'langanidan keyin dimerlar (1) dissotsiatsiyalanadi va katalitik subbirliklar kompleksi proteinfosforlanish jarayonini katalizlashi boshlanadi (2).



sAMRning xosil bo'lishi va parchalanishi sxemasi.

Ko'rsatib o'tilgan reaksiya quyidagicha ifodalanadi:



Proteinkinaza A ishtirokida fosforlanuvchi gidroksil guruhi serin yoki kam hollarda treonin aminokislota qoldig'i tarkibida joylashgan. Ionlashgan holatda yoki rN ko'rsatkichi qiymatining fiziologik me'yoriy holatlarida fosfatning bog'lanishi natijasida oqsil molekulasing zaryadi keskin tarzda o'zgaradi va o'z navbatida uning funktsional faollik ko'rsatkichlari xam o'zgarishga uchraydi. A-kinazalar ta'sirida fosforlanuvchi ko'plab effektor – oqsillarning mavjudligiga bog'liq holatda bitta gormonning ta'sirining o'zi turli xil hujayralarda sezilarli darajada turli tumanligi qayd qilinadi. Masalan, adrenalinning yurak hujayralarida β -retseptorlarga ta'siri natijasida yurak urishi chastotasi va qisqarish kuchi ortishi kuzatiladi, yog' to'qimalari hujayralarida esa adrenalin ta'sirida yog'larning parchalanish jarayoni tezlashishi, ichak hujayralarida suyuqlik sekretsiyasi jarayoni jadallahishi aniqlangan.

Gipofizning tireotrop gormoni ta'siri ostida sAMR qalqonsimon bez gormoni sekretsiyasi jarayonining faollashishida ikkilamchi vositachi sifatida ishtirok etishi, shuningdek glyukagon ta'sirida jigar hujayralarida glikogenning parchalanishi va vazopressin ta'sirida buyrakda suvning qaytadan so'rilihini (reabsorbsiya) jarayonini faollashtirishida ishtirok etishi aniqlangan. Uning to'xtatuvchi ta'siriga adrenalin ta'sirida (α -adrenoretseptorlar qo'zg'atilishi holatida) yog' to'qimalari hujayralarida yog'larning parchalanish jarayonining susaytirilishini ko'rsatib o'tish mumkin.

8. **G – oqsillar** – guanin – nukleotid bog'lovchi oqsillar oilasi bo'lib, hujayra membranasidagi signallarni ma'lum bir effektor molekulalariga uzatadi. 80% birlamchi messendjerlar (gormonlar, neyrotransmitterlar, neyromodulyatorlar) effektor molekulalar bilan G – oqsillar orqali bog'langan spetsifik retseptorlar vositasida ta'sir etadi.

Tuzilishi va xususiyatlari.

G – oqsillar – geterotrimer bo'lib, α subbirlik $\beta\gamma$ dimer bilan kuchsiz bog'langan.

Barcha ma'lum bo'lган α subbirliklar gomologikdir (mol. massa 40-50kD), ko'pchiligida β subbirlik (mol. massa 35 kD) va γ subbirlik (mol. massa 8 kD) deyarli bir xil.

α – subbirlik retseptor va effektor bilan G – oqsil bog'lanishining spetsifikligini belgilab beradi. α subbirlik GTP ni bog'laydi va gidrolizlaydi (GTP - aza). α subbirlik o'z tarkibida GTP ni bog'lab, so'ngra gidrolizlovchi yuqori konservativ domen (350 – 395 ta aminokislotadan 18 tasi) tutadi.

G – oqsillarning guanin nukleotidlari, retseptorlar (S - uchi) va $\beta\gamma$ dimer (N - uchi) bilan ta'sirlashuvchi sohalari aniqlangan.

G – oqsillarning vabo va ko'kyo'tal toksinlari ta'sirida ADP – ribozilirlanuvchi sohasi (arginin – 202) aniqlangan.

G – oqsillarning o'r ganilish tarixi.

1971y – Ilk bor glyukagon ta'sirida adenilattsklaza stimulyatsiyasi uchun GTP zarurligi ma'lum bo'ldi.

1981 y – Rodopsinni sGMP fotoretseptorlar fosfodiesterazasi bilan bog'lovchi Gt – transdutsin oqsili ajratib olindi.

1983 y – Stimullovchi retseptorlarni adenilattiklaza bilan tutashtiruvchi GTP – bog’lovchi oqsil Gs ajratib olindi.

1985 – 1988 y – Fosfolipaza S va fosfolipaza A2 lar gormon va neyrotransmitterlar tomonidan Gp – oqsillar orqali boshqarilishi ma’lum bo’ldi.

Bugungi kunda G – oqsillar bir nechta tipga bo’lingan: 4 ta Gs, uchta Gi, Go, GzG’x (MNS va taloq), Gt (transdutsin), Golf (hid sezuvchi neyroepitelial hujayralar).

G – oqsillarning membrana bilan bog’lanishi.

G – oqsillar plazmatik membrananing ichki yuzasida joylashgan. G – oqsil subbirliklaridan hech birining birlamchi strukturasi membranaga botib kiruvchi gidrofob domenga ega emas.

G – oqsillarning membrana bilan assotsiatsiyasi yog’ kislota radikallari tomonidan atsilirlanishiga sabab bo’ladi. G – oqsillar subbirliklarining lipidli modifikatsiyasining 2 turi aniqlangan: miristoilirlanish va izoprenillanish.

Gi va Go oqsillari α – subbirliklarining N uchidan boshlanadigan posttranslyatsion miristoilirlanishi aniqlangan.

$\beta\gamma$ subbirliklari uchun ham postranslyatsion modifikatsiya (atsilirlanish) aniqlangan.

Ras – oqsillarning membrana bilan ta’sirlashuviga mas’ul bo’lgan uchta ketma – ket sodir bo’luvchi postranslyatsion modifikatsiya o’rganilgan.

Ajratib olingan α subbirliklar hidrofil xususiyat namoyon qiladi ($\beta\gamma$ komplekssiz sun’iy fosfolipid pufakchalari bilan bog’lana olmaydi).

Hujayra tashqi membranasidagi retseptorlarning hujayraichi tashuvchilarini G – oqsillar bilan bog’langan holda ishgi tushirishining asosiy ikki xil mexanizmi mavjud. Har ikkila variantda ham ligandning retseptor bilan bog’lanishi retseptorning tsitoplazmatik domeni konformatsiyasini o’zgartiradi va G-oqsil bilan birikib, uni aktivlashtiradi. So’ngra aktivlangan G-oqsil plazmatik membranadagi ma’lum bir fermentlar bilan ta’sirlashadi. Ba’zi hollarda G-oqsil ferment bilan emas, ion kanali bilan ham ta’sirlashadi. Signal uzatilishining cAMP yo’lida Gs-oqsil tsiklik AMR sintezlovchi ATs ni aktivlaydi. Sa^{Q2} yo’lida esa fosfolipaza S ishtirot etib, PIP2 fosfolipidini IP3 va DAG ga parchalaydi. IP3 endoplazmatik retikulumdan Sa^{Q2} chiqishiga olib keladi.

Effektor molekulalar

Hujayra signal sistemasida hujayra ichi signal uzatuvchilari (tashuvchi)ni hosil bo’lishiga olib keluvchi molekulalar effektor molekulalar deyiladi. Retseptorlar G – oqsil bilan bog’lanib, bir qancha effektor molekulalari masalan, adenilattiklaza (ATs), fofolipaza S (PL C), fofolipaza A₂ (PLA₂), cGMP-spetsifik fosfodiesteraza va bir qancha ion kanallari kabilarga signalni uzatadi.

9. Adenilattiklaza va sAMR

sAMR birinchi marta 1957 yilda Sazerlend tomonidan aniqlangan. U yangi tug’ilgan kalamush gepatotsitlariga noradrenalin va glyukagon ta’siri qizdirishga chidamli bo’lgan past molekulyar birikmalar orqali amalga oshishini amalda tasdiqlab berdi. Keyinchalik aniqlanishicha kalamushlarning 6 kundan 60 kungacha bo’lgan o’sish va rivojlanishida jigarda β retseptorlar ekspressiyasi kamayib, α 1-retseptorlar ortadi. Biroq, jarayonning molekulyar asoslari faqatgina 1990 yillarda

ma'lum bo'ldi. Hozirda bizga ma'lumki, voyaga etgan kalamushlarda glyukagon yoki adrenalin signali fosfolipaza S bilan bog'langan retseptorlar orqali amalga oshadi.

Gormonlar tomonidan boshqariluvchi adenilattiklazalar plazmatik membranada joylashgan integral oqsillar hisoblanadi. ATs fermentining shuningdek, eruvchan turlari ham ma'lum. Bunga, sutevizuvchilar sperma hujayralari va bakteriyalarni keltirish mumkin. ATs – mol.massasi 110 dan 180 kD gacha bo'lган, 1064 tadan 1248 tagacha aminokislotadan tashkil topgan glikoprotein hisoblanadi. Polipeptid zanjiri 12 ta gidrofob transmembranaviy domenlardan iborat (6×2 , 20 – 22 tadan aminokislota qoldig'i) bo'lib, membranada kanalga o'xshash struktura hosid qiladi. Biroq ATs hech qanday kanal faoliyati kuzatilmagan. Gidrofob domenlari 2 ta guruhga birlashgan (har birida 6 tadan). Bu guruhlar oralig'ida tsitoplazma tomonidan polipeptid zanjiri fragmenti (43 kD) birikkan. Tashqi tomonidan bu uchastkalar uncha katta bo'lmay N-glikozilirlanish uchun mo'ljallangan joylarga ega. N va C uchi tsitoplazmatik tomonda joylashgan. Katta domen (38 kD) S-uchi tomonida joylashgan.


ATs ning ATF-bog'lovchi qismi R-saytdagi mutatsiyalarni modellashtirish va analiz qilish metodi yordamida aniqlangan. Ma'lum bo'lishicha, S2-domendagi Lys-923 va Asp-1000 ATR adenin halqasining N1 va N6 uchlari bilan, S1-domendagi Gln-417 esa Lys-923 ning orientatsiyasida ishtirok etar ekan. Mg²⁺-bog'lovchi qismi ikkita Asr qoldig'ini tutadi.

Gs-oqsilning α -subbirligi va SaKM ATs aktivatorlari hisoblanadi. Gs-oqsilning α -subbirligi bilan kompleks hosil bo'lishi natijasida ATs faollashadi. β -adrenergik retseptorlar ATs faollashtirsa, α_2 -adrenergik retseptorlar uni ingibirlaydi. β -retseptorlar stimullovchi Gs oqsil orqali ta'sir etsa, α_2 -retseptorlar Gi-ingibirlovchi oqsili orqali ta'sir ko'rsatadi. Gs va Gi oqsillari bir xil $\beta\gamma$ -kompleks tutadi, lekin α -subbirliklari jihatdan farq qiladi. Faollangan α_2 -adrenergik retseptor Gi oqsil bilan ta'sirlashadi va α -subbirlikdagi guanil nukleotidlarini bog'lovchi markazdagi GDP ni GTPga almashinishiga olib keladi. Bunda, α -subbirlik $\beta\gamma$ -kompleksdan ajralib ketadi va har ikkala subbirliklar ATsni ingibirlashda ishtirok etadi. Ya'ni α -subbirlik bevosita ATs faolligini to'xtatsa, $\beta\gamma$ -subbirlik erkin holdagi α -subbirliklarini o'ziga bog'lab olish orqali ularning ATsni faollashtiruvchi ta'sirini kamaytiradi.

Adenilattiklaza tizimining patologiyalari. Ko'pgina patologiya shakllari organizmda asosiy metabolizm yo'llarining izdan chiqishi bilan bog'liq bo'lmasdan, balki ushbu jarayonlarning boshqarilish jarayonlari izdan chiqishi bilan belgilanadi. Bu holat bevosita infektsion kasalliklar patogenezi jarayoni uchun xam tegishli hisoblanadi.

Retseptoropatiyalar (retseptorga bog'liq holatda yuzaga keluvchi patologiyalar). Hujayralarda ayrim retseptorlarda ularning funktional faolligini ta'minlovchi oqsil molekulalari biosintezida genetik jihatdan yuzaga keluvchi mutatsiyalar ta'sirida retseptorlarning funktional faolligi jiddiy o'zgarishi, ligandlarning tanlab ta'sir ko'rsatish tamoyili asosida retseptorga bog'lanish xususiyati buzilishi va o'z navbatida hujayrada signal uzatilishi jarayonlari izdan chiqishi kuzatiladi.

Гормоннинг рецептор билан бириквиши
конформацион ўзгариш ва нуклеотидлар
алмашинувига сабаб бўлади



Organizmda lyuteinlovchi gormon (LG) retseptorlarining faollashini ta'minlovchi genlarda yuzaga keluvchi mutatsiyalar oqibatida dominant holatda namoyon bo'lувчи – oilaviy autosoma kasalligi – erkaklarda muddatidan oldin voyaga etish xastaligi kelib chiqadi. Bunda ushbu ko'rinishdagi mutatsiyalar ta'sirida ayrim holatlarda hatto retseptorlarning funktsiyasi butunlay izdan chiqishi xam qayd qilinadi. Masalan, nefrogen qandsiz diabet (*diabetes insipidus* qandsiz tarzda siydk ajralishi orqali holdan toyish xastaligi) yuzaga kelishida buyrak xujayralarida V₅ tipidagi vazopressin retseptorlari funktsiyasidagi yuzaga keluvchi mutatsiya oqibatida organizmda siydk tarkibidagi suv kontsentratsiyasining me'yoriy miqdorda ushlab turilishi jarayoni keskin tarzda izdan chiqishi qayd qilinadi. Bu holatlar bevosita siljishlar, missens va nonsens mutatsiyalar ko'rinishida amalga oshadi.

G-oqsilining uch o'chamli strukturasida amalgal oshuvchi buzilishlar bilan bog'liq kasalliklar. Ma'lumki, ko'pgina mikroorganizmlarda sintezlanuvchi zaharlar fermentativ faoliyatini namoyon qilib, yuqori darajada zaharli ta'sirga ega hisoblanadi. Ushbu ko'rinishda cholera toksini ADP-riboziltransferaza fermenti faolligiga ega bo'lib, hujayrada G_s oqsili α-subbirligida hujayra ichki NAD^Q bilan ADP-ribozaning almashini jarayonini katalizlashi natijasida G-oqsili ishtirokida GTP gidrolizlanishi jarayoni buziladi. Natijada esa hujayrada AS ning faol holatda bo'lishi retseptorning tashqi signal ta'sirida qo'zg'atilishini talab qilmaydi, ya'ni AS doimiy holatda faoliyatini namoyon qiladi. Cholera kasalligida ichak epiteliy qismi hujayralarida sAMR sintezi izdan chiqishi va oqibatda esa hujayralardan tashqi muhitga Na^Q ionlarining, o'z navbatida suvning me'yordan ortiqcha chiqishi natijasida ich ketishi ko'rinishidagi kasallik kuzatiladi. Cholera toksini ta'sirida

organizmning boshqa hujayralarida fenotip bilan bog'liq bir qator patologik holatlar yuzaga kelishi aniqlangan.

ADP-ribozillanish jarayoniga boshqa bir misol sifatida – *Pseudomonas aeruginosa* sintezlovchi eksotokisin A va difteriya toksinining eukariot hujayralarda elongatsiya omili (EF-2) tarkibidagi gistidin qoldig'ining modifikatsiyalanishiga olib keluvchi mono ADP-ribozillanish jarayonini ko'rsatish mumkin, bu holatda hujayrada oqsil biositezi jarayoni jiddiy tarzda izdan chiqadi va oqibatda hujayralarning nobud bo'lishi yuz beradi. Bu esa organizmni o'limga olib kelishi mumkin. Inaktivatsiya reaktsiyasi quyidagi ko'rinishda ifodalanishi mumkin:



Hayvon organizmi to'qima hujayralarida mono ADP-riboziltransferazalar genlari identifikatsiyalangan va klonlangan. ADP-riboziltransferazalar faolligi majmuaviy tarzda ADP-ribozillovchi omillar (ARF) deb ataluvchi omillar sinfi orqali reguliyatsiya qilinadi. Jumladan, ARF xolera toksini ta'sirida G-oqsili α -subbirligida ADP-ribozillanishi jarayonini qo'zg'atishi aniqlangan.

Ko'k yo'tal toksini ta'sirida G-oqsili α -subbirligida ADP-ribozillanishi jarayonida ARF AS bilan ta'sirlashib, uning faolligini susaytirishi aniqlangan, bunda psevdogipoparatioreozda G-oqsilining gen mutatsiyasida kuzatilgani kabi G-oqsilining retseptor orqali faollashtirilish xususiyati izdan chiqadi. Sibir yarasi qo'zg'atuvchisi toksinining o'zi AS faolligi namoyon qilish aniqlangan, bunda ushbu toksin ta'sirida terida va ichak hujayralarda shishish yuzaga keladi. Uning fiziologik jihatdan faollashtiruvchisi kalmodulin oqsilining Sa^{2Q} ionlari bilan birgalikda xosil qiluvchi kompleksi hisoblanishi aniqlangan.

Nazorat savollari

1. Retseptorlarning strukturaviy-funktional tuzilishi va tiplari.
2. Retseptorlarning gormon-bog'lovchi xususiyatlari
3. Retseptorlarning fizik-kimyoviy xususiyatlari.
4. Gormonlar retseptsiyasining modellari..
5. G – oqsillar va ularning ahamiyati.
6. Adenilattsklaza tizimi va hujayrada sAMR sintezi.

Mavzuga oid adabiyotlar:

Asosiy adabiyotlar:

1. Қосимов М.М. Назарий биофизика асослари. Тошкент, Университет, 2006, 220 б.
2. Remizov A.N. Tibbiy va biologik fizika. Toshkent. Ibn-Sino nashriyoti, 2006.
3. Рубин А.Б. Биофизика. Учебник в 2 х книгах. М., Высшая школа, 2000. 1т. – 448 б. 2т. - 467 б.
4. Антонов В.Ф., Черныш А.М., Пасечник В.И., Вознесенский С.А., Козлова Е.К. Биофизика, Владос, 2000. 287 б.

LABORATORIYA MASHG'ULOTLARI

1-LABORATORIYA ISHI

LABORATORIYA TADQIQOTLARINING UMUMIY QONUNIYATLARI

Asosiy maqsad: Laboratoriya ishlash qoidalari va laboratoriya mashg'ulotlari texnikasi bilan tanishish

Vazifalar:

1. Laboratoryada ish boshlashdan oldin halat kiyish, suv, elektr, gaz borligini, mo'rili shkafning ishlash ishlamasligini ko'zdan kechirish xavfsizlik texnikasi qoidalariга rioya qilish kerak.
2. Har bir talaba, iloji boricha, o'zi uchun ajratilgan joyda ishlashi kerak.
3. O'tkazilgan tajribaning tavsifi unda ishlatiladigan asbob va reaktivlar talabalarning ish daftarlarida to'liq yozilgan bo'lishi lozim. Tajriba materiallarini talaba to'liq o'zlashtirganiga, o'qituvchi iqror bo'lganidan keyin, ishni bajarishga ruxsat etadi.
4. Tajriba o'tkazilayotganda, tozalikka va texnika xavfsizligiga rioya qilish kerak.
5. Ish vaqtida gaz yoki vodoprovod jo'mraklari va elektr asboblari, tarozilar ishlamay qolsa, tezda laborantga murojaat qilish kerak.
6. Tajriba tugagach, gaz gorylkasi, suv jo'mraklarini byrkitish, gaz asboblarni o'chirish va tajriba natijalarini laboratoriya daftariga yozish kerak.
7. Spirt lampasi yoki gaz gorylkasi bilan ishlayotganda extiyot bo'ling. Spirt lampasi alangasidan foydalanib bo'lgandan keyin, uni qopqoq yordamida o'ching.
8. Elektr isitish asbobidan fotsdalanishdan oldin elektr simining izolatsiyasi butunligini tykshirib ko'rish.
9. Talaba ishlatib bo'lgan ryaktivlarni joyiga qo'yishi, o'zi sintyz qilgan moddani laborantga topshirishi lozim. Ishlatgan idishlar va asboblarni tozalab, shkaflarga qo'yib, ish joyini toza qoldirish lozim.
10. Laboratoriya darsini qoldirgan talabaning o'qituvchisiz yoki katta laborantsiz tajriba o'tkazishiga ruxsat etilmaydi.

Nazariy tushuncha:

Har bir talaba o'zining doimiy ishlash joyiga ega bo'lishi, ish xonasini doim ozoda va saranjom tutishi, mazkur laboratoriya mobaynida ishlatilmaydigan asbob, idishlar, kimyoviy moddalar, kitob-daftar va boshqalar bo'lmasligi lozim. Tajriba boshlashdan ilgari talaba laboratoriya ishi uchun zarur asbob va ryaktivlarni bilib, ro'yxat qilib oladi.

Laboratoriya asosiy ish qurollari: elektroplitka, eritmalar va ryaktivlar uchun javonlar, analitik tarozi va boshqalar bo'lishi kerak. Tajribaga kerakli asbobning ishga yaroqliligini, unga zarur bo'lgan xamma jixozlarni sinchiklab tykshirilib, xavfsizlik qoidalariга rioya qilgan xolda bajariladi.

Tajriba o'tkaziladigan laboratoriya birinchi tibbiy yordam ko'rsatish uchun kerakli bo'lgan doridarmonlari bo'lgan aptechka va boshqa jixozlar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak. Tajriba tamom bo'lgach, idishlarni yuvib, tozalab, o'z

joyiga tartib bilan qo'yish lozim. Bu idishlardan foydalanishni osonlashtiradi, keyingi tajribaga tayyor bo'lib turadi, vaqt tyjaladi. YUvilgan idishlar ustki tomonidan toza sochiq bilan artilgan xrom, xlorid kislota eritmalari bilan yuviladi, so'ng distillangan suv bilan chayqab, quritish shkafida quritiladi.

Quruq reaktiv va eritmalarining tozaligiga, saqlanishiga alohida ahamiyat byrish shart. Reaktivlar solingen idishlarning og'zini ochiq qoldirish mutlaqo mumkin emas. Reaktivlar analitik tarozilarda tortilganda, toza, quruq shisha idishlarda, buyuksda hamda kichik kimyoviy stakanchalarda tortish lozim. Konsentrangan kislotalar va 25%li ammiak eritmasini ishqalangan tiqinli shishada saqlash kerak. Ustdan shisha qalpoq yopib qo'yiladi. Eritmalar shkafda saqlanadi. Xavosi tortiladigan javon tagida, isitkich asboblardan uzoqroqda saqlanadi. Karbonat angidrid, suvni shimadigan ryaktivlar, eritma solingen idish va shishalarning po'kaklari eritilgan parafinda shimdirlib olinadi.

Eritma solingen shisha ustiga aniq va chiroyli qilib eritmaning nomi, uning kontsentratsiyasi, tayyorlangangan vaqt (kun, oy, yili), talabaning ismi, familiyasi yozilgan yorliq yopishtiriladi. Eritma pipetka bilan asosiy shishadan olinadi. Ishlatish uchun eritmadan stakanga ozgina ortiqroq quyib olish kerak. Stakanga quylgan eritmani yana qayta shishaga quyish mumkin emas. Konsentrangan kislota va ishqorlarning eritmalarini, zaxarli suyuqliklarni pipetka orqali og'izda so'rib olish mumkin emas. Buning uchun rezina nasos yoki avtomat pipetkadan foydalaniladi.

Adabiyotlar

1. Қосимов М.М. Назарий биофизика асослари. Тошкент, Университет, 2006, 220 б.
2. Биофизика (практикум). Под редакцией Н.Г.Богача. - Киев, Высшая школа, 1983.
3. Биофизические методы исследования. Под редакцией Ф.Юбера. -М, 1956.
4. Бурлакова Б.В., Вепренцев Б.Н., Коле О.Р., Крюгер Ю.А. Практикум по общей биофизике. -М., Высшая школа, 1961.
5. Қосимов М.М. Биофизикадан амалий машғулотлар. Тошкент, 1992.

2-LABORATORIYA ISHI OCHIQ SISTEMA BARQAROR STATSIONAR HOLATNING ENTROPIYASI

Nazariy qism: Statsionar xolat

Ochiq sistemalar aniqlashiga ko'ra ular termodinamik muvozanat xolatida boshlay olmaydilar, chunki termodinamik muvozanat ochiq sistema tushunchaga zid bo'lib, u sistemaning shunday bir xolatini tavsiflaydiki, bunda mazkur sistemada xech qanday jarayon ketmaydi. Ochiq sistema tashqi muxit bilan modda va energiya almashinyvida bo'ladi. Shunga binoan, uning umumiyligi entropiyasi ikki qismdan, ya'ni sistema ichida sodir bo'ladigan o'zgarishlar bilan shartlangan entropiya dS , va sistemaning tashqi muxit bilan amalga oshadigan aloqasi tufayli yuzaga chiqadigan entropiya dSe dan tashkil topadi:

Sistema ichida kechadigan o'zgarishiar bilan shartlangan entropiya qismi dS_j termodinamikaning ikkinchi qonyniga binoan, musbat qiymat yoki nolga teng bo'lisi mumkin. Bordi-yu, sistema ichida kechayotgan jarayonlar faqat qaytmas bo'lsa, u xolda mazkur jarayonlarga bog'liq ravishda ro'yobga chiqadigan entropiya qismi xamrria vaqt musbat qiymatga, aksincha, sisitema ichida kechayotgan jarayonlar o'ztabiatiga ko'ra qaytar bo'lsa, entropianing by qismi nolga teng bo'lib qoladi.

Ochiq sistemalarga harakterli bo'lgan dSe kattaligi esa musbat, nol va xatto manfly qiymatga ega bo'lisi mumkin. Tashqi muxit bilan xech qanday aloqada bo'lmaydigan (*izolirlangan*) sistemalarda dS_eq0 bo'ladi. SHunga ko'ra, by hi! sistemalarda entropianing umumiyligi o'sishi sistema ichidagi entropik o'sishga teng bo'Hb qo'jadi, ya'ni dS_iqdS_e. Agarda dS_e miqdori jixatdan dS_i kattaligiga teng bo'lib, ishorasi manfiy bo'lsa, sistema umumiyligi entropiyasining o'sishi nolga teng bo'ladi va bunday xol sistemaning statsionar xolatiga mos keladi. Shunday qilib, ochiq sistemaning nazariyasiga ko'ra. ochiq sistemalar enoropiyasi, ularning tashqi muxit bilan amalga oshadigan aloqasi tufayli yo kamayadi, yo oshadi yoki o'zgarmaydi.

Statsionar xolatda sistema ichidagi entropiya o'zgarishining tezligi uning tashqi muxit bilan entropiya "almashinyv" tezligiga teng, ya'ni (formyla) bo'lib, by tenglama o'z navbatida, ochiq sistemaning statsionar xolatini tavsiflovchi muxim kattaliklarning biriga aylanadi.

Statsionar xolatda to'g'ri reaktsiyalar tezligi teskari reaktsiyalar tezligidan ustun kelishi xam mumkin. Ammo ulararo farq vaqt davomida o'zgarmasdan doimiy qo'jadi. Bynga, sekund sayin o'sishga intilyvchi (formyla) ni minimymga tushirish yo'li bilan erishiladi va shu orqali statsionar sistemaning muxim hossasi bo'l mish ichki barqarorlik ta'minlanadi.

Agarda sistema statsionar xolatdan chetlanishga majbur etilsa, unda sistema ichida Shu onning o'zida shunday o'zgarishiar sodir bo'ladiki, bu o'zgarishiar sistemani uning dastlabki statsionar xolatiga yaqinlashtiradi. Sistemaning mana shunday buzilgan statsionar xolatini tiklay olish qobiyyati *aytostabillanish* deb ataladi. Aytostabillanish mehanizmi asosida aksi aloqa printsipi yotib, mazkur mehanizm statsionar xolat barqarorligini ta'minlashda katta axamiyatga egadir.

Sut emizuvchi hayvonlar hayotida autostabinlanishmexanizmlar faoliyati yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, tarkibida ko'p miqdorda karbonat angidrid tutgan havodan nafas olish, qondagi karbonat angidridni ko'payishiga olib kelmaydi. Chunki qonga o'tgan karbonat angidridi xemoreseprolarga ta'sir etib, mafas markazini qitiqlaydi va shu orqali o'pkadagi gaz almashinuv jadalligi oshirilib, qondagi karbonat angidridi konsentrasiyasining me'yoriga qaytarilishi ta'minlanadi.

Qo'zgaluvchi sistemalar uchun esa beqaror stasionar holat xarakterlidir. Masalan qo'zg'aluvchan membrananing qitiqlagichlar ta'siridan qutubsizlanishi natriy ionlari difuziyasining kuchayishiga sabab bo'ladi. Bu hol membranani yana ham kuchliroq qutubsizlanadiradi.

Suyuqlik oqim tezliklari idishlar H₁, H₂-dagi sathlar farqiga to'g'ri propasional bo'lib, R₁ naychadagi oqim tezligi V₁ q K₁(h₁-h), R₂ naychadagisi esa V₂ q K₂(h-h₂),

teng bo'ladi, bu yerda K_1 va K_2 - o'tkazuvchanlik birliklarida ifodalangan koefisientlar bo'lib, qarshilikka teskari proporsanalidir.

Sistema orqali suyuqlilarni uzlusiz oqish va uning naychalar devoriga ishqalanishi qaytmas jarayonlar bo'lgani uchun sistemada entropiya uzlusiz oshib boradi. Entropiyaning barpo etilish tezligi esa suyuqlik oqimlari tezliklari bilan o'sha oqimlarga sabab bo'luvchi kuchlar ko'paytmasiga teng.


Naycha R_1 da yuzaga keladigan entropiya uchun yozamiz.

$$T \frac{ds}{dt} = V_1 (h_1 - h) \\ R_2 - \text{uchun esa } T \frac{dse}{dt} = V_2 (h - h_2)$$

Bu yerda T -mutloq harorat, ds/dt –entropiyaning o'sish tezligi, V_1 va V_2 – oqim tezliklari ($h_1 - h$) va ($h - h_2$) esa idishlardagi suyuqlik sathalararo farqlardir.

Ish uchun zarur vositalar: ochiq sistemaning gidrodinamik modeli.

Ishni bajarish: Gidrodinamik model vodoprovod sistemasiga ulanib, unga suv yuboriladi. N_1 , N va N_2 idishlardagi suv satxlari turg'unlashgach, ularning balandliklari



1-rasm. Ochiq sistema gidrodinamik modelining chizmasi.

h_1 , h va h_2 o'lchab olinadi. So'ngra vodoprovod jumragi kattaroq ochilib, idishlardagi suv sato'larining yangi kattaliklari o'lchab olinadi. Shu hildagi ishlar N_1 idishdagi suv satxining kamaytirilish xolatlari uchun xam bajariladi va ularga mos h_1 h va h_2 kattaliklari o'lchab olinib, jadvalga ko'chiriladi. O'lchov ishlari tamomlangach, N -idishdagi suv satxlarining xar bir xolatiga bog'liq ravishda R_1 va R_2 naychalarda yuzaga

keladigan suyuqlik oqim tezliklari xisoblab topiladi, ya'ni R_1 uchun $v_1 q k_1 \Delta h_1$, R_2 uchun $v_2 q k_2 \Delta h_2$, bu yerda $k_1 q = \pi r^2 G / 8 \eta l * t$, $\pi q / 3,14$; r - naychalar radiusi, l - naychalar uzunligi, η - yopishqoqlik, t - vaqt, Δh_1 , $q h_1 - h$, Δh_2 , $q h - h_2$ ga teng.

Hisoblab topilgan oqim tezligidan foydalanib, ochiq sistemadagi statsionar xolatni saqlab turish uchun vujudga keltiriladigan entropiya tezligi xisoblab topiladi, ya'ni

$$T \frac{ds}{dt} = K_1 (\Delta h_1)^2 + K_2 (\Delta h_2)^2$$

Xisoblash natijalari xam jadvalga ko'chiriladi.

1-jadval.

	N_1, N_2 Idishlardagi suv balandliklari (h_1, h_2)	Cuv balandliklararo farqlar		Naychalardagi oqim tezliklari		Entropiya o'zgarishi $T \frac{ds}{dt} = TS$
		Δh_1	Δh_2	V_1	V_2	

Jadval ma'lumotlari asosida abstsiss o'qiga h- kattaliklari, ordinata o'qiga esa TS qiymatlari tushirilib, TS-h bog'liqlik grafigi chiziladi. Grafikdan h qiymati bo'yicha TS ning shunday bir kichik qiymati topiladiki, u ochiq sistema N-dagi statsionar holatni ta'minlash uchun zarur bo'lgan entropiyaning o'sish tezligini harakterlaydi.

Adabiyotlar

- Қосимов М.М. Назарий биофизика асослари. Тошкент, Университет, 2006, 220 б.
- Қосимов М.М. Биофизикадан амалий машғулотлар. 1992

3-LABORATORIYA ISHI SUYUQLIKLARNING SIRT TARANGLIGINI ANIQLASH

Nazariy tushuncha:

Suyuqliklarning sirt tarangligi deganda, suyuqlik bilan uning bug'lariaro chegara bo'limida yuzaga keladigan ortiqcha erkin energiya tushuniladi.

Suyuqlikning yuza bo'limida joylashgan molekulalar, uning chuqurligidagi tortishish kuchlari o'zaro tenglashgan molekulalardan, faqat yuzp bo'lim tagida joylashgan molekulalarning bir tomonlama tortishlariga duchor bo'Mishi bilan farqlanadi. Molekulalar tortishish kuchlarining tenglashmaganligi natijasida, yuza bo'Mimida ortiqcha erkin energiya paydo bo'ladi. Shu holda paydo bo'lgan erkin energiya miqdori F quyidagi munosabat orqali ifodalanadi:

$$\Delta F \sigma - \Delta S \quad (1)$$

by erdag'i o-suyuqlik sirt taranglik koeffitsienti, S- yuza maydoni.

Demak, yuza bo'limida kelib chiqadigan ortiqcha erkin energiya yuza maydoni kattaligiga to'g'ri proportsianaldir. Sirt taranglik koeffitsienti (σ) ni suyuqlik yuza maydonini 1 sm ga kattalashtirish uchun talab etiladigan ish sifatida tasavvur etish mumkin

Agarda ish A ni erg larda, yuza maydoni S ni sm larda ifodalansa, u xolda sirt taranglik koeffitsienti erg $^*sm^{-2}$ da o'lchanadi. Ma'lumki, lergqlidin *sm , shunga ko'ra, biz quyidagiga ega bo'lamiz:

$$erg \cdot sm^{-2} qdm \cdot sm^{-1} \quad (2)$$

Suyuqlik sirt taranglik koeffitsientini suyuqlik yuza bo'lim perimetring 1 sm ga oshirish uchun zarur kuch tarzida xam tasawur etish mumkin. Tasavvurlarning qanday bo'lishidan qat'iy nazar, xar ikkala xolda birliklari bir hil natijaga olib keladi, ya'ni erg $\cdot sm^{-2} qdin \cdot sm^{-1}$

Suyuqliklarning sirt tarangligi xaroratga bog'liq bo'lib, xarorat oshganda kamayadi va aksincha. Bu xol suyuqlik yuza bo'limidagi bug' bosimining xaroratga bog'liq ravishda o'zgarishi bilan izoxlanadi. Suyuqliklar sitr tarangligi ba'zi bir kimyoviy moddalar, masalan, bir atomli spirlar, efir, yog' kislotalari va ularning gomologlari ta'siridan juda kamayib ketadi. By hil sirt tarangligi kamaytiryvchi moddalar- sirt moddalar deb ataladi. Qandlar sirt tarangligini o'zgartirmaydi. Mineral tuzlar esa sirt tarangligini biroz oshiradi.

Biologik suyuqliklardan eng yahshi o'rganilgani qon plazmasidir. Uning sirt tarangligi 74-77 din $\cdot sm^{-1}$ atrofida bo'lib qo'shilgan antikyagylyantlar tsitrat, oksilat va hokazolar uning sirt tarangligiga deyarli ta'sir o'tkazmaydi. Ammo eritrotsitlarning kam miqdordagi gemolizi plazma sirt tarangligining kamayishiga sabab bo'ladi. Masalan, gemoglobinning 0,1% li eritmasi, uning sirt tarangligini 12-14 din $\cdot sm^{-1}$ ga kamaytiradi.

Ba'zi bir kasalliklarda qon plazmasining sirt tarangligi o'zgaradi. Uning sezilarli darajada o'zgarishi anafilaktik shokda qayd etilgan.

Qon zARBODINING sirt tarangligi plazmanikidan kam bo'ladi. Uning statik sirt tarangligi faol muddalarga nisbatan ma'lum turg'unlikka ega. Agarda toza suvg'a oleat natriydan ozgina qo'shilsa, uning sirt tarangligi keskin kamayadi. Bordiyu, berilgan moddaning o'sha miqdorda qon zardobiga qo'shilsa, uning sirt tarangligi dastlabki bir necha minut davomida keskin kamayadiyu, keyin tezlik bilan Osha borib, o'zining dastlabki qiymatiga qaytib keladi. Ba'zi bir suyuqliklarda ychraydigan sirt faol moda ta'sirida kamaygan sirt tarangligini avvalgi darajagacha qayta olish qobiliyati sirt yuyferligi nomi bilan yuritiladi.

Ba'zi bir kasalliklarda qon plazmasining sirt tarangligi o'zgaradi. Uning sezilarli darajada o'zgarishi analiktik shokda qayd etilgan.

Ish uchun zarur vositalar: qulaylashtirilgan rebindenr asbobi, issiq va sovuq qonli xayvonlar uchun ishlataladigan fiziologik va Ringer eritmalar, oleat natriyning 0,1% li eritmasi, etil spirti, efir, probirkalar, pipetkalar, probirka shtativi.

1-mashg'ulot. Asbob suyuqlik quyishga mo'ljalangan idishcha (probirkacha) va pastki uchi idishdagi suyuqlik yuzasiga tegib turadigan, cho'ziq uchli maxsus shisha naychani o'z ichiga oladi. Mazkur naychaning ikkinchi uchi rezinka muftaga

ulangan shisha trubka orqali bir tomondan cuvli manometrga ikkinchi tomondan, uch yo'lli kran orqali havo haydovchi sistema (shpris) ga ulanadi. Havo haydovchi Sistema shpris va uning ichidagi havo bosimining bir tekis oshirilishi va zarur bo'lganda havo olishni ta'minlovchi vintlardan tashki topgan.

Ishni bajarilishi: Havo haydovchi sistema uch yo'lli kran orqali atmosferaga ulanadi. Va vintni orqaga aylantirib, shprisga havo olinadi. Idishcha ichiga tushirib qo'yilgan maxsus naychaning uchi tegadigan miqdorda distillangan suv quyiladi. So'ngra uch yo'lli kran shunday holatga keltiriladiki asbobning ichki qismi shpris ichki hajmi bilan ulanib, atmosferadan ajralib qolsin. Manometrdagi suyuqlik sathi esa nol belgisidan surilmasisin. Vintni sekinlik bilan oldinga aylantirib oshib boruvchi bosim hosil qilinadi. Bosim kapilyar uchida havo pufakchasi paydo bo'lib to u yorilmaguncha oshirib boriladida pufakcha yorilgan paytda to'xtatiladi. Va shu paytga mos keladigan havo bosimi manometrda qayd etiladi. Shu xildagi o'lchov ishlari kamida uch martda takrorlanib qayd etilgan bosim kattaliklarining o'rtacha arifmetik qiymati hisoblab topiladi.

2-mashg'ulot. Asbob doimiyligini aniqlash.


Asbob doimiyligini (k) aniqlash uchun sirt tarangligi ma'lum bo'lgan suyuqliklardan foydalaniladi. Odatda Shu maqsadda distillangan suv olinib, yuqorida bayon etilgan tarzda, pufakcha yorilishiga sabab bo'lgan bosim p o'lchab olinadi. So'ngra suvning berilgan xaroratidagi sirt taranglik kattaligi o'lchab topilgan bosim kattaligiga bo'lib, asbob doimiysi (k) qiymati topiladi.

3-mashg'ulot. Eritmalar va ba'zi bir suyuqliklarning sirt tarangliklarini aniqlash.

Yuqorida bayon etilgan tarzda fiziologik eritmalar, Ringer eritmalar, spirt, efir uchun zarur bo'lgan maksimal bosim kattaliklari o'lchab olinadi va distillangan suv yordamida topilgan asbob doimiysi k dan foydalanib quyidagi formyla (σqkp) orqali sanab o'tilgan eritmalar va suyuqliklarning sirt tarangliklari aloxida-aloxida xisoblab topiladi.

3-mashg'ulot. Sirt aktiv moddalarining fiziologik eritmalar va Ringer eritmalar sirt tarangligiga ta'siri.

Berilgan eritmalar uchun zarur bo'lgan bosim kattaliklari o'lchab olingandan so'ng, ishlatilgan eritmалarga oleat natriy eritmasidan bir tomdirilib, Shu zahotiyoq, ular uchun zarur bosim kattaliklari o'lchab olinadi. Keyin esa o'lchash ishlari 1, 3, 5, 10, 15 va 20 min o'tganidan so'ng takrorlanadi. Aniqlangan ma'Jumotlar asosida, vaqtning berilgan daqiqalariga mos keluvchi sirt taranglik kattaliklari xisoblab topiladi. Navbatda abstsiss o'qiga minutlari ifodalangan vaqt, ordinata o'qiga esa $din.sm^{-1}$ larda ifodalangan sirt taranglik kattaliklari tushirilib, suyuqliklar sirt tarangligining sirt aktiv moddalar ta'siridan o'zgarishini aks ettiruvchi grafik chiziladi.



4 - rasm. Quylashtirilgan Rebinder asbobining tuzilishi.

Adabiyotlar

1. Қосимов М.М. Назарий биофизика асослари. Тошкент, Университет, 2006, 220 б.
2. Биофизика (практикум). Под редакцией Н.Г.Богача. - Киев, Высшая школа, 1983.
3. Биофизические методы исследования. Под редакцией Ф.Юбера. -М, 1956.
4. Бурлакова Б.В., Вепренцев Б.Н., Коле О.Р., Крюгер Ю.А. Практикум по общей биофизике. -М., Высшая школа, 1961.
5. Қосимов М.М. Биофизикадан амалий машғулотлар. Тошкент, 1992.

4-LABORATORIYA ISHI

SIRT AKTIV MODDALAR ERITMALARIDA MITSSELLA HOSIL BO'LISHINING KRITIK KONTSENTRATSIYASINI ANIQLASH

Nazariy tushuncha

Mitsella paydo bo'lishining kritik kontsentratsiyasini aniqlashda ishlatiladigan usullar-sirt aktiv moddalar eritmalar kontsentratsiyasi o'zgargan sharoitda ular hajmiy yoki sirt hususiyatlarining o'zgarishiga qayd etishga asoslangan usullardir. Kolloid zarrachalar sirt aktiv moddalarning erkin molekulalaridan adsorbsiya, elektr o'tkazuvchanlik, yorug'lik nurini sochish kabi bir qator hususiyatlari bilan farqlanadi.

Sirt aktiv modda molekulalari kontsentratsiyasining ortishi bilan molekularning agregat hotatiga o'tishi, yuqorida sanab o'tilgan hossalarning kontsentratsiyasiga bog'liq ravishda o'zgarishini aks ettiruvchi egri chiziqda xosil bo'ladigan sinish, mitsella paydo bo'lishining kritik kontsentratsiyasiga mos keladi.

Konduktometrik usul. Konduktometrik usul ion xosil qiluvchi sirt aktiv moddalar eritmali elektr o'tkazuvchanlik hususiyatlarining kontsentratsiyasiga bog'liq ravishda o'zgarishini qayd etishga asoslangan.

Ion hosil qiluvchi sirt aktiv moddalar suyultirilgan eritmalarda o'zlarini kuchli elektritolitlar tarzida namoyon qiladi. Masalan, ular ekvivalent elektr

o'tkazuvchanliklarning tuban kontsentratsiyalaridan tortib to mitsella paydo bo'lishining kritik kontsentratsiyalari darajastgacha bo'lgan interval kontsentratsiyaga bog'liqligi, kolloid elektrolitlardan farqlangan xolda deyarli chiziqli kritik kontsentratsiyasiga erishganda to'g'ri chiziqda sinish xosil qiladi, so'ngra kontsentratsiyaning navbatdagi ortishi bilan ekvivalent elektr o'zgaruvchanlik keskin kamayadi. By hoi shunga bog'likki, garchi xosil bo'lgan ionli mitsellalar tok o'tkazish qobiliyatiga ega bo'lsada, ular o'lchamlarining kattaligi tufayli elektr maydonida erkin ionlarga nisbatan kam harakatchanlikka ega bo'ladi.

Bundan tashqari, zaryadli mitsellalar tomonidan keltirib chiqariladigan kuchli elektrostatik itarish kuchi qarshi ionlarning bir qismini mitsellalarga bog'laydi. Natijada sistemaning elektr o'tkazuvchanlik qobiliyati pasayadi.

Mitsella paydo bo'lishining kritik kontsentratsiyasini aniqlashda solishtirma elektr o'tkazuvchanlikning kontsentratsiyaga bo'lgan bog'liqligidan foydalanish qulayroq. CHin eritmalar soxasida eritmaning solishtirma elektr o'tkazuvchanligi kontsentratsiyaning ortishi bilan oshib boradi. Kritik kontsentratsiyasi darajasiga erishilganda esa sinish kuzatiladi va by sinish nuqtasi mitsella paydo bo'lishining kritik kontsentratsiyasiga mos keladi.

Sirt aktiv moddalar molekularari zanjirlarining uzun kataliklari uning aniqlik darajasiga ta'sir etmaydi va amalda eritmaning sirt tarangligi bir hilda o'zgarib boradi. Mitsella paydo bo'lishining kritik kontsentratsiyasi zanjir uzunligining o'zgarishiga qarab o'zgarib borishi mumkin.

Sirt aktiv moddalar eritmalarida mitsella paydo bo'lish xodisasi

Sirt aktiv moddalar faqat tuban kontsentratsiyalar soxasidagina xaqiqiy eritmalar xosil qila oladilar. Ularning eritma molekulalar yoki ion xolatidagi xaqiqiy eritmalar xosil qila oladigan kontsentratsiyalari 10^{-5} - 10^{-3} mol·l⁻¹ diapazonida yotadi. O'sha kontsentratsiyalar doirasidan yuqorida ular eritmada koiloid agregatlar-mitsellalar xosil qiladi va shuning uchun sirt aktiv moddalarining eritmalarini koiloid stryktyrasiga ega bo'ladi. Bu xol o'z navbatida sirt aktiv modda eritmalarining muxim harakterli belgisiga aylanadi.

Mitsella xosil bo'lish jarayoni quyidagicha amalga oshadi. Eritma kontsentratsiyasi ma'lum bir darajaga erignadan so'ng, eritmadiagi sirt aktiv modda molekulalari o'z-o'zligidan aggregatlana boshlaydi. Molekullarning uglevodorodli dumlari, van-der-vaals kuchlari ta'siridan, bir- birlariga yopishib, mitsella yadrosini shakllantiradi, molekulalarning qutbli dumlari esa suv fazaga yo'nalib gidratlanadi.

Demak, xar bir mitsella uglevodorod yadro va uning kimyoviy bog'langan qutbli guruxlardan tashkil topib, gidrat qobiq bilan o'ralgan uglevodorod tomchisidan iborat.

Ish uchun zarur vositalar: reohordli ko'prikscha, elektr o'tkazuvchanlik o'lchash idishi, suvli termostat, oleat natriyning 0,1 M eritmasi, distillangan suv, 50 ml xajmga mo'ljallangan o'lchov tsilindri.

Elektr o'tkazuvchanlik idishiga (yacheykaga) tekshiriladigon eritmadan shunday bir hajmda qo'yilsinkiy, u yacheyka elektrodlarini to'la yopsin. Yacheyka termostatga joylashtirilib, uning elektrodlari reohordli ko'prikschaning klemmalariga ulanadi va shu onning o'zidayok, yacheykadagi eritmaning elektr qarshiligi o'lchab olinadi. So'ngra, pipedka yoki o'lchov silindri yordamida yacheykadagi eritmaning

yarmi olinib, uning o'rniga o'shancha xajmga ega distillangan suv qo'yiladi-da, eritmaning elektr qarshiiigi yana o'chanadi. SHu hildagi suyultirish va o'lchash ishlari 8 marta takrorlanib, qayd etilgan natijalar yozib borildi va ular asosida qyydag'i tenglama yordamida eritmalarining solishtirma elektr o'tkazuvchanliklari xisoblab topiladi, ya'ni

$$X = \frac{k}{R_x}$$

by erdag'i k - yacheyka doimiysi, R_H - omlarda ifodalangan, olchab olingan eritma qarshiligi.

Yacheyka doimiysi k-ni aniqlash uchun ikki marta qayta kristallashtirilgan kaliy hlorid tuzinining aniq kontsentratsiyali eritmasi tayyorlanib, reohornli ko'prikchada uning qarshiligi o'lchanadi. Topilgan qarshilikni quyidagi tenglamaga qo'yib, yacheyka doimiysi xisoblanib olinadi:

$$kqX_0R_0$$

by erda R_0 - aniq kontsentratsiyali kaliy hlorid eritmasining qarshiligi, X_0 - eritmaning berilgan haroratdagi qarshiligi bo'lib, kaliy hloridning 0,02 n eritmasi uchun 25°C da u 0,002768 $\text{om}^{-1}\text{-sm}^{-1}$ ga teng.

O'lchash ishlari tamom bo'lgach qo'lga kiritilgan ma'lumotlar asosida, abstsiss o'qiga mol- l^{-1} larda ifodalangan eritma kontsentratsiyalari. ordinata o'qiga esa $\text{om}^{-1}\text{-sm}^{-1}$ larda ifodalangan eritmalarining solishtirma qarshiliklari tushirilib. R-S bog'liqligini aks ettiruvchi grafik chiziladi. Grafikda xosil bo'lgan sinish bo'yicha unga mos keladigan oleat natriyning mitsella xosil qilish kritik kontsentratsiyasi topiladi.

2-mashg'ulot. Ish uchun zarur vositalar: *Sirt tarangligini o'lchaash asbobi, oleat natriyning 0,1 M eritmasi, natriy ishqorining 0,001 n eritmasi, og'zi yopiladigan probirkalar, pipetkalar*

Oleat natriyning 0,1M eritmasida 50 ml hajmga ega 0,010, 0,001, 0,0001 M eritmalar ulardan esa oraliq konsentrasiyaga ega eritmalar ham tayyorlab olinadi. Tayyorlangan eritmalariga natriy ishqorining 0,001 n eritmasidan qo'shiladi. Bundan maqsad, kuchli suyultirish natijasida kelib chiqadigan oleat natriyning gidrolozoni to'xtatish, sovun va erkin organik kislotalardan hosil bo'ladigan kislota xususiyatiga ega cho'kmalarni bartaraf etishdan iborat.

Tayyorlangan eritmalarining sirt tarangliklari o'lchab topiladi. Bunda eritmalarining statik sirt tarangliklari o'lchanishi shart va shuning uchun har bir o'lchov operasiyasi 1.5-2 minut davomida bajariladi. Olingan natijalar asosida **σ-Ig C** bog'liqligini aks ettiruvchi grafik chiziladi. Grafikda qayd etiladigan keskin sinish misella paydo bo'lishining kritik konsentrasiyasiga mos keladi.

Adabiyotlar

1. Қосимов М.М. Назарий биофизика асослари. Тошкент, Университет, 2006, 220 б.

- Биофизика (практикум). Под редакцией Н.Г.Богача. - Киев, Высшая школа, 1983.
- Биофизические методы исследования. Под редакцией Ф.Юбера. -М, 1956.
- Бурлакова Б.В., Вепренцев Б.Н., Коле О.Р., Крюгер Ю.А. Практикум по общей биофизике. -М., Высшая школа, 1961.
- Қосимов М.М. Биофизикадан амалий машғулотлар. Тошкент, 1992.

5-LABORATORIYA ISHI BIOLOGIK SUYUQLIKLARNING OSMOTIK BOSIMLARINI ANIQLASH

Nazariy tushuncha

Eritmalar va to'qima suyuqliklarining osmotik bosimini o'Ihash maqsadida ishlatiladigan osmometrik usul (metod), ishlatiladigan membranalarning idea! emasligi, ya'ni ularning faqat erituvchi molekulalarning emas, erigan modda molekulalarini xam o'tkazib yuboradiganligi uchun etarli darajada aniqliqqa ega emas. SHuning uchun, odaida eritmalar va biologik suyuqiiklarning osmotik bosimlarini aniqroq o'Ihash maqsadida eritmalarining ba'zi bir fizikaviy hossalari, masalan, eritma ustidagi bug1 bosimining eritma kontsentratsiyasiga bo'lган bog'liqi singari parametrlarni o'lchashga asoslangan oddiy usul (metod) lardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Quyida shu hildagi metodlardan eng soddasining nazariy asosiari bayon etiladi.

1.Eritma ustidagi bug' bosimi (zichligi) ning o'zgarishga asoslangan metod.

Rayl qonyning binoan, elektrlitmas eritma ustidagi bug' bosimining nisbiy kamayish, erigan modda molyar kontsentratsiyasiga to'g'ri proportsianaldir, ya'ni

$$\frac{P_0 - P}{P_0} = \frac{n}{N + n} \quad (1)$$

by erdag'i r0- erituvchi ustidagi bug' bosimi, r- eritma ustidagi bug' bosimi, N - sof eritmaning mol soni, n- erigan modda mol soni. Bordiyu, N>n bo'lsa, u xolda mahrajdagi n- ni inobatga olmay,

$$\frac{P_0 - P}{P_0} = \frac{n}{N + n} \quad (2)$$

ni xosil qilamiz.

Mazkur tenglamaga ko'ra, bug' bosimining nisbiy kamayishi erigan moddaning molyar kontsentratsiyasiga bog'liq bo'lib, eritma ustidagi bug' bosimi erityvchining molyar kontsentrasiga proportsianaldir. Boshqacha aytganda, erituvchi ustidagi bug' bosimi xamma vaqt eritma ustidagi bug' bosimidan katta bo'ladi.

Ish uchun zarur vositalar: mikroskop, okulyar mikrometrii, kapillyar naychalar, predmet va soat oynachalari, natriy hlориднинг 1%, 2%, 3% li eritmalar, biologik suyuqliklar, filtr qog'oz.

1-mashg'ulot. Noma'lum eritmaning kontsentratsiyasini aniqlash.


O'qituvchidan kontsentratsiyasi aniqlanishi kerak bo'lган eritma olinadi. So'ngra natriy hlориднинг asosiy eritmalaridan uning 0,5%; 1,5%, 2% li eritmalar

tayyorlab olinib, navbatda, ulardan kontsentratsiyalari 0,1 % ga farqlanadigan oraliq kontsentratsiyali eritmalar tayyorlanadi. Eng ohiridagi eritmalarini ishlatalib, yuqorida bayon etilgan tarzda, berilgan noma'lum eritmaning kontsentratsiyasi topiladi.

2-mashg'ulot. Biologik suyuqlikning osmotik kontse'ntratsiyasi va osmotik bosimini aniqlash.

O'qituvchidan biologik suyuqlik olinadi va yuqorida tayyoriangan natriy hlorid eritmalaridan foydalanib, berilgan biologik suyuqlikning, dastlabki osmotik kontsentratsiyasi, keyin esa osmotik bosimi aniqlanadi.

O'lchashlar 3-rasmda ko'rsatilgan Bardjer-Rast metodi bo'yicha o'lchashlar olib boriladi.



3-rasm. Eritmalar kontsentratsiyasini aniqlashda ishlataladigan Bardjer-Rast metodi.

A- kapillyalarning predmet oynachasidagi xolati,
B- okulyar mikrometri fonidagi menisk xolati.

Adabiyotlar

- Қосимов М.М. Назарий биофизика асослари. Тошкент, Университет, 2006, 220 б.
- Биофизика (практикум). Под редакцией Н.Г.Богача. - Киев, Высшая школа, 1983.
- Биофизические методы исследования. Под редакцией Ф.Юбера. -М, 1956.
- Бурлакова Б.В., Вепренцев Б.Н., Коле О.Р., Крюгер Ю.А. Практикум по общей биофизике. -М., Высшая школа, 1961.
- Қосимов М.М. Биофизикадан амалий машғулотлар. Тошкент, 1992.


6-LABORATORIYA ISHI BAQA YURAGI MISOLIDA HARORAT KOEFFITSENTI VA AKTIVLANISH ENERGIYASINI SHTRAUBE USULIDA HISOBLAB TOPISH

Ish uchun zarur vositalar: 100 ml xajmga ega konyssimon kolbachalar (3 dona) va ularni yopishga mo'ljallangan rezina qopqoqiar, 0-50°S shkalaga ega termometrlar (3 dona), qor yoki muz, qurbaqlar.

Dastlab uch dona kamera tayyorlab olinadi. Kamera sifatida titrlash uchun ishlataladigan kolbachalar tavsiya etiladi. Kolbachalarga mos qopqoqiar tanlab olinib, ulardan qopqoq burg'isi yordamida ikkitadan teshik oshiladi. Teshiklarning biriga

termometr joylashtiriladi, ikkinchisi esa konyulya uchun mo'ljallangan bo'lib, u ochiq qoldiriladi. Kolbachalarga oz miqdorda suv qyyilib, termometr joylashtirilgan qopqoqiar bilan yopib qo'yiladi. ish paytida, termometrning simobli terezvyari o'sha probkaga joyiashtirilgan konyulya uchidan tahminan 0,5 sm pastda turishi shart. Shu tarzda tayyorlangan kameralardan biri ish bajaradigan stol ustida qoldiriladi. Ikkinchisi iliq suv quyilgan stakanga, uchunchisi esa qor-suv aralashmasi solingan stakanga tushirilib qo'yiladi (2-rasm). So'ngra kameralarda xarorat turg'uniashgyncha, SHtraub usulida qurbaqa yuragining izolirlangan preparati tayyorlanadi.

Ishning borishi. Shtraub metodiga muvofiq tayyorlangan yurak preparati stol ustida qoldirilgan kameraga joylashtirilib, 5-6 minut o'tgandan so'ng, preparat ritmini sanashga kirishiladi. Buning uchun sanash boshlanishi bilan bir vaqtda, sekundomer yurgizilib, yurak 20 marta qisqargandan so'ng to'htatiadi. Shu hildagi sanash 3-4 marta takrorlanib, ulardan yurak ritmining 1 minutdagi o'rtacha soni xisoblab topiladi. So'ngra, yurak preparati xarorati hona xaroratidan 10°S ga yuqori kameraga o'tkaziladi. Kamera ichidagi xarorat turg'unlashgach, yuqorida ko'rsatilgan tarzda, yurak ritmi yana bir necha bor sanab olinadi. Sanash tamom bo'lgach, yurak preparati xarorati hona xaroratiga teng kameraga ko'chirilib, avvalgi ritm tiklanishi kutiladi.



2-rasm. Qurbaqa yuragi qisqarish kinetakasining xaroratga bog'liqligini o'rGANISHGA MO'LJALLANGAN MOSLAMA CHIZMASI.

A- SHtraub konyulasi, B- yurak preparati joylashtirilgan kameraning umumiy ko'rinishi, V- kameraning qor-suv aralashmasi solingan stakanga joylashtirilgan xolati.

Dastlabki ritm tiklangach, preparat xarorati hona xaroratidan 10°C ga past kameraga o'tkaziladi va kameradagi xarorat turg'unlashgach, yurak ritmi yana bir necha marta sanab olinadi. Sanash ishlari nixoyasiga etkazilgandan keyin, xisoblab topilgan o'rtacha ritmlar asosida, yurak ritmining xaroratini 10°C oshirish uchun mos xarorat koeffitsienti Q_{10} , so'ngra jarayonning "aktivlanish energiyasi" xisoblab topiladi.

Shu hildagi xisoblashlar xaroratni 10°C pasaytirib o'tkazilgan tajriba ma'lumotlari asosida xam bajariladi.

Xisoblashga misol. Faraz qilaylik: hona xarorati 18°C ($T_1=273\text{K}$) bo'lgan sharoitda yurak 38 sekund davomida 20 marta qisqardi. Xarorat 10°C ga oshirilganda esa, ya'ni 28°C ($T_2=291\text{K}$) da 20 sekund davomida 20 marta, 1 minutda esa $20-60\text{G}^{-1}$ marta qisqardi. Demak, $R_{T_1}=31$ va $R_{T_2}=60$ ga teng. U xolda, mazkur jarayonning xarorat koeffitsienti quyidagiga teng bo'ladi:

$$Q_{10} = \frac{R_T + 10}{R_T} = \frac{60}{31} = 1.9$$

Yuqorida bayon etilganidek, agarda bizga jarayonning xarorat koeffitsienti va tajriba sharoitdagi xarorati ma'lum bo'lsa, u xolda biz o'rganmoqchi bo'lgan jarayonning "aktivlanish energiyasi" ni xam xisoblabtopa olamiz. Buning uchun jarayon xarorat koeffitsientining o'nli logarifmi va xarorati kattaliklarini tenglamaga qo'yib, xisoblash ishlarini bajaramiz. Yuqoridagi ma'lumotlardan foydalanib, yurak ritmining aktivlanish energiyasi uchun quyidagini xosil qilamiz: agarda $Q_{10}=1.9$ ga teng bo'lsa, tajriba sharoitdagi xarorat $T_1=291$, $T_2=301$ ga tengdir. Unda jarayonning "aktivlanish" energiyasi

$$\begin{aligned} E &= 0.46 \cdot (T_2 - T_1) \lg Q_{10} = 0.46 \cdot 291 - 301 \cdot 0.2785 \\ &= 11293 \text{ J mol}^{-1} - 11,293 \text{ KJ mol}^{-1} \end{aligned}$$

Adabiyotlar

1. Қосимов М.М. Назарий биофизика асослари. Тошкент, Университет, 2006, 220 б.
2. Биофизика (практикум). Под редакцией Н.Г.Богача. - Киев, Высшая школа, 1983.
3. Биофизические методы исследования. Под редакцией Ф.Юбера. -М, 1956.
4. Бурлакова Б.В., Вепренцев Б.Н., Коле О.Р., Крюгер Ю.А. Практикум по общей биофизике. -М., Высшая школа, 1961.
5. Қосимов М.М. Биофизикадан амалий машғулотлар. Тошкент, 1992.

7-LABORATORIYA ISHI XLORID KISLOTA ERITMARIARO YUZAGA KELADIGAN DIFFUSION POTENTSIALLAR FARQINI O'LCHASH VA HISOBBLASH

Nazariy tushuncha

Diffuzion potentsiallar bir hil erituvchida erigan tuzlar, kislotalar va asoslarning har hil kontsentratsiyali ikki eritmalararo bog'liq mavjud bo'lib eritmardagi ionlarning harakatchanliklari o'zaro farqlangan sharoitda kelib chiqadi.

Diffuzion potentsialning kelib chiqishi o'z tabiatiga ko'ra eritmardagi ionlar kontsentratsiyalari va ular diffuziya tezliklari bilan turlicha bo'lishi bilan ajralib turadi. Masalan, hlorid kislota eritmasida vodorod va hlor ionlari diffuziya tezliklarining turlicha bo'lishi tufayli vodorod ionlari hlor ionlarini

quvib o'tadi. Bordi-yu hlorid kislotaning ikki hil kontsentratsiyali eritmalararo bog'liq mavjud bo'lsa, u xolda suyultirilgan eritma kontsentratsiyasi yuqori eritmaga nisbatan musbat zaryadlanadi. Ammo musbat zaryadli ionlaming o'zaro itarilishlari va manfiy zaryadli ionlarning musbat zaryadli ionlarga tortilishlari natijasida eritmada qo'shimcha ozmi-ko'pmi tekislanadi. Elektrolitlararo kontsentratsiyalar farqf saqlangan xolda ionlaning elektrostatik ta'sirlanishidan qat'iy nazar ulararo potentsialtar farqi mavjud bo'ladi.

Diffuzion potentsiallar farqi "shikastlanish potentsiali" deb ataladigan potentsialning muxim tashkillovchilaridan bo'lishi extimolidan noli emas. To'qima zararlaganda vujudga keladigan o'sha shikastlanish potentsiali zararlanish paytida bog'langan xolatdan erkin holatga o'tgan kaliy yoki vodorod ionlari bilan xujayralardagi oqsil ionlari harakatchanliklarining turlicha bo'lishi bilan farqlanishi mumkin. Ma'lumki, oqsil anionlari ular o'lchamlari kattaltigiga bog'liq holda kam harakatchanlikka ega. Shu sababdan shikastlanish potentsiali ko'pincha ancha katta qiyatlarga erishadi.

Kation va anionlar harakatchanliulari bir hil yoki o'zaro kam farqlanganda, potentsiallar farqi minimalga qiyamatga ega bo'ladi va uning kattaligi kontsentratsiyalardagi farq bilan belgilanadi. Bunday xol kaliy hlorid 2 hil eritmalararo kontakt mavjud bo'lgan sharoitda kuzatiladi.

So'ngra stakanchalardagi hlorid kislota eritmalarini boshqa bir agarli sifon vositasida o'zaro ulanadi. Ritmalarning qutblik xolatlariga mos ravishda ularga aloqalar elektrodlar millivoltmetrning klemmalariga ulanib, eritmalararo kelib chiqqan potentsiallar farqi o'lchanadi va yozib olinadi. O'lchash bajarilgach, stakanchalararo joylashtirilgan agarli sifon ishlatilayotgan eritmalarning biri bilan to'ldirilgan sifonga almashtiriladi, sistemadagi poenttsiallar farqi yana o'lchanadi.

